

Nazarova G.N.

# POCHTA ALOQASI INFRASTRUKTURASI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

NAZAROVA G.N.

# POCHTA ALOQASI INFRASTRUKTURASI

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot  
texnologiyalari universiteti tomonidan (nomutaxassis ta'lim  
yo'nalishlarida tahsil oluvchi talabalar uchun) o'quv qo'llanma  
sifatida tavsiya etilgan

Toshkent  
"TAHRIRIY NASHRIYOT"  
2024

UDK: 654.07(075.8)  
BBK: 65.38ya7  
N 18

Nazarova G.N.

**Pochta aloqasi infratuzulmasi. O'quv qo'llanma.**  
*(bakalavriat yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun).*  
- Toshkent: "METHODIST NASHRIYOTI", 2024. - 168 b.

O'quv qo'llanmada Pochta aloqasi infratuzulmasi va uning asosiy tushunchalari, ishlab chiqarish jarayonlarini belgilovchi me'yoriy xuquqiy-bazasi, texnik-iqtisodiy xususiyatlari, pochta aloqasining xalqaro tashkilotlari faoliyatini o'rganish va pochta marshrutlarining rejalarini tuzish, integratsiyalashgan xavfsizlik tizimlari, logistika konsepsiyasi asosida pochta transportni boshqarish jarayonlarining yagona transport sxemasini qurish, pochta tashish rejaları va tarmoqda integratsiyalashgan xavfsizlik tizimlaridan foydalanish haqida nazariy va amaliy asoslari muhokama etilgan.

**Taqrizchilar:** *Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti "Pochta aloqasi texnologiyasi" kafedrası mudiri, texnika fanlari nomzodi, dotsent Usmonov J. T.*  
*Unicon. uz DUK Sertifikatlashtirish protseduralari bo'limi yetakchi muhandisi Abdulazizova G. S.*

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 2023-yil 10-maydagi 500-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.**

ISBN 978-9910-03-221-9

© © Nazarova G.N., 2024.  
© "METHODIST NASHRIYOTI", 2024.

## MUQADDIMA

*Insoniyat XXI asrning taraqqiy etgan texnologiyalari bilan hamnafas yashamoqda.*

*Fan-texnikaning ulkan yutuqlari bo'lgan texnologiyalar kirib kelishi, ana shu vositalar orqali xabarlar bir zumda sayyoramiz uzra tarqalishi, yangiliklarga, xabarlarga bo'lgan ehtiyojlarning kundankunga oshib borishiga sabab bo'lmoqda.*

*Pochta aloqasi xizmati eng qadimgi faoliyat turlari sirasiga kiradi, chunki qadimgi davrlarda ham odamlarda ma'lumot almashishga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lgan.*

*Pochta aloqasi tizimi bugungi kunda mamlakat hududlarida xat va pochta jo'natmalari bilan bir qatorda tovarlarni yetkazib berish, bank, moliya va davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha o'z infratuzulmasiga ega bo'lgan muhim soha hisoblanadi.*

*Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, pochta aloqasi xizmatlarini taqdim etish faoliyatini to'liq avtomatlashtirish orqali pochta rivojlanishi indeksi global reytingida mamlakatimizni birinchi 50 talikka kiritish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 14-dekabrda "Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4921-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda Logistika markazlarini tashkil etish, tovarlarni saqlash va yetkazib berishni o'z ichiga olgan xizmatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish, pochta aloqasi obyektlari orqali to'lovlarni onlayn rejimda qabul qilish avtomatlashtirilgan tizimini modernizatsiyalash va uning mobil ilovasini ishlab chiqish, olis va chekka hududlardagi pochta bo'limida davlat xizmatlari ko'rsatilishini yo'lga qo'yish, pochta binolarini qayta qurish va ta'mirlash hamda ulardan unumli foydalanish, pochta aloqasi bog'lamasining moliyaviy va iqtisodiy ahvolini yaxshilash hamda pochta xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha alohida vazifalar belgilab qo'yilgan bo'lib, unda sohani rivojlantirish va serdaromad sohaga aylantirishning ustuvor yo'nalishlari hamda pochta aloqasi sohasida mutaxassislar tayyorlashning yuqori darajasini ta'minlashga va malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan. Yuqoridagi keltirilgan vazifalarni amalga oshirishda sohaga*

malakali kadrlar tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bu vazifalarni amalga oshirishda pochta sohasiga oid o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqish ham e'tibor berish kerak bo'lgan muhim jihatlardan hisoblanadi.

O'quv qo'llanmaning birinchi bobida pochta korxonalarining asosiy xususiyatlari, O'zbekiston Respublikasi pochta aloqasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi, sohani modernizatsiyalashda pochta aloqasi infratuzulmasining tutgan o'rni hamda sohaga axborot texnologiyalariga asoslangan yangi xizmat turlarini joriy etish masalalari yoritilgan.

Pochta aloqasining texnik-iqtisodiy xususiyatlari va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, pochta aloqasining normativ bazasini shakllantirish va O'zbekiston Respublikasining pochta aloqasi xizmati faoliyatining me'yoriy-huquqiy asoslarini o'rganish, xorijiy davlatlar bilan pochta aloqasi sohasidagi faoliyatlar mustahkamlash kabi ma'lumotlar keltirilgan.

Ikkinchi bobda pochta aloqasining xalqaro tashkilotlari, Umumjahon pochta ittifoqi tuzulmasi, Xalqaro pochta almashinuvini tashkil etishda transport tarmoqlarining asosiy vazifalari, Pochta aloqasining yagona transport sxemasini qurishda transport harakatini nazorat qilish, havo transporti orqali pochta tashishni tashkil qilish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Uchinchi bobda Pochta aloqasini tashkil etish, viloyat va viloyat ichida pochta aloqasini tashkil etish, viloyat ichida pochtani tashishni tashkil qilishda transport vositalarining o'rni, pochta jo'natmalariga ishlov berish va harakatlanish tizimlari, shaharda aloqa obyektlari va punktlarini rivojlantirish va joylashtirish pochta jo'natmalarini yetkazib berishni tashkil qilish masalalariga qaratilgan bo'lib, unda magistral pochta aloqasini tashkil qilish, Xalqaro pochta jo'natmalari xizmatini taqdim etishda transport vositalarining o'rni, pochta tashishning magistral marshrutlarida optimallashtirish va yetkazib berish usullari ko'rib chiqilgan.

Qo'llanmaning to'rtinchi bobi pochta jo'natmalarini transport vositalarida tashishni samarali tashkil etish yo'llariga bag'ishlangan bo'lib, unda pochta jo'natmalarini transport vositalarida tashishning samarali tashkil etish yo'llari, avtomobil parkida elektron nazoratni

tashkil etish bilan birga transportni boshqarish tizimlari ko'rib chiqilgan. Pochta yo'nalishlarida pochta jo'natmalarini saqlashni tashkil etish yoki logistika konsepsiyasi asosida transportni boshqarish jarayonini amalga oshirishni ta'minlash, integratsiyalashgan xavfsizlik tizimlari bo'yicha amalda keng qo'llanilayotgan boshqarish modellari va ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar bayon etilgan.

Bundan tashqari, pochta yo'nalishlarida pochta jo'natmalarini saqlashni tashkil etish va logistika konsepsiyasi asosida transportni boshqarish jarayonini amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha CRM-tizimida GPS-sun'iy yo'ldosh kuzatuv tomonidan boshqariladigan "IMG" GPS transport monitoring tizimi avtomobil xarajatlarini optimallashtirish va avtomobil parkidan foydalanish samaradorligini oshirish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot vositalari va simsiz tarmoqlarda xavfsizlik muammolari va risklarni boshqarish masalalariga ham to'xtalib o'tilgan.

## 1-BOB. POCHTA ALOQASI INFRATUZULMASI

### 1.1. Pochta infratuzulmasi fanining predmeti va maqsadi

Pochta aloqasining ishlab chiqarish faoliyati aholiga, korxonalar va tashkilotlarga xizmat ko'rsatishdan iborat. Pochta aloqasi korxonalarining asosiy vazifasi jo'natuvchilardan pochmani qabul qilib, uni qayta ishlash, manzilga o'z vaqtida yetkazib berish sanaladi. Pochtadan jo'natiladigan jo'natmalar yaxshilab o'ralgan va pochta qoidalariga muvofiq to'ldirilgan bo'lishi shart va nashr mahsulotlari ham xuddi shunday manzilga yetkazib berilishi ta'minlangan. Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim o'rin tutadigan pochta aloqasi o'z samaradorligi bilan ishlab chiqarishning normal ishlashi va tovarlar hamda xizmatlar munosabatlarida, shuningdek, jamiyat rivojlanishida inson hayot faoliyatining muhim qismi hisoblanadi. Pochta tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molini bog'laydi, ishlab chiqaruvchilar kabi iste'molchilarga xizmat ko'rsatadi, iqtisodiyotga, boshqaruvga, shuningdek, biznesni rivojlantirishda va insonlarning turmush tarzini oshirishga faol ta'sir etadi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatishda o'z faoliyatini to'g'ri tashkil qilgan soha sifatida ajralib turadi. Pochta aloqasini tashkil etishda eng asosiysi pochta jo'natmalarini qabul qilish, ishlov berish va manzili bo'yicha yetkazish eng muhim ahamiyatga ega.

Pochta aloqasi pochta va kuryerlik jo'natmalari, pul mablag'larining pochta o'tkazmalarini (bundan keyin - pul o'tkazmalarini) qabul qilish, ishlov berish, tashish va yetkazib berish (topshirish) yagona ishlab chiqarish-texnologik ishlar kompleksi amalga oshirilishini ta'minlovchi aloqa turi hisoblanadi.

Manzili yozilgan yozma xat-xabarlar, tegishli o'ramdagi posilkalar va bosma nashrlar pochta jo'natmalari hisoblanadi.

*Pochta aloqasi obyektlari* - pochta aloqasi operatorlarining alohida bo'linmalari (pochtamtlar, pochta aloqasi bog'lamalari, bo'limlari, punktlari, shuningdek, boshqa bo'linmalar).

O'zbekistonda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish tartibi "Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalari" da ko'zda tutilgan.

*Pochta aloqasi milliy operatori* - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan zimmasiga O'zbekiston Respublikasi doirasida universal xizmatlarni majburiy taqdim etish funksiyalari yuklangan pochta aloqasi operatori. Respublikadagi pochta aloqasi tarmog'i pochta aloqasi obyektlari va pochta yo'nalishlarining majmuyi bilan hosil qilinadi.

Pochta aloqasining asosiy xususiyatlaridan biri pochta almashuvi tushunchasi mavjud - ma'lum vaqt oralig'ida qabul qilingan, ishlov berilgan va belgilangan joyga tashilgan pochta va kuryerlik jo'natmalarining miqdori.

Transport va pochta aloqasi obyektining xodimlari vositasida pochta aloqasi obyektlari o'rtasida pochmani qabul qilish-topshirish jarayoni *pochta almashuvi deb nomlanadi*. Agar pochmani faqat qabul qilish yoki faqat topshirish bajariladigan bo'lsa, almashuv bir tomonlama hisoblanadi.

Ayrim pochta aloqasi obyektlarida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilishda jo'natiluvchi, kiruvchi va tranzit pochta almashuvi farqlanadi.

Jo'natiluvchi pochta almashuvi belgilangan joyga keyingi jo'natish uchun jo'natuvchilardan qabul qilingan pochta, kuryerlik jo'natmalaridan, pul o'tkazmalaridan iborat.

Belgilangan joyi bo'yicha pochta jo'natmalari mahalliy, shahardan tashqari, ichki va xalqaro jo'natmalarga ajratiladi. Kiruvchi pochta almashuvi adresatlarga yetkazib berish (topshirish) uchun pochta aloqasi obyektlariga kelgan pochta, kuryerlik jo'natmalaridan, shuningdek, pul o'tkazmalaridan iborat. Tranzit pochta almashuvi ishlov berish va keyinchalik belgilangan joyga jo'natish uchun boshqa pochta aloqasi obyektlaridan pochta aloqasi obyektiga kelgan pochta, kuryerlik jo'natmalaridan, shuningdek, pul o'tkazmalaridan iborat.

Pochta aloqasi bog'lamasi barcha turdagi pochta aloqasi xizmatlarini, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq boshqa xizmatlarni taqdim etadi, pochta ishlov berish va ularga birlashtirilgan pochta yo'nalishlari bo'yicha tashishni ta'minlaydi hamda bo'ysunuvidagi pochta aloqasi bo'linmalariga rahbarlikni amalga oshiradi.

Pochta aloqasi bog'lamasi pochta va kuryerlik jo'natmalari, pul

o'tkazmalarini jo'natish va yetkazib berish (topshirish), ularga birlashtirilgan hududda pochtaga ishlov berish va almashish bo'yicha o'zaro bog'langan funksiyalarning bajarilishini ta'minlovchi pochta yo'nalishlari kesishgan yoki tutashgan punktda joylashadi.

Pochta aloqasi obyekt va transport o'rtasida pochta vaqtincha saqlash, unga ishlov berish va almashish maqsadida tashkil qilingan pochta aloqasi obyekt pochta almashuv punkti hisoblanadi.

Shaharning markaziy qismida joylashgan, bo'ysunuvidagi pochta aloqasi bog'lamalari va yoki bo'linmalariga rahbarlikni amalga oshiruvchi hamda pochta, kuryerlik jo'natmalari va pul o'tkazmalarining jo'natilishi va yetkazib berilishi (topshirilishi)ni ta'minlovchi pochta aloqasi obyekt pochta hisoblanadi.

Xalqaro pochta - xalqaro pochta almashuvi joyi hisoblanadigan, xalqaro pochta, kuryerlik jo'natmalarini jo'natish, topshirish, birlashtirilgan pochta yo'nalishlari bo'yicha pochta tashish, tranzit, jo'natiluvchi va kiruvchi pochta almashuviga ishlov berish, shuningdek, foydalanuvchilarga pochta aloqasi xizmatlarini taqdim etishni amalga oshiruvchi pochta aloqasi milliy operatorining tarkibiy bo'linmasi.

Foydalanuvchilarga pochta aloqasi xizmatlarini, boshqa turdagi xizmatlarni ko'rsatuvchi, pochtaga ishlov berish va almashishni amalga oshiruvchi pochta aloqasi obyekt pochta aloqasi bo'linmasi hisoblanadi. Pochta aloqasi bo'linmalari stasionar yoki ko'chma (stasionar pochta aloqasi obyektlari bo'lmagan joylarda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish, shuningdek pochta tashish uchun pochta transportida tashkil qilinadigan) bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, yilning ma'lum davri davomida sanator-dam olish, sog'lomlashtirish va boshqa mavsumiy muassasalarga xizmat ko'rsatish uchun mavsumiy pochta aloqasi bo'linmalari tashkil qilinadi.

## 1.2. Pochta korxonalarining asosiy xususiyatlari va uni rivojlantirish yo'nalishlari

Pochta aloqasi ham alohida hududlarning, ham butun mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatini rivojlantirishda muhim

muhim ahamiyatga ega. Pochta xizmatining o'z missiyasi bor, u quyidagilardan iborat:

- iste'molchilarni: O'zbekiston Respublikasi rezidentlari, davlat hokimiyati organlari, shuningdek, yuridik shaxslarni ilg'or pochta aloqasi va barqaror ishonchli infratuzilma bilan ta'minlash;
- pochta aloqasi korxonalarini xodimlarining o'z kasbiy faoliyatiga qiziqishlarini oshirish maqsadida ularning malakasini oshirish;

- yangi maqsadli sharoit va vazifalarga moslashish istiqbollari bilan o'zining noyob infratuzilmasini saqlash va rivojlantirish.

Pochta aloqasi sohasida ko'rsatilayotgan xizmatlar bozorini ko'rib chiqsak, shuni ta'kidlash kerakki, u uchta asosiy segmentga asoslanadi, jumladan, tovar joylanmalari bo'lgan pochta jo'natmalari, yozma xat-xabarlar jo'natmalari va pochta pul o'tkazmalari. Shuning uchun pochta xizmatlarining ta'rifi pochta jo'natmalari va pul o'tkazmalarini qabul qilish, qayta ishlash, yetkazib berish va tashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish sifatida belgilanishi kerak.

Pochta aloqasining alohida maqomi bilan quyidagi pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha huquqiy tartibga solishning asosiy manbalariga to'xtalib o'tish zarur. Pochta aloqasi sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy qonunlar qatoriga 1992-yil 13-yanvardagi 512-sonli "Aloqa to'g'risida"gi qonun, unga ko'ra: "Aloqa sohasidagi munosabatlarning obyektlari pochta jo'natmalarini qabul qilib olish, tashish va ko'rsatilgan joyga yetkazib berish vositalarining yig'indisi bo'lgan pochta aloqasi tarmoqlaridan hamda bir yoki bir nechta uzatish turlarini: telefon, telegraf, faksimil uzatishlarni, hujjatli xabarlarining boshqa turlari ma'lumotlarini uzatishni, televideniye va radioeshittirish dasturlarini translyatsiya qilishni ta'minlovchi telekommunikatsiyalar vositalari yig'indisi bo'lgan telekommunikatsiyalar tarmoqlaridan iborat».

Pochta aloqasining asosiy me'yoriy-huquqiy hujjati "Pochta aloqasi to'g'risida"gi 2022-yil 10-iyundagi 777-sonli qonun (o'zgartirishlar kiritilgan tahriri) hisoblanadi.

Mazkur qonun quyidagi masalalarni qamrab oladi davlat va boshqa ishtirokchilarning pochta aloqasi faoliyatining huquq va

majburiyatlarini;

- pochta aloqasi operatorlari va pochta xizmatlari iste'molchilari o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni;
- O'zbekiston Respublikasi pochta aloqasi sohasidagi faoliyatiga oid moliyaviy, tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy asoslarini.

Mazkur qonun "Pochta aloqasi" atamasi va uning turlariga qo'shimcha ravishda, 3-moddada ushbu aloqa sohasida qo'llaniladigan asosiy tushunchalarni ta'kidlaydi.

Masalan, "pochta xizmatlaridan foydalanuvchilar" – bular "pochta aloqasi xizmatlarining iste'molchisi bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs"dir. Mazkur qonunda "pochta aloqasi xizmati" deganda "pochta aloqasi operatori yoki provayderining pochta va kuryerlik xizmatlari ko'rsatish bo'yicha faoliyati" nazarda tutiladi.

Ushbu qonunda "pochta aloqasi operatorlari" sifatida "mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida pochta aloqasi tarmog'iga egalik qiluvchi va faoliyatning asosiy turi sifatida pochta aloqasi xizmatlari ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxs"lar keltirilgan va "pochta aloqasi obyektlari"- "pochta aloqasi operatorlarining alohida bo'linmalari (pochtamtlar, pochta aloqasi bog'lamalari, bo'limlari, punktlari, shuningdek boshqa bo'linmalar)" keltirilgan.

Shuningdek, pochta aloqasini huquqiy tartibga solish 2016-yil 20-yanvardagi O'RBQ-400-son bojxona kodeksi bilan ham amalga oshirilayotganligini ko'rsatish zarur.

Eslatib o'tamiz, mazkur qonun hujjatlari bojxona chegarasi orqali pochta jo'natmalarini olib kirish va olib chiqish bilan bog'liq masalalarni, shu jumladan xalqaro pochta jo'natmalarida tovarlarni jo'natishning o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, bojxona organlari bilan o'zaro hamkorlikning boshqa masalalarini qamrab oladi.

Bundan tashqari, mazkur "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga qo'shimcha ravishda "Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalarini" (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2011-yil 18-aprelda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 2219) kabi normativ-huquqiy hujjatlar iste'molchilarning huquqlariga bevosita daxldordir.

Ko'rib chiqilgan hujjatlar hamda Raqamli texnologiyalar vazirligining mahalliy farmoyishlari bilan shaharlar va qishloq joylarda pochta aloqasi bo'limlari va filiallari tarmog'ini rivojlantirish va joylashtirish standartlari, ishlab chiqarish pochta aloqasi obyektlari xodimlari soni me'yorlari, shuningdek qisman ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun turli ko'rsatmalar sifatida tasdiqlanadi.

Shuningdek, "Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalarini" pochta aloqasi operatorlari va xizmatlar iste'molchilari o'rtasidagi pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnoma munosabatlarni amalga oshirish va tuzishdagi munosabatlar sohasidagi masalalarni; iste'molchilar va xizmat ko'rsatuvchi pochta aloqasi operatorining vakillik qilayotgan hududdagi majburiyatlari va huquqlarini; pochta jo'natmalarini yetkazib berish va qabul qilishning o'ziga xos xususiyatlarini; pochta o'tkazmalari va pochta jo'natmalarini qabul qilish talablarini; pochta o'tkazmalari va pochta jo'natmalarini yetkazib berish uchun qo'llaniladigan talablarni tartibga soladi.

Shuningdek, pochta xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi manbalarda bevosita O'zbekiston Respublikasi bilan tuzilgan xalqaro shartnomalar ham birdek muhim o'rin tutadi.

Agar pochta aloqasi sohasidagi mavjud xizmatlar turlarini ko'rib chiqsak, "Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalarini" pochta aloqasi xizmatlarini asosiy va qo'shimchalarga ajratadi. Asosiy pochta xizmatlariga "Pochta jo'natmalarini qabul qilish, jo'natish va yetkazib berish", qo'shimcha xizmatlar vakolatiga esa "Pochta jo'natmalarini qadoqlash; posilkalar, pul o'tkazmalari, jo'natuvchi manzillar blankalarini to'ldirish; manzillar va yozma xabarlarini yozish; banderallar va posilkalarni saqlash; pochta jo'natmalarini yetkazib berish va boshqa xizmatlar. Shartnoma asosida kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni qabul qilishlari, shuningdek, alohida qoidalar va ko'rsatmalar bilan belgilanadigan boshqa turli xizmatlarni ko'rsatishlari mumkin.

Umuman olganda, taqdim etilgan hujjatlarni batafsil ko'rib chiqib, shuni ta'kidlaymizki, pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatishda yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga

soluvchi qonunchilik bazasi turli xil hujjatlar to'plamini (majmuini) nazarda tutadi, shu jumladan normativ hujjatlar: idoraviy hujjatlar, qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari asosida faolyat yuritadi.

Pochta jo'natmalari va pochta o'tkazmalari ichki (O'zbekiston Respublikasi hududida jo'natish uchun qabul qilingan) va xalqaro (O'zbekiston Respublikasidan tashqariga jo'natish uchun qabul qilingan, uning hududiga boshqa davlatlardan kelgan yoki O'zbekiston Respublikasi hududidan tranzit o'tuvchi) turlarga bo'linadi.

Qayta ishlash usuliga ko'ra pochta jo'natmalari quyidagi toifalarga bo'linadi:

- Oddiy - jo'natuvchidan tilxat bermasdan qabul qilinadi va qabul qiluvchiga (uning qonuniy vakiliga) uning tilxatisiz topshiriladi;

- Ro'yxatga olinadigan (bojxona, qiymati e'lon qilingan, oddiy) - jo'natuvchidan unga tilxat berilgan holda qabul qilinadi va qabul qiluvchiga (uning qonuniy vakiliga) tilxat bilan topshiriladi.

Pochta o'tkazmalari ro'yxatga olingan pochta jo'natmalarini qabul qilish va berish uchun belgilangan tartibda qabul qilinadi va to'lanadi.

Ichki pochta jo'natmalariga quyidagi turdagi pochta jo'natmalari va toifalari kiradi:

a) xatlar (oddiy, ro'yxatga olinadigan, qiymati e'lon qilingan);

b) pochta varaqchalari (oddiy, ro'yxatga olinadigan);

d) banderollar (oddiy, ro'yxatga olinadigan, qiymati e'lon qilingan);

e) ko'zi ojizlar uchun jo'natmalar (oddiy ro'yxatga olinadigan, );

f) posilkalar (odatdagi, qiymati e'lon qilingan);

g) mayda paketlar (oddiy, ro'yxatga olinadigan);

Pochta aloqasining universal xizmatlarini ko'rsatishda yuboriladigan yozma xat-xabarlar uning maksimal og'irligi, ruxsat etilgan joylanmasi va hajmi chegaralari bo'yicha qo'yilgan talablarga javob berishi kerak.

Pochta aloqasining universal xizmatlarini ko'rsatuvchi pochta

aloqasi operatori pochta aloqasi xizmatlaridan foydalanuvchining ichki yozma xat-xabarlarini, agar u ushbu bandda belgilangan talablarga javob bersa, qabul qilishni rad etishga haqli emas.

"O'zbekiston pochta" AJ O'zbekiston Respublikasining milliy pochta operatori bo'lib, butun mamlakat bo'ylab 2 mingga yaqin bo'linmalarni o'z ichiga oladi.

"O'zbekiston pochta" AJning rivojlanish strategiyasi milliy pochta operatorini raqamli yechimlardan foydalangan holda real dunyoda tovarlar harakatini ta'minlaydigan zamonaviy raqamli kompaniyaga kompleks aylantirishga qaratilgan. Natijada "O'zbekiston pochta" AJ elektron tijorat bo'yicha transport va logistika xizmatlari segmentida yetakchiga aylanadi, eksport uchun tovarlarni sotadigan sotuvchilar uchun yagona texnologik yechimni shakllantiradi, yozma xat-xabarlarini raqamlashtirish va yetkazib berish bo'yicha, bosma ommaviy axborot vositalari, tarmoqni samarali boshqarish, zamonaviy moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va tijorat tovarlarini tashishda vakolatlarini oshiradi.

Pochta korxonalarining raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi barcha ichki muhit omillari orasida eng muhimlari quyidagilardir:

- ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va mahsulot (xizmatlar) narxi;

- iste'molchilarga munosabat;

- yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va qo'llash;

- tashkilot xodimlarining malakasi;

- ishlab chiqarish infratuzilmasining mavjudligi;

- marketingning rivojlanish darajasi va korxonalar samaradorligi, uning moliyaviy barqarorligi;

- tashkilotning imiji, shuningdek, uning brendining mashhurligi, strategik boshqaruv.

Aynan shu tartibda, omil ta'siriga qarab, pochta aloqasi korxonalari raqobatbardoshligining asosiy omillari - bu shaxsga, iste'molchiga yoki shaxsga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga qaratilgan faoliyatining sifati ekanligi ayon bo'ladi.

Ichki muhit omillari korxonaning raqobatbardoshlik potensialini belgilaydi, bu korxonaning raqobatbardoshlik maqsadlariga erishishda o'z siyosati va strategiyalarini amalga

o'shish qobiliyatini aks ettiradi.

Har bir komponentning darajasi pirovardida raqobatbardoshlikni belgilaydi. Shunday qilib, noto'g'ri strategiya va sust jarayon samaradorligi raqobatbardoshlik va boshqa shunga o'xshash holatga sabab bo'ladi.

### 1.3. Pochta aloqasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'ri

Davlat tashkilotlari uchun internetga kirish: davlat xizmatlari tobora raqamli bo'lib bormoqda va infokommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanadigan davlat xodimlarining ulushi xususiy sektorga nisbatan ancha katta. Raqamli xizmatlarni taklif qilish, pochta xizmatlari aholi, tijorat kompaniyalari va davlat idoralari uchun Internetga kirishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, pochta xizmatlari har bir kishi uchun huquqiy identifikatsiya qilishni ta'minlaydigan barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida maqsadli vazifani amalga oshirishda muhim hissa qo'shmoqda.

Bu borada ushbu sikl doirasida raqamli pochta xizmatlarini 2017-2020-yillarda Umumjahon pochta ittifoqi raqamli texnologiyalar sohasida foydalanish imkoniyatini ta'minlashda pochta xizmatlarining hissasini kengaytirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishni rejalashtirilgan edi.

#### Raqamli pochta tarmoqlari:

- pochta xizmatlarini o'z ichiga oladigan Internetni rivojlantirishning samarali milliy strategiyasini belgilashda umumjahon pochta ittifoqiga a'zo mamlakatlarga yordam berish;
- pochta xizmatidan foydalanadigan mamlakatlar sonining ko'payishi.
- xususiy mijozlar va tijorat kompaniyalariga ko'rsatiladigan pochta xizmatlari uchun raqamli ekotizimni ishlab chiqish.

#### Elektron tijorat platformalari:

- pochta xizmatlari salohiyatidan to'liq foydalanadigan elektron tijoratni rivojlantirishning samarali milliy strategiyasini aniqlash;
- bunday texnologiyalar mavjud bo'lmagan mamlakatlarda

elektron tijorat platformalarini yaratish.

#### Elektron hukumat xizmatlari:

- Pochta xizmatlari salohiyatidan to'liq foydalanadigan samarali milliy elektron hukumat strategiyasini aniqlash;
- raqamli texnologiyalar sohasida transformatsiya sohasida samarali strategiyalarni aniqlash; zamonaviy texnologik vositalarni joriy etish.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari jamiyatning barcha sohalarida raqamli iqtisodiyot segmentining jadal o'sishi va qamrovini namoyish etmoqda. Mutaxassislar bashorat qilganidek, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishida kech boshlagan mamlakatlar umidsiz ravishda ortda qolishi ehtimoli bor.

Shu bois, hozirgi tendensiyalarni hisobga olgan holda, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun, jumladan, pochta aloqasi sohasida tezkor chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston pochta xizmati faoliyati jamiyatning barcha ijtimoiy qatlamlarida pochta xizmatlarining keng tarqalishi va qamrovi hamda taklif etilayotgan to'lov tariflariga muvofiq maksimal foydalanish imkoniyati tufayli jamiyat uchun katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Har qanday mamlakatda bo'lgani kabi, respublika pochta xizmati ham mamlakatning barcha xududlarida pochta va tegishli xizmatlarni ko'rsatadigan keng pochta aloqasi tarmog'i kabi muhim afzalliklarga ega.

Tarixiy jihatdan, turli davlatlarning rivojlanishining barcha davrlarida pochta xizmati odamlar hayotida alohida rol o'ynagan.

Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda, ba'zilar fikriga ko'ra, uning mavqeyi va ahamiyati pasayganga o'xshaydi, ammo jahon amaliyoti buning aksini ko'rsatmoqda, ya'ni raqamli texnologiyalarga asoslangan raqamli iqtisodiyot sharoitida u modernizatsiya qilinmoqda, yangi xizmatlar, axborot texnologiyalari bilan boyitilmoqda va bu uni rivojlantirmoqda va pochta sektorining hozirgi roli ortib bormoqda. O'zbekiston pochta xizmati faoliyati, har qanday davlatda bo'lgani kabi, pochta xizmatlarining respublika bo'ylab aholining barcha ijtimoiy qatlamlari uchun keng tarqalishi va mamlakatning barcha aholisi



uchun ushbu xizmatlarning mavjudligi tufayli katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Har qanday mamlakatda bo'lgani kabi, O'zbekiston Respublikasi pochta xizmati ham mamlakatning barcha burchaklarida pochta xizmatlarini ko'rsatadigan yaxshi tashkil etilgan pochta tarmog'ining afzalliklariga ega. O'zbekiston milliy pochta operatorini rivojlantirishning strategik maqsadi korxonani jahon sifat standartlarini amalga oshiruvchi yuqori samarali va raqobatbardosh kompaniyaga aylantirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish ko'p jihatdan yangi, zamonaviy usullardan foydalanish, taqdim etilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirish va raqamlashtirishni faollashtirishga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2020-yil 14-dekabrda PQ-4921-sonli "Pochta aloqasi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori pochta aloqasi tizimini tubdan takomillashtirishda muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Ushbu hujjatda pochta sohasini yanada rivojlantirish yo'nalishlari bo'ldi, ya'ni pochta aloqasi tizimini tubdan takomillashtirish, pochta aloqasi sohasiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, pochta xizmatlarini ko'rsatishni to'liq avtomatlashtirish, global pochta rivojlanish indeksleri reytingida eng yaxshi 50 mamlakat qatoriga kirish va pochta aloqasi tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash belgilab berilganligi muhim ahamiyatga ega.

Ushbu hujjatda pochta aloqasi tizimini takomillashtirishning bir qator asosiy yo'nalishlari qayd etilgan:

birinchidan:

• yozishmalarni tashish va kuryerlik xizmatlarini rivojlantirish;

• elektron tijorat bozorida faoliyatni rivojlantirish;

• xizmatlar bozorida pochta aloqasi faoliyatini rivojlantirish;

ikkinchidan, 2021-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida pochta sohasini rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" va 2021-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida pochta sohasini rivojlantirish maqsadlari tasdiqlandi;

uchinchidan, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining 2021-

yilda 42 ta namunaviy tumanlarda pochta aloqasi korxonalarini o'zgartirish loyihalarini nazarda tutuvchi "Yo'l xaritalari"ni amalga oshirish bo'yicha takliflari tasdiqlandi;

Qarorga muvofiq O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va Milliy operatorga bir qator vazifalar yuklatildi:

• onlayn savdo maydonchasini ishga tushirish va respublikada, ayniqsa, uzoq va borish qiyin bo'lgan hududlarda mahsulotlarni kimoshdi savdosiga qo'yish tizimini joriy etish hamda sotilgan mahsulotlarni tarmoqdan foydalangan holda manzillarga yetkazib berish;

• an'anaviy va yangi joriy etilgan pochta xizmatlariga malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda o'quv markazini yaratish, shuningdek 2000 nafar xodimga 2021-yil oxiriga qadar malaka oshirish, 2022-yilda qolganlari;

• Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar markazlarining bitta pochta obyektida mijozlar nomiga kelib tushgan pochta jo'natmalarini qabul qilishga mo'ljallangan avtomatlashtirilgan o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish majmualarini (pochta bo'limlarini) joriy etish 2021-yil oxiriga kelib, ushbu xizmatni yana 150 ta obyektida joriy etish;

- pochtni qabul qilish, saralash va onlayn kuzatish imkoniyatini beruvchi avtomatlashtirilgan tizimni ishga tushirish;

- tijorat banklari bilan birgalikda pochta bo'limlarida bank plastik kartochkalariga to'liq xizmat ko'rsatish tizimini joriy etish (kartochkalarni naqd pul bilan to'ldirish, naqd pul olish, jismoniy shaxslarni aniqlash);

- autsorsing asosida tijorat banklari nomidan jismoniy shaxslarga kredit olish uchun arizalarni qabul qilish, kreditlarni qaytarish uchun to'lovlarni qabul qilish, yuridik shaxslarning kunlik savdo daromadlarini qabul qilish kabi pochta tugunlarida bank xizmatlarini joriy etish;

- logistika markazlarini yaratish, shu jumladan onlayn do'konlar uchun tovarlarni saqlash va yetkazib berish bo'yicha xizmatlar;

- olis va borish qiyin bo'lgan hududlarda joylashgan pochta obyektlarida autsorsing asosida kamida 13 turdagi davlat

xizmatlarini joriy etish;

Bundan tashqari, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Moliya vazirligi va tijorat banklarining "O'zbekiston pochta" aksiyadorlik jamiyatining 100 mlrd so'm miqdoridagi oddiy aksiyalarini qo'shimcha chiqarish to'g'risidagi taklifi hamda ushbu aksiyalarni korxonalar va tashkilotlar o'rtasida joylashtirish, 2020-yil oxirigacha hisoblangan dividendlarni milliy Operator ixtiyorida qoldirish, 2024-yil davlatning ustav kapitalidagi ulushi bo'yicha, tarmoqni rivojlantirish, axborot tizimlarini joriy etish va ustav kapitalini oshirish (kapitallashtirish) sharti bilan taqdim etiladigan pochta xizmatlarini kengaytirish. Ushbu qaror, albatta, Milliy operatorning moliyaviy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qarorning yana bir muhim tarkibiy qismi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va Milliy operatorga Adliya vazirligi bilan birgalikda uzoq va borish qiyin bo'lgan joylarda joylashgan pochta obyektlarida outsorsing asosida kamida 13 turdagi davlat xizmatlarini joriy etishni ta'minlashdan iborat: INN identifikatsiya qilish; yuridik, jismoniy va yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzlari yo'qligi to'g'risidagi guvohnoma; nikohni qayd etish, ajralish to'g'risidagi guvohnomani olish; fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ro'yxatdan o'tkazish; manzil ma'lumotlarini taqdim etish; jinoiy yozuv (yoki jinoiy yozuv yo'qligi) haqida ma'lumot olish uchun ariza berish; fuqarolar nomiga xususiy uy-joy borligi yoki yo'qligi to'g'risida ma'lumotnoma olish; rejalashtirish va arxitektura vazifalarini ishlab chiqish; bolalarni davlat maktabgacha ta'lim muassasasiga qabul qilish; pochta aloqasi sohasidagi faoliyatni boshqarish va tartibga solish tartibini tasdiqlash; pochta aloqasi korxonalarining holati, shuningdek, ushbu tashkilotlar xodimlarining ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash.

Shunday qilib, 118-II-son qonunining 3-moddasida muvofiq, "Pochta aloqasi" tushunchasi shunday ta'riflangan: pochta, kuryerlik jo'natmalari va pul mablag'larining pochta o'tkazmalarini jo'natish ta'lim muassasasiga qabul qilish to'g'risida ariza berish; tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomani olish; vafot etganligi

to'g'risida guvohnoma olish; pensiyalar to'g'risida ma'lumot; giyohvandlik dispanserida ro'yxatdan o'tganligi to'g'risida guvohnoma olish; psixiatriya dispanserida ro'yxatdan o'tganligi to'g'risida ma'lumotnoma olish.

Bugungi kunda "O'zbekiston Pochta" AJda yangi va qulay xizmatlar qatorida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- "Tezkor pochta" – jo'natmalarni qisqa vaqt ichida va ustuvor tartibda jo'natish va yetkazib berish ishlari bajarilmoqda;
- pochta va kuryerlik buyumlari, davriy nashrlar va boshqa pochta jo'natmalarini viloyat va tuman markazlaridan pochta tashkilotlaridan elektr skuterlardan foydalangan holda "Pochta tuguni – mijoz" tamoyili bo'yicha maqsadli yetkazib berish tizimi joriy etildi;
- o'z elektron to'lov (billing) tizimini kengaytirish ishlari davom etmoqda. Bugungi kunda aholi tomonidan 60 dan ortiq to'lov turlari (telefon, mobil va kommunal xizmatlar, Internet xizmatlari, jarimalar va boshqalar) uchun to'lash imkoniyati mavjud;
- chekka hududlar uchun outsorsing asosida davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tashkiliy ishlar olib borilmoqda. Shu asosda pochta aloqasi obyektlarida turli xil davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimi tashkil etildi.
- Istiqbolli yo'nalishlardan biri bu elektron tijoratdir. Shuni inobatga olgan holda, joriy yilning fevral oyidan boshlab "O'zbekiston pochta" AJ da "Unisavdo.uz" milliy onlayn savdo maydonchasi sinov rejimida faoliyat ko'rsatmoqda.

Uning yordamida tadbirkorlar o'z mahsulotlarini respublika bo'ylab kimochdi savdosiga qo'yishlari mumkin bo'ladi.

O'z navbatida, "O'zbekiston pochta" AJ sotib olingan tovarlarni xaridor manziliga yetkazib beradi.

Shunday qilib, milliy pochta operatori sotuvchi va xaridor o'rtasida kafil sifatida javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Hozirgi vaqtda mutaxassislar yetkazib beriladigan mahsulotlarni saqlash va qadoqlash tizimini ishlab chiqmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 14-dekabrda qabul qilingan va imzolangan "Pochta aloqasi xizmatlari tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori PQ-4921 "O'zbekiston pochta" OAJ, ko'plab mahalliy pochta-

kuryerlik kompaniyalari, shuningdek, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xorijiy kompaniyalar uchun o'z vaqtida va uzoq kutilgan qarordir. Shuni ham ta'kidlash kerakki, belgilangan vazifalarni amalga oshirish barcha mutaxassislar, xodimlar, korxonalar va tashkilotlar mutasaddilari oldida turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biridir, chunki mamlakatimizda pochta xizmatidan foydalanish xalqimiz kundalik hayotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

#### **1. 4. O'zbekiston Respublikasi pochta aloqasi sohasining rivojlanishi**

Davlatga, tijorat va moliya tashkilotlariga, boshqaruv organlariga va aholiga kommunikatsion xizmat ko'rsatuvchi yirik masshtabdagi taqsimot tizimini mujassamlashtirgan pochta aloqasi korxonalari, hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynaydi.

Insoniyat o'z taraqqiyoti davomida doimo o'zaro muloqot qilish, fikr tajriba almashish, bir-birining holidan xabardor bo'lib turishga intilib kelgan. Uning ana shu ehtiyojini qondirishda pochta xizmati beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan. Ta'kidlash kerakki, bu xizmatning paydo bo'lishi va rivojlanishi har bir xalqning davlatchilik an'analari bilan uzviy bog'liq holda kechgan. Ushbu haqiqatni qariyb uch ming yillik davlatchilik tarixiga yega bo'lgan yurtimiz zaminida bu boradagi an'analar teran ildizlarga yega yekani ham tasdiqlaydi. Qadim-qadim zamonlardan boshlab jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lib kelgan ko'hna va go'zal diyorumizda ilm-fan, madaniyat va san'at, me'morlik va shaharsozlik kabi sohalar bilan bir qatorda, pochta xizmati ham bosqichma-bosqich shakllanib, taraqqiy etib kelgan.

"O'zbekiston pochta" aksiyadorlik jamiyati misolida sohaning rivojlanishi jarayonlari va uning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

Birinchi bosqich:

1991-yil sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi Aloqa vazirligi tomonidan O'zbekiston pochta markalarini nashr ettirish haqida qaror qabul qilindi.

1991-yil 1-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Aloqa vazirligi tomonidan pochta va elektr aloqasini alohida mustaqil xo'jalik tizimlariga bo'lish haqidagi qaror qabul qilindi.

1991-yil dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Aloqa vazirligi tomonidan pochta va elektr aloqasini xorijiy davlatlar misolida bo'lish tajribasini o'rganish uchun ishchi guruh tuzildi.

1991-yil dekabr oyidan 1992-yil fevral oyigacha bo'lgan muddatda ishchi guruh tomonidan pochta va elektr aloqasini xorijiy davlatlar misolida bo'lish amalga oshirildi.

1992-yil 1-martda O'zbekiston Respublikasining bo'lingan pochta aloqasi bazasida "O'zbekiston pochta" konserni tuzildi.

1992-yilda "O'zbekiston pochta" AJning nashriyot markazi tuzildi.

O'zbekistonning ilk markasi 1992-yil 1-martda muomalaga kiritildi. Bu markaga shoira "Nodirabegim" siymosi tushirilgan edi. O'tgan 30 yillik qisqa muddat ichida respublikamizda "O'zbekiston pochta" AJ tomonidan 700 ortiq turdagi pochta markasi muomalaga kiritildi.

Ikkinchi bosqich:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 23-iyuldagi PF-1823-farmoni va Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 31-iyuldagi 380-son qaroriga asosan "O'zbekiston pochta" konserni "O'zbekiston pochta" Davlat aksionerlik kompaniyasiga, "O'zbekiston pochta" konsernining davlat muassasalari esa, ochiq aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi. "O'zbekiston pochta" kompaniyasi aksiyalarining 10 foizi mehnat jamoasiga realizatsiya qilindi, 15 foizi ochiq savdoga chiqarildi, 75 foizi esa davlat hisobiga o'tkazildi.

2001-yil noyabr oyida "O'zbekiston pochta" DAK tarkibida davlat qarori bilan Pochta xavfsizligi xizmati tuzildi.

Uchinchi bosqich:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 19-iyuldagi 339-son farmoniga asosan "O'zbekiston pochta" DAK "O'zbekiston pochta" ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi va jamiyat O'zbekiston Respublikasi milliy operatori sifatida qayd etildi. "O'zbekiston pochta" ochiq aksionerlik jamiyati Nizom fondining 51 foizi davlat ulushi deb belgilandi.

To'rtinchi bosqich:  
2007-yilda "O'zbekiston pochta" ochiq aksionerlik jamiyatining 25, 4 % aksiyalarini sotish bo'yicha xalqaro tender e'lon qilindi. "Finax Ltd" Xitoy kommunikatsiya kompaniyasi xalqaro tender g'olibi bo'ldi va jamiyatning 25, 4 % aksiyalari kompaniyaga tegishli hisoblanadi. Davlat ulushi - 51 %, mehnat jamoasi ulushi - 1, 4 %, erkin savdoda - 22, 2 % aksiyalar mavjud. Tender natijalaridan kelib chiqqan holda, jamiyatning Kuzatuv kengashiga "Finax Ltd." Xitoy kommunikatsiya kompaniyasining ikki nafar vakili kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasining 2014-yil 19-noyabrdagi 76-sonli farmoyishiga binoan "O'zbekiston pochta" OAJ "O'ZBEKISTON POCHTASI" Ajga o'zgartirildi. Aksiyadorlik jamiyatining davlat ulushi - 76, 4 %, boshqa aksiyadorlarning ulushi esa - 23, 6 % etib belgilandi. O'zbekiston Respublikasi 1994-yildan buyon Umumjahon pochta ittifoqi (UPI)ning to'la huquqli a'zosi hisoblanadi. O'tgan davr mobaynida xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda faoliyat yuritish hamda xalqaro pochta almashinuvini kengaytirish maqsadida amaliy ishlar olib borilmoqda. Agar 1998-yilda xorijiy 84 ta hamkorlar bilan ishlar amalga oshirilgan bo'lsa, 2016-yilga kelib UPIga a'zo bo'lgan 98 ta davlat bilan xalqaro pochta almashinuvi amalga oshirilmoqda.

Eng ko'p hajmdagi pochta almashinuvi Rossiya, Ukraina, AQSh, Germaniya, Turkiya va Birlashgan Arab Amirliklari davlatlari bilan amalga oshirilgan. Bugungi kunda UPI Xalqaro elektron pul o'tkazmalari xizmati - IFIS (moliyaviy tizimi) orqali Ukraina, Rossiya, Qozog'iston, Belorussiya, Moldova, Ozarbayjon, Armaniston, Qirg'iziston davlatlari bilan elektron pul o'tkazmalari xizmatini ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. 2010-yildan boshlab pochta aloqasi xizmatlari sifatini oshirish, xalqaro posilka jo'natmalarini tez va samarali yetkazib berish va monitoring qilish maqsadida UPIning «IBIS» xalqaro axborot tizimi orqali elektron ma'lumot almashinuvi yo'lga qo'yilgan.

Rivojlangan mamlakatlarda pochta aloqasi sohasini modernizatsiyalash, birinchi navbatda pochta aloqasi xizmatlarini

ko'rsatishning ishlab chiqarish jarayonlariga axborot texnologik innovatsiyalarni kiritishga, shuningdek axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llab, innovatsion loyihalar asosida xizmatlarning yangi turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Pochta aloqasini rivojlantirish asosida pochta shaxobchalarini modernizatsiyalash axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida innovatsion xizmat turlarini joriy etish zaruriyati kelib chiqqanligi bir tomondan davr talabi ekanligi, ikkinchi tomondan bir qator quyidagi muammolar mavjud bo'lganligi orqali izohlash o'rindir:

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yetarli joriy yetilmaganligi sababli pochta aloqasi korxonalarini tomonidan xizmatlarning yangi turlari ko'rsatilmayotgan edi;

pochta jo'natmalarini ishlov berish va yetkazib berishni avtomatlashtirish darajasi pastligicha qolayotgan edi.

O'zbekiston Respublikasi pochta aloqasini rivojlantirish va unga yangi xizmat turlarini kiritish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2013-yilning 27-iyunida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 2013-2020-yillarda "O'zbekiston Respublikasida telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmasini rivojlantirish" dasturi, shuningdek 2012-yil 21-martdagi "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 14-dekabrdagi PQ-4921-son qarori asosida amalga oshirilmoqda va pochta aloqasi sohasini zamonaviylashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida xizmatlarning yangi turlarini joriy etish va rivojlantirish ishlari olib borilmoqda.

## 1. 5. Pochta aloqasi infratuzulmasi

Pochta aloqasi xizmatlari butun dunyo bo'ylab ijtimoiy yo'naltirilgan xizmatlar hisoblanadi va belgilangan sifat hamda

narxlarda aholiga pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish davlat tomonidan kafolatlangan.

Pochta aloqasi sohasi O'zbekiston Respublikasida ham xo'jalik va ijtimoiy infratuzulmaning tarkibiy qismi bo'lib, aholi va iqtisodiyot tarmoqlariga pochta va kuryerlik xizmatlarini ko'rsatmoqda.

2016-yilgacha "O'zbekiston pochta" AJ O'zbekiston Respublikasi "Pochta aloqasi to'g'risida"gi Qonunining 23 - moddasiga asosan to'liq davlat pensiyalari va nafaqalarini yetkazib berish faoliyatini olib borgan hamda ushbu faoliyatdan olinadigan daromadlar ulushi jamiyat daromadlarining 50 foizidan ortig'ini tashkil etgan. 2017-yil 1-iyuldan ushbu faoliyat Xalq bankiga o'tkazilgach, jamiyat daromatlari keskin tushib ketgan. Jamiyatning moliyaviy barqarorligini saqlab qolish maqsadida 94 ta aloqa bog'lamasi va 1241 ta aloqa bo'limi faoliyati to'xtatilgan. Jamiyat xodimlarining umumiy soni 15000 dan 6900 tagacha qisqartirilgan.

Shunga qaramay, to'planib qolgan, hal qilinishi lozim bo'lgan quyidagi muammolar mavjud. Bular:

Pochta aloqasi infratuzulmasining eskiligi. Bugungi kunda pochta aloqasi tarmog'i 14 ta viloyat filiali, 4 ta ixtisoslashgan filial, 152 ta tuman bog'lamasi va 1786 ta aloqa bo'limidan iborat bo'lib, binolarning eskirganlik darajasi 80 foizni tashkil etadi. Jamiyat balansida mavjud 342 ta avtotransportning eskirganlik darajasi 60 foiz;

Aylanma mablag'larning tanqisligi.

Axborot texnologiyalarini joriy etilganlik ko'rsatgichi pastligi. Kompyuterlashtirilgan aloqa bo'limlari soni 1732 tani tashkil etadi. Tarmoqqa ulanish darajasi 42 foiz. AKT asnosida zamonaviy xizmatlarni ko'rsatish imkoniyati cheklangan;

Pochta xodimlari oylik maoshi darajasining pastligi. Bugungi kunda "O'zbekiston pochta" AJ o'rtacha oylik maosh 1 046, 0 ming so'mni tashkil etadi. Ayni damda mamlakat bo'yicha o'rtacha oylik maosh 2 300, 0 ming so'mni, aloqa va axborotlashtirish sohasidagi o'rtacha oylik maosh 2 850, 0 ming so'mni tashkil etadi. Buning natijasida pochta aloqasi sohasida ishlash, yoshlar uchun manfaatli emas va bu esa ilg'or kadrlarni ishga jalb etishga to'sqinlik

qiladigan omil. Yuqorida keltirilganlarni inobatga olgan holda O'zbekiston pochta aloqasi infratuzulmasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dolzarbligini belgilaydi.

### "O'zbekiston pochta" AJda axborot texnologiyalariga asoslangan yangi xizmat turlarini joriy etish.

Jamiyatni raqamlashtirish va elektron hukumat tizimini joriy etish sharoitida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan pochta aloqasi xizmatlariga bo'lgan talab pasayib bormoqda. Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy yetish, pochta aloqasi xizmatlarini taqdim yetish faoliyatini to'liq avtomatlashtirish orqali Pochta rivojlanishi indeksi global reytingida mamlakatimizni birinchi 50 talikka kiritilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 14-dekabrda "Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4921-son qarori qabul qilish.

Qarorda quyidagilar pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilansin: Xat-xabar tashish va kuryerlik xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha:

pochta va kuryerlik xizmatlarini taqdim etish faoliyati bilan shug'ullanib kelayotgan mahalliy va xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda "Yakuniy manzil" xizmatini joriy etish;

pochta aloqasining an'anaviy xizmatlarini takomillashtirish, ularni raqamlashtirish, jo'natmalarni qabul qilish, kuzatib borish va yetkazish jarayonlariga axborot texnologiyalari hamda tizimlarini joriy etish orqali aholi, biznes va davlat idoralariga zamonaviy xizmatlarni taqdim etish;

"Gibrid pochta" jo'natmalarini qabul qilish va yetkazib berish xizmatlari sonini 2 barobarga oshirish;

Elektron tijorat bozoridagi faoliyatni rivojlantirish bo'yicha: mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini onlayn sotish va mijozlarga yetkazib berish imkoniyatini beruvchi elektron savdo maydonchasi axborot tizimini yaratish;

logistika markazlarini tashkil etish, tovarlarni saqlash va yetkazib berishni o'z ichiga olgan xizmatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish.

Jumladan, Jamiyat tomonidan 2021-yilda 42 ta namunaviy tumanlarda (shaharlarda) pochta aloqasi korxonalarini transformatsiya qilish loyihalarini ko'zda tutuvchi "Yo'l xarita"si ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu yo'l xaritasiga binoan axborot texnologiyalari yo'nalishida quyidagi ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan:

326 ta pochta aloqasi bo'limigacha 754 km optik tolali aloqa liniyalarini tortish;

250 ta pochta aloqasi bo'limini zamonaviy kompyuter texnikasi va mobil qurilmalar bilan ta'minlash;

42 ta tuman pochta aloqasi bog'lamasida «Gibrid pochta» jo'natmalarini chop etish va unga ishlov bergan holda oluvchilarga yetkazib berishni yo'lga qo'yish;

AT «Aloqabank» bilan birgalikda 2021-yil 1-martga qadar pochta aloqasining an'anaviy va joriy etilayotgan yangi xizmatlari bo'yicha malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda, o'quv markazini tashkil qilsin, hamda 2021-yil yakuniga qadar 2 000 ta, 2022-yilda barcha xodimlarning malakasi oshirilishini ta'minlash;

2021-yil 1-aprelga qadar Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar markazlarida bittadan pochta aloqasi obyektida mijozlar nomiga kelgan pochta jo'natmalarini olish uchun mo'ljallangan o'z-o'ziga xizmat ko'rsatuvchi avtomatlashtirilgan komplekslarni (pochtamat) joriy etish bo'yicha sinov-namunaviy loyihalarni amalga oshirish va 2021-yil yakuniga qadar yana 150 ta obyektida ushbu xizmatni joriy etish choralari ko'rish;

2021-yil yakuniga qadar internet-do'konlari tovarlarini saqlash va yetkazib berish xizmatlarini o'z ichiga olgan 4 ta logistika markazini tashkil etish.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Milliy operator, Adliya vazirligi bilan birgalikda 2021-yil 1-apreldan boshlab olis va chekka hududlarda joylashgan pochta aloqasi obyektlarida kamida 13 ta turdagi davlat xizmati outsorsing asosida tashkil etilishini ta'minlaydi.

"O'zbekiston pochta" Ajning faoliyatini tubdan rivojlantirishda axborot texnologiyalari bo'yicha asosiy loyihalar quyidagilardan iborat:

### 1. "Avtomat konvertlash uskunasi xarid qilish" loyihasi

Bugungi kunda, "Gibrid pochta" xizmatiga talab ortib bormoqda. Shuningdek, 2020-yil 1-avgustdan "Gibrid pochta" tizimi negizida xat-xabarlar, xabarnomalar, chaqiruv qog'ozlari va boshqa yuridik hujjatlarni jismoniy hamda yuridik shaxslarga yetkazib berish va yetkazilganligini tasdiqlash, ma'lumotlarni saqlash, hisobga olishning yagona milliy tizimi joriy etildi.

Mazkur Yagona milliy tizimda, korxonalar va tashkilotlar tomonidan elektron ko'rinishda yuborilgan pochta jo'natmalari Yagona milliy tizimga elektron tarzda kelib tushadi. Elektron ko'rinishda kelib tushgan pochta jo'natmalar pochta aloqasi obyektlarida qog'oz ko'rinishida chop etilib, maxsus pochta konvertiga joylashtirilgan holda qabul qilib oluvchilarga yetkazib beriladi.

Kelgusida "Gibrid pochta" (yagona milliy tizim) tizimiga elektron shaklda kelib tushadigan pochta jo'natmalarining miqdori ortishi kutilmoqda, buning natijasida pochta aloqasi obyektlarida qog'oz ko'rinishda chop etilgan jo'natmalarni maxsus konvertga joylashtirish uchun 1-2 kun kerak bo'ladi.

"Gibrid pochta" xizmatini rivojlantirish va ish unumdorligini oshirish maqsadida 14 avtomat konvertlash uskunasi (300, 0 mln so'mdan) xarid qilish va har bir viloyat markaziga o'rnatish ko'zda tutilgan. Buning natijasida, foydalanuvchilardan tezkor va qulay ravishda xat-xabarlarni, xabarnomalarni, chaqiruv qog'ozlarni va boshqa jo'natmalarni qabul qilish, ularga tezkorlik bilan ishlov berish va tayyor konvert holida chiqarib, qo'l mehnati qisqartiriladi va mehnat unumdorligini oshirishga zamin yaratiladi.

### 2. "Milliy onlayn savdo maydonchasini yaratish" loyihasi

Elektron tijoratni yanada rivojlantirish va ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarni ishlab chiqarish faoliyatini qo'llab-quvvatlash, eksport hajmini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida elektron savdo hajmini yanada oshirish, ishlab chiqaruvchilar va xaridorlarga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida "Milliy onlayn savdo

maydonchasi"ni yaratish rejalashtirilgan.

Ushbu Milliy onlayn savdo maydonchasi orqali yurtimizdagi ishlab chiqaruvchilarning (jumladan chekka hududlardagi) mahsulotlarini ichki bozorda sotilishiga va keyinchalik xorijiy internet do'konlari bilan integratsiyasini amalga oshirish orqali tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlarni chet elga eksport qilish imkoniyati yaratiladi. Umuman, Respublikamizda elektron tijoratni yanada rivojlantirishga ko'mak beradi. Mazkur loyiha qiymati 0,7 mlrd so'mni tashkil etadi.

Loyiha doirasida "Milliy onlayn savdo maydonchasi" platformasini ishlab chiqish va joriy etish rejalashtirilgan.

### **3. "Fulfilment" markazini tashkil yetish" loyihasi**

Jamiyat tomonidan elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha avtomatlashtirilgan "Fulfilment" markazlarini viloyat markazlarida tashkil etish rejalashtirilgan. Bunda elektron tijorat bozorida o'z ulushiga ega bo'lishini ta'minlash imkonini beradi.

"Fulfilment" markazi internet-savdo maydonchalari egalariga o'z mahsulotlarini saqlash, ya'ni omborxonada muammosini hal etadi hamda internet-savdo maydoncha orqali xarid qilingan mahsulotlarni shu yerning o'zida tez fursatlarda qadoqlanib mijozlarga yetkazib berish imkoniyati yaratiladi.

Bunda axborot texnologiyalarini qo'llagan holda "Fulfilment" omborlarini, transport logistikasini va mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish imkoniyatlarini amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Birinchi bo'lib, "Fulfilment" markazini Toshkent shahrida ishga tushirish, bosqichma-bosqich Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda tashkil etish rejalashtirilgan.

Internet-savdo maydonchalari egalariga o'z mahsulotlarini saqlash va internet-savdo maydoncha orqali xarid qilingan mahsulotlarni shu yerning o'zida tez fursatlarda qadoqlanib mijozlarga yetkazib berish uchun 9 ta viloyat markazlarida va "Xalqaro pochta" filialida "Fulfilment" markazlarini tashkil etish rejalashtirilgan.

### **4. "Pochta xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish tizimini joriy etish" loyihasi**

Bugungi kunda, pochta jo'natmalarini qabul qilish va qabul

qilib oluvchilarga yetkazib berish jarayonlari to'liq avtomatlashtirilmagan. Buning natijasida, pochta jo'natmalarini qabul qilishda hujjatlarni rasmiylashtirishga, ularga ishlov berib, tegishli manzilga yuborishga ko'p vaqt talab etiladi, shuningdek, qabul qilib oluvchilarga topshirishda ham bir qancha hujjatlar to'ldirishga to'g'ri kelmoqda.

Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish natijasida, pochta jo'natmalarini qabul qilishda tezkorlik bilan rasmiylashtirishga erishiladi. Pochta jo'natmalariga ishlov berish va tegishli manzillarga yuborishda hamda qabul qilib oluvchilarga yetkazib berishda ortiqcha hujjatlarni rasmiylashtirishga barham beriladi. Avtomatlashtirilgan tizim orqali pochta jo'natmalarini onlayn kuzatib borish imkoniyati yaratiladi va nazorat kuchaytiriladi. Mijozlarga ko'rsatiladigan pochta aloqasi xizmatlarining sifati yaxshilanadi.

Shuningdek, tizimda ma'lumotlar bazasini yaratiladi, nazorat va tahlil qilish jarayonlarini amalga oshirish imkoniyatlari kengaytiriladi.

Loyiha doirasida avtomatlashtirilgan tizimni ishlab chiqish va joriy etish rejalashtirilgan.

### **5. "Pochta aloqasi obyektlarini kompyuter va orgtexnikalari bilan ta'minlash" loyihasi**

Pochta aloqasi obyektlarida axborot texnologiyalari negizida yangi xizmatlarni keng joriy etish hamda mijozlarga ko'rsatilayotgan pochta aloqasi xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida bugungi kunda eskirgan kompyuterlar, qurilma va jihozlarni yangilash zaruriyati vujudga kelgan.

Bu borada 3 000 dona kompyuter, 500 dona ko'p funksiyali uskuna va ko'p funksiyalarni bajaradigan 4 300 dona mobil qurilmalarni xarid qilish ko'zda tutilgan.

### **6. "To'lovlarni qabul qilish avtomatlashtirilgan tizimini yangilash" loyihasi**

Pochta aloqasi obyektlari orqali barcha turdagi to'lovlarni onlayn rejim orqali qabul qilishning avtomatlashtirilgan tizimini yangilash orqali, qabul qilingan to'lovlarni o'z vaqtida real rejimda hamkor tashkilotlarga o'tkazib borish yo'lga qo'yiladi hamda markazlashgan 1-S buxgalteriya tizimiga integratsiya qilinadi.

## 1. 6. Pochta aloqasining texnik-iqtisodiy xususiyatlari

Pochta aloqasi korxonalarini sanoat ishlab chiqarishi bilan bir xil asosiy xususiyatlarga ega. Mahsulotlarni yaratish uchun ishlab chiqarish jarayoni moddiy-texnik bazadan, ishchilar mehnatidan va mehnat obyektlaridan foydalangan holda tashkil etiladi. Pochta mehnatining obyektlari pochta jo'natmalari (xat, posilka, pul o'tkazmalari va boshqalar) hisoblanadi. Shu bilan birga, pochta aloqasi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu uning iqtisodiy xususiyatlari, xalq xo'jaligidagi o'rni va ahamiyati natijasidir. Pochta xizmatlarining, shuningdek, umuman aloqaning asosiy farqlovchi xususiyati shundaki, yaratilgan mahsulotlar moddiy emas, ya'ni yangi moddiy mahsulot ishlab chiqarilmaydi. Mehnat predmeti xom ashyo emas, balki jo'natuvchidan adresatga yetkazib berish uchun olingan pochta jo'natmasidir. Pochta xizmatlari tomonidan yaratilgan mahsulotlar pochta jo'natmalarini jo'natuvchidan oluvchiga ko'chirish va etkazib berishdan iborat bo'lib, ishlab chiqarish jarayonidan alohida mavjud emas, ya'ni ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlari bir-biridan ajralmas. Aloqa korxonalarini mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi ish sifatiga yuqori talablar qo'yadi, bu esa pochta jo'natmalarining harakatlanish tezligi, ularni qabul qiluvchilarga yetkazib berishning to'g'riligi, pochta aloqasi tarmog'ining muntazamligi va barqaror ishlashi bilan belgilanadi. Barcha pochta jo'natmalari pochta aloqasi korxonalarida iloji boricha tezroq qayta ishlanishi va yo'naltirilishi kerak. Pochta jo'natmalarida kamomat yoki kechikish bilan yetkazilgan pochta jo'natmalari nafaqat o'z ma'nosini balki sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini ko'rsatib, balki iste'molchiga ham jiddiy zarar etkazishi mumkin. Pochta jo'natmalarini qayta ishlash bo'yicha ishlab chiqarish jarayonlari ko'pincha mamlakatning turli mintaqalarida joylashgan bir nechta aloqa korxonalarida ketma-ket amalga oshiriladi. Ushbu holat, shuningdek, pochta aloqasi ishlab chiqarish jarayonlarining murakkabligi va ko'p operativligi korxonalarining muvofiqlashtirilgan faoliyatini va transport vositalarining ishlashi o'rtasidagi aniq o'zaro ta'sirni talab qiladi. Shu sababli, pochta jo'natmalarini jo'natish tartibi va xizmatlar ko'rsatish qoidalarida

nazarda tutilgan pochta jo'natmalarini qabul qilish, qayta ishlash va etkazib berish usullarining (ya'ni texnologiya) birligi muhim ahamiyatga ega. Aloqa korxonalaridan birining yoki uning alohida xodimlarining noto'g'ri ishlashi, shuningdek, tashish tartibini buzish boshqa aloqa korxonalarining ishiga ta'sir qiladi va butun pochta korxonasi bo'ylab mahsulot sifatining yomonlashishiga olib keladi. Bularning barchasi pochta xodimlaridan qat'iy ishlab chiqarish va mehnat intizomini, har bir xodimdan o'z vazifasiga sifatli munosabatda bo'lishni talab etadi. Pochta aloqasi uchun transportning barqaror va muntazam ishlashi alohida ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatning barcha pochta korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksiz va ritmik bajarilishi bevosita bog'liqdir. Shuning uchun transport operatsiyalarini boshqa pochta operatsiyalari bilan qat'iy muvofiqlashtirish, aloqa korxonalarida mehnat va ishlab chiqarishni oqilona tashkil etish bilan birgalikda tezyurar transport vositalaridan foydalanish zarur.

Ishlab chiqarish jarayonida ular nafaqat o'zlarining asosiy fondlaridan foydalanadilar. Pochta aloqasining moddiy-texnika bazasiga mahsulot yaratishda ishtirok etuvchi barcha mehnat vositalarining, ular aloqa korxonasining asosiy fondlari tarkibiga kirishidan yoki boshqa vazirliklarga (idoralarga) tegishli ekanligidan qat'i nazar, jami kiradi.

Pochta xizmatlarining ish hajmiga quyidagilar ta'sir qiladi: hajmi va vaqti bo'yicha pochta xizmatlariga talabning notekisligi; pochta jo'natmalarini jo'natish uchun foydalaniladigan samolyotlar, kemalar va boshqa transport turlarining jadvali; pochta qutilaridan yozma xat-xabarlarini, yozishmalarni olib tashish chastotasi va vaqti; davlat muassasalari, tashkilotlari va korxonalarining yopilish vaqti. Yukning notekisligi kun vaqti, hafta kuni, yil oyi bo'yicha kuzatiladi va ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilishni sezilarli darajada murakkablashtiradi. Pochta aloqasi korxonalarini moddiy-texnika resurslari va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlagan holda, barcha kiruvchi pochta jo'natmalarini o'z vaqtida sifat standartlariga rioya qilgan holda qayta ishlashlari shart;

Shu maqsadda eng ko'p yuklangan davrda pochta jo'natmalarini o'z vaqtida va sifatli qayta ishlash bo'yicha maxsus



tashkiliy-texnik tadbirlar ishlab chiqilib, uni tekislash bo'yicha ko'plab tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda. Pochta aloqasi korxonalarini an'anaviy xizmatlardan tashqari iste'molchilarga no'anaviy va boshqa xizmat turlarini ko'rsatadilar. Ko'rsatilayotgan hayotiy xizmatlarning keng doirasi tufayli pochta aloqasi korxonalarini va punktlari ma'lum bir xizmat ko'rsatish hududi ajratilgan. Ularni joylashtirish va rivojlantirish mamlakat aholisi va xalq xo'jaligini pochta aloqasi xizmatlari bilan to'liq ta'minlash uchun xizmat ko'rsatish hududi doirasidagi aholi zichligiga va boshqa bir qator omillarga bog'liq. Pochta xizmatlari sifatining muhim ko'rsatkichi ham pochta jo'natmalarining xavfsizligi hisoblanadi. Aholi, korxonalar, muassasa va tashkilotlar pochta aloqasi korxonalariga posilkalar, qiymati e'lon qilingan xatlar, jo'natmalar va o'tkazmalar ko'rinishida yuboriladigan yirik moddiy boyliklar va pul mablag'larini ishonib topshirishadi. Pochta aloqasi korxonalarini barcha pochta jo'natmalarining xavfsizligini va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan yozishmalarning maxfiyligini ta'minlashi kerak. Demak, pochta aloqasining moddiy-texnik bazasi bu aloqa korxonalarining asosiy fondlari tarkibiga kiradimi yoki boshqa idora va tashkilotlarga tegishli bo'lishidan qat'i nazar, pochta aloqasi mahsulotlarini yaratishda ishtirok etuvchi barcha mehnat vositalari yig'indisidir. Pochta aloqasining rivojlanishiga nafaqat aloqa korxonalarining, balki xalq xo'jaligining boshqa sohalarining ham moddiy-texnika bazasining yaxshilanishi ta'sir ko'rsatmoqda. Shahar va tumanlarda pochta aloqasi bo'limlari (PAB) va pochta aloqasi punktlari (PAP) mavjud bo'lib, ular to'g'ridan-to'g'ri mijozlarga aloqa xizmatlarini ko'rsatadigan va ba'zan pochta orqali ishlov beradigan va almashadigan aloqa korxonalarining ishlab chiqarish birliklari bo'ladi. Pochta bo'limining (punktning) ishlab chiqarish va texnik funksiyalarini hisobga olgan holda, ular to'liq birlashtirilgan aloqa korxonalarini guruhiga kirishi mumkin. Shu bilan birga, pochta bo'limlari (punktlari) pochta aloqasi, (SHAB, TAB) kabi korxonalaridan tashkiliy va ma'muriy jihatdan farq qiladi. Ma'muriy jihatdan ular tegishli pochta bo'limlariga, Markaziy pochta bo'limlariga (SHAB, TAB) bo'ysunadi; ularda bank hisob varag'i va mustaqil balans mavjud emas; ular mehnatga yollash va

bo'shatish huquqiga ega emaslar; rejalashtirish, buxgalteriya hisobi va hisobot tizimi soddalashtirilgan va qisqartirilgan holda qo'llaniladi, ular tarkibiga kiradigan korxonalariga nisbatan shaklidir. Shartli ravishda pochta bo'limlari (punktlari) aloqa korxonalariga tegishli bo'ladi. Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatuvchi barcha pochta aloqasi korxonalarini mijozlar uchun keng tarqalgan. Istisno - bu eng yaxshi xizmatni taqdim etish uchun yirik fabrikalar, muassasalar, ta'lim muassasalari hududida tashkil etilgan oz sonli yopiq aloqa idoralari mijozlarga xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha aloqa korxonalarini statsionar va mobil, doimiy va mavsumiyga bo'linadi. Asosiy ulushni statsionar aloqa shoxobchalari tashkil etadi. Uyali aloqa shoxobchalari statsionar AB ochish uchun aloqa xizmatlariga talab yetarli bo'lmagan qishloq aholi punktlariga xizmat ko'rsatish uchun tashkil etiladi; mavsumiy AB - mavsumiy dam olish maskanlariga xizmat ko'rsatish uchun ochiladi.

### 1.7. Pochta aloqasining moddiy-texnik bazasi

Aloqa korxonasining asosiy fondlari tarkibiga kiradimi yoki boshqa vazirliklar (idoralar) ga tegishli bo'lishidan qat'i nazar, mahsulot yaratishda ishtirok etadigan barcha mehnat vositalarining yig'indisini o'z ichiga oladi. Pochta aloqasi asosiy fondlarida eng katta ulush bino va inshootlar (70%) va transport (20%) xarajatlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ba'zi aloqa korxonalarini Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari tomonidan bepul taqdim etilgan yoki ijaraga olingan binolarda joylashgan. Bunday binolarning narxi kommunikatsiyalarning asosiy ishlab chiqarish aktivlari qiymatiga, shuningdek pochta jo'natmalarini taqdim etish uchun ishlatiladigan boshqa tashkilotlar va idoralarning transport vositalari narxiga kiritilmaydi.

Pochta xizmatining yuklamasiga quyidagilar ta'sir qiladi:

- pochta xizmatlariga bo'lgan talab va vaqt talabining notekisligi; pochta jo'natmalarida ishlatiladigan havo transporti, suv havzasi kemalari va temir yo'l transporti, yer usti transporti turlari jadvallari;

pochta qutilaridan xat-xabarlarni yig'ib olish chastotasi va vaqti; davlat idoralari, tashkilotlar va korxonalarining ish vaqtini tugash vaqti. Yukning notekisligi kunning vaqti, haftaning kunlari, yilning oylari bo'yicha kuzatiladi va ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilishni sezilarli darajada murakkablashtiradi. Pochta aloqasi korxonalari barcha kiruvchi pochta jo'natmalarini belgilangan vaqtda sifat standartlariga muvofiq qayta ishlashlari kerak, shu bilan birga moddiy-texnik vositalar va mehnatdan oqilona foydalanishni ta'minlaydilar; buning uchun eng katta yuk hajmi va uzoq vaqt davomida pochta o'z vaqtida va sifatli qayta ishlash bo'yicha maxsus tashkiliy-texnik chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda uni tenglashtirish bo'yicha tashkiliy ishlar olib borilmoqda. An'anaviy xizmatlardan tashqari, pochta aloqasi korxonalari iste'molchilarga bank xizmatlari, telekommunikatsiya xizmatlari, chakana savdo, va boshqa shartnomaviy xizmat turlarini taqdim etadi. Taqdim etilayotgan hayotiy xizmatlarning keng turlari tufayli korxonalar va pochta aloqasi punktlariga ma'lum xizmat ko'rsatish maydoni ajratilgan. Ularning joylashishi va rivojlanishi xizmat ko'rsatish xududi doirasidagi aholi zichligiga va mamlakat aholisi va milliy iqtisodiyotiga pochta xizmatlarini to'liq taqdim etish uchun boshqa bir qator omillarga bog'liq.

Pochta aloqasi sifatining muhim ko'rsatkichi ham pochta jo'natmalarining xavfsizligi hisoblanadi. Aholi, korxonalar, muassasa va tashkilotlar pochta aloqasi korxonalariga posilkalar, e'lon qilingan qiymatga ega xatlar va pul o'tkazmalari shaklida jo'natiladigan katta moddiy qiymatliklar va mablag'larga ishonadilar. Pochta aloqasi korxonalari barcha pochta jo'natmalarining xavfsizligini va O'zbekiston Konstitutsiyasida kafolatlangan yozishmalar sirini ta'minlashi kerak. Shunday qilib, pochta aloqasining moddiy-texnik bazasi - bu aloqa korxonalarining asosiy fondlarining bir qismi yoki boshqa bo'lim va tashkilotlarga tegishli bo'lishidan qat'i nazar, pochta aloqasi mahsulotlarini yaratishda ishtirok etadigan barcha mehnat vositalarining yig'indisidir. Pochta aloqasining rivojlanishiga nafaqat aloqa korxonalarining, balki xalq xo'jaligi boshqa sohalarining ham moddiy-texnik bazasi yaxshilanishi ta'sir ko'rsatmoqda.

## 1. 8. Pochta aloqasining ishlab chiqarish jarayonlari ta'rifi va xususiyatlari

Pochta, kuryerlik jo'natmalari va pul o'tkazmalarini jo'natish va yetkazib berish (topshirish) bo'yicha qat'iy tartibga solingan va o'zaro bog'langan ishlab chiqarish operatsiyalari kompleksidan iborat xodimlar va ishlab chiqarish quro'llari barcha xatti-harakatlarining jami pochta aloqasining ishlab chiqarish jarayoni deb nomlanadi.

Pochta aloqasi ishlab chiqarish jarayonining maqsadi pochta jo'natmalarini minimal xarajatlar bilan belgilangan muddatlarda qabul qilish, ishlov berish va yetkazib berishni ta'minlash hisoblanadi. Pochta aloqasi umumiy ishlab chiqarish jarayoni pochta jo'natmasining jo'natuvchidan adresatgacha bo'lgan butun o'tish yo'lini qamrab oladi. Bu jarayonda bir nechta pochta aloqasi obyektlari ishtirok etishi uning xususiyati hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayoni har bir turga xos bo'lgan texnologik xususiyatlar (og'irligi, o'lchamlari, manzil belgilari) va ishlov berish texnik vositalari bilan turli pochta jo'natmalariga ishlov berishning bir qator qisman texnologik jarayonlariga ajratiladi.

Texnologik jarayonning ritmikligi (ritmi) pochta jo'natmalarining vaqt va yo'nalishlar bo'yicha kelib tushishi notekisligi sharoitlarida turli vaqt oraliqlarida pochta jo'natmalarining teng to'plamlariga ishlov berilishini ta'minlaydi.

Texnologik jarayonning doimiyligi loyihalashtirish bosqichida ta'minlanadi va uskunaning o'tkazish qobiliyati rezervini qo'llash, qo'shimcha ish o'rinlari, yangi yuqori unumdorlikka ega mashinalar, uskunani modernizatsiyalash hisobiga ekspluatatsiya qilish jarayonida takomillashtiriladi. Keltirilgan tadbirlar qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi, ammo xizmatlarning yuqori darajasini ta'minlash, pochta aloqasini va uning rentabelligini teng holatda qo'llab-quvvatlash uchun zarur hisoblanadi. Texnologik jarayonlarning muntazamligini va ritmikligini oshirishning eng samarali chora-tadbiri bo'lib, ularni avtomatlashtirish hisoblanadi - avtomatlashtirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish, mehnat unumdorligining ancha ko'tarilishini va pochta jo'natmalariga ishlov berish muddatlarining qisqartirilishini ta'minlovchi yuqori

unumdorlikka ega pochtaga ishlov berish mashinalarini yaratish va joriy qilish bo'yicha chora-tadbirlarning jami.

Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish ikkita asosiy bosqichni o'z ichiga oladi:

- mavjud uskunani modernizatsiyalash;
- ko'p funksional va yuqori unumdorlikka ega avtomatik pochtaga ishlov berish mashinalari va komplekslarini joriy qilish, texnologik jarayonlarini ishlab chiqish.

Ushbu bosqichlardan ikkinchisi pochtaga ishlov berishning an'anaviy metodlarini va katta kapital xarajatlarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Eng ko'p samaraga erishish uchun moddiy mablag'larni birinchi navbatda jonli mehnatning katta xarajatlari bilan bog'liq texnologik operatsiyalarni avtomatlashtirishga sarflash maqsadga muvofiqdir:

- ortish-tushirish operatsiyalari;
- ichki ishlab chiqarish maqsadida tashish;
- pochta jo'natmalariga dastlabki ishlov berish va ularni saralash.

Pochta aloqasi ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirishning birinchi navbatdagi masalalari, quyidagilar hisoblanadi:

- avtomatlashtirilgan liniyalarni joriy qilgan holda yozma xat-xabarlar va posilkali pochtaga ishlov berish kompleksli avtomatlashtirilgan jarayonlarni ishlab chiqish;
- barcha turdagi pochta jo'natmalaridagi ilova hujjatlariga ishlov berishni avtomatlashtirish va pochta o'tishini nazorat qilish;
- axborot texnologiyalari, elektron va kommunikatsion texnika vositalari (elektron pochta, gibrid pochta, ekspres-pochta va b.) dan foydalanish bazasida pochta aloqasi xizmatlarini kengaytirish, zamonaviy apparat-dasturiy vositalar, yangi avlod pochta-kassa apparatlaridan foydalanish;
- korxonalarini boshqarish avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy qilish va ularni pochta aloqasini boshqarish avtomatlashtirilgan tizimiga birlashtirish.

### 1.9. Pochta jo'natmalariga ishlov berish va ishlab chiqarish jarayonlarining umumiy xarakteristikasi

Har bir pochta jo'natmasi jo'natuvchidan adresatgacha bo'lgan harakatlanish jarayonida- pochta aloqasi xizmatini ta'minlovchi umumiy ishlab chiqarish jarayonining bir qator bosqichlarini (texnologik jarayonlarini) bosib o'tadi.

Bunday bosqichlarning har biri ishlab chiqarishning alohida bo'linmasiga xos bo'lgan va uning uchun to'liq tugallangan texnologik jarayon hisoblanadi. Jo'natiluvchi, kiruvchi va tranzit pochta jo'natmalariga ishlov berish jarayonlari pochta aloqasi uchun asosiy hisoblanadi.

Istalgan turdagi pochta jo'natmalariga ishlov berish texnologik jarayoni texnologik jarayonlarning majmuidan iborat. Operatsiya tushunchasi texnologik jarayonlar uchun haqiqiy hisoblanadi, bu texnologik jarayonlarning asosiy ishtirokchisi bo'lib, pochta aloqasi obyektlaridagi umumiy ishlab chiqarish jarayonida muhim qismni tashkil qiluvchi inson hisoblanadi.

Shu sababli texnologik operatsiya tegishli ish joyida bir yoki bir necha ishchilar tomonidan bajariladigan ishlab chiqarish jarayonining bir xil tashkil etuvchisi sifatida belgilanadi. Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish jarayoni sharoitlarida texnologik operatsiya, bir tomondan mashina ish siklining bir qismiga aylansa, boshqa tomondan - funksional murakkab operatsiyalar uchun bir nechta mashinalar va mexanizmlardan iborat texnologik liniya qo'llanilishi mumkin.

Bunday liniyalarda insonning jonli mehnati, odatda, alohida mashinalar o'rtasida u yoki bu sharoitlarda avtomatlashtirilmaydigan yoki avtomatlashtirish iloji bo'lmagan moslashuvchan aloqalarni ta'minlash operatsiyalari uchun qo'llaniladi.

Pochtaga ishlov berish mashinalarining o'ziga xos xususiyati bo'lib, quyidagi cheklashlar bilan oldindan belgilangan ularning cheklangan funksional universalligi hisoblanadi:

- ishlov beriladigan pochta jo'natmalarining turlari bo'yicha;
- pochta jo'natmalarining gabaritlari va og'irligi bo'yicha;
- bir vaqt birligi ichida ishlov beriladigan jo'natmalarning

hajmi bo'yicha;

- pochta jo'natmalarini manzillash tamoyli bo'yicha;
- tayyor mahsulot to'plamini shakllantirish usuli bo'yicha.

Texnologik operatsiyalarning maqbul to'plamini va ularning funksional to'liqligini tanlash pochta ishlov berish mashinalarining mavjud parkining imkoniyatlari, avtomatlashtirish darajasining o'sishini ta'minlovchi yuqori funksional va texnik ko'rsatkichlarga ega mashinalarni ishlab chiqish asosida ushbu imkoniyatlarni amalga oshirishning zamonaviy metodlari bilan oldindan belgilanadi.

Tizimning ketma-ketligida keltirilgan quyidagi bir o'lchamli operatsiyalar pochta aloqasi korxonasiidagi ishlab chiqarish jarayonining asosini tashkil qiladi:

- iste'molchilarga xizmat ko'rsatish operatsiyalari;
- ortish-tushirish operatsiyalari;
- ishlab chiqarish korxonasi ichida tashish;
- pochta jo'natmalariga dastlabki ishlov berish va ularni to'plash;

- pochta jo'natmalarini saralash;
- pochta jo'natmalarini jo'natishga tayyorlash;
- pochta tashish operatsiyalari.

Pochta aloqasi ishlab chiqarish jarayoniga xos bo'lgan xususiyat uning ko'p rejaliligi va texnologik operatsiyalarning o'ziga xosligidir.

"O'zbekiston pochta" AJ kelajakda bank va sug'urta xizmatlari ko'rsatishi mumkin.

"O'zbekiston pochta"dagi mavjud infratuzilma bazasida outsorsing asosida pul o'tkazmalarini amalga oshirish, plastik kartalarga xizmat ko'rsatish va depozitlar ochish xizmatlarini yo'lga qo'yish imkoniyati mavjud.

Ushbu reja yetakchi mamlakatlar tajribasini o'rganish maqsadida mutaxassislarni jalb qilish, pochta tarmog'ini rivojlantirish, xorijda xalqaro pochta almashuv punktlari tashkil qilishni o'z ichiga olgan.

**"O'zbekiston pochta" AJ texnologik rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.** "O'zbekiston pochta" AJ texnologik rivojlanishi birinchi navbatda tijorat va ijtimoiy rivojlanish doirasida strategik maqsadlarni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Shu bilan birga texnologik rivojlanishda pochta va AKT sohasini rivojlantirishning global tendensiyalari hisobga olinishi va texnologiyalarni tanlashda istiqbolli yondashuvga asoslanishi kerak.

Xizmat ko'rsatish sifatining o'sishi va logistika jarayonining ishonchligi "O'zbekiston pochta" AJ rivojlanishining ajralmas qismidir. Pochta jo'natmalarining : tezlik standartlarini, yetkazib berish muddatlarini va xavfsizligini ta'minlash va asosiysi sifatini oshirmasdan amalga oshirish mumkin emas. "O'zbekiston pochta" AJ orqali pochta jo'natmalarini yetkazib berish xavfsizligi darajasi nisbatan yuqori, shu bilan birga yetkazib berish tezligi va ishonchliligi muammoli joylardir.

Bugungi kunda mijozlar ehtiyojlari "O'zbekiston pochta" AJning tezligi va ishonchlik darajasi bilan to'g'ri kelmaydi. Mijozlarning taxminlari va haqiqiy ta'minot o'rtasidagi farq xatlar va posilkalar uchun farq qiladi va mintaqalarga qarab farqlanadi.

Katta shaharlarda uy va ofislarga posilkalali pochta jo'natmalarini yetkazib berish ham kutilayotgan asosiy xizmatdir.

Qisqa vaqt ichida amalga oshirishni talab qiladigan asosiy asosiy vazifalar:

- logistikani optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- marshrutni ishlab chiqish jarayonini boshidan oxirigacha muvofiqlashtirishni ta'minlash;
- yetkazib berish zanjiri davomida belgilangan muddatlarga va mijozlar talablariga muvofiqligini ta'minlash

Texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy tashabbuslari:

### **Avtomobil parkini yangilash va rivojlantirish**

Avtoparkning doimiy yangilanishi va rivojlanishi pochta jo'natmalarini manzilga yetkazib berish sifati va tezligini oshirishni kafolatlaydi, shuningdek, "O'zbekiston pochta" AJning belgilangan maqsadlariga erishishda o'z hissasini qo'shadi. Bundan tashqari, mavjud avtoullov parkini yangilash va rivojlantirish

bo'yicha chora-tadbirlar pochta jo'natmalarini tezkor yetkazib berishni rivojlantirishga yordam berishi kerak.

### **Pochta qutilarini ishlab chiqish va o'rnatish**

Bozorning estetik talablari, shuningdek, pochta jo'natmalarini vandalizmdan himoyalash, hisobga olgan holda tashqi ko'rinishini yagona Umumjahon pochta ittifoqining standartlarga muvofiq ravishda pochta qutisini loyihalashtirish zarur.

Shuningdek, pochta qutilarini elektron boshqaruv tizimi bilan jihozlash kerak, shunda xatlarni aniq vaqtini kuzatishingiz va pochta jo'natmalarining sifati buzilgan taqdirda signal olishingiz mumkin.

### **Surg'uchni bir martalik pochta muhrlari bilan almashtirish**

Surg'uch muhrini xavfsiz va tejamkor bir martalik pochta muhrlari, qo'rg'oshin va plastmassa muhrlari raqamlangan plastik signalizatsiya moslamalari, skotch bilan almashtirish yanada samarali.

Texnologik rivojlanish strategiyasi tijorat strategiyasiga asoslanadi va pochta aloqasi sohasini rivojlanishining yangi rejalashtirilgan dinamikasini ta'minlash va qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan.

Biznes maqsadlarining ko'lami va strategik maqsadlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish zarurligi asosiy qo'llab-quvvatlovchi funksiyalar va biznesni tashkil etish talablarini belgilaydi. Kundalik biznes operatsiyalari va strategiyani amalga oshirishni qo'llab-quvvatlovchi asosiy omil sifatida axborot texnologiyalariga qo'yiladigan asosiy talablarga quyidagilar kiradi:

- oqimlar, mijozlar va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlarning shaffoqligini ta'minlash;
- qaror qabul qilish va amalga oshirishda tezlik sifati va o'sishini ta'minlash;
- avtomatlashtirish orqali mavjud biznes-jarayonlarni amalga oshirishda samaradorlik o'sishini ta'minlash;
- yangi xizmatlarni tezkor joriy etish.

Korxonaning asosiy ishbilarmonlik ehtiyojlarini qondirish uchun "O'zbekiston pochta" AJning axborot texnologiyalarini sezilarli darajada modernizatsiya qilish zarur.

Biznes talablarini amalga oshirish uchun quyidagilar kerak:

- yagona axborot makonini yaratish;
- ishlatiladigan platformalar sonini optimallashtirish;
- strategik platformalar va texnologiyalar.

### **Boshqaruv faoliyati**

Xodimlarni samarali boshqarish kompaniyaning strategik maqsadlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy vakolatdir. Bugungi kunda "O'zbekiston pochta" AJning ushbu sohadagi dolzarb muammolari:

- yuqori kadrlar almashinuvi, past malakali kadrlarning unumdorligi va mehnat intizomi;
- mutaxassislarining malakasi va motivatsiyasi nisbatan past darajasi;
- o'rta menejerlarning past motivatsiyasi, malakasi va samaradorligi.

Mavjud muammolarning asosiy sababi xodimlarni baholash va rag'batlantirish tizimi deb hisoblanishi mumkin. Ushbu muammolarni hal qilish uchun "O'zbekiston pochta" AJning zamonaviy tajribaga e'tibor qaratib, xodimlarni boshqarish siklining barcha bosqichlarida samarali bo'lishi kerak.

### **Kadrlar faoliyati**

Inson resurslarini boshqarish biznes yo'nalishlarining strategik sherigi bo'lib, quyidagi tashabbuslarni o'z ichiga oladi:

- ish beruvchilarning muntazam marketingi.
- "O'zbekiston pochta" AJning joylashuvi - uzoq muddatli ish bilan ta'minlash;
- tashkilotning asosiy darajalari maqsadlari uchun boshqaruv tizimini joriy etish;
- shaxsiy va jamoaviy maqsadlarni yuqoridan pastgacha belgilash. Pochta aloqasi bo'limlari boshliqlari darajasigacha bo'lgan menejerlarga standartlashtirilgan jarayon uchun har yili KPI (samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari) tasdiqlanishi;
- xodimlarning reytingi va ish haqi asosida ish haqi tizimini joriy etish;
- inson resurslarini boshqarish avtomatlashtirish.

funksiyalarini

Kadrlar, abituriyentlar, lavozimlarning yagona markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasida mehnat hujjatlarini to'liq avtomatlashtirish (hisoblash, ta'til va boshqalar). Rejalashtirish, ishga qabul qilish, KPI, malaka oshirish uchun IT-dasturlar yaratish;

• kadrlar sifatini oshirish uchun kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish;

• kompleks baholash tizimini joriy etish, baholash natijalari asosida va korxonaning strategik maqsadlarini hisobga olgan holda o'qitishni rejalashtirish; aralash ta'lim tizimini joriy etish, shu jumladan, har bir xodim uchun korporativ bilimlarning o'z vaqtida va mavjudligini ta'minlaydigan masofadan o'qitish tizimini rivojlantirish;

• malakali mutaxassislar va ishchilarni tayyorlash va ularni "O'zbekiston pochta" AJga jalb qilish bo'yicha oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari bilan samarali hamkorlik qilish.

#### Nazorat savollari:

1. Pochta aloqasi xizmatlari qanday qonuniy hujjatlar asosida xizmat ko'rsatadi?

2. "O'zbekiston pochta" AJ ning milliy operatori vazifalari nimalardan iborat?

3. "Pochta aloqasi xizmatlari tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qonun qachon qabul qilingan va unda belgilangan vazifalar nimalardan iborat?

4. Raqamli pochta tarmoqlari nima?

5. Pochta xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish tizimini joriy etish natijasida qanday natijalarga erishiladi?

7. "Gibrid pochta" xizmatini rivojlantirish va ish unumdorligini oshirish samaradorligi qanday?

8. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini onlayn sotish va mijozlarga yetkazib berish imkoniyatini beruvchi elektron savdo maydonchasi axborot tizimini mijozlarga qanday imkoniyatlarni yaratadi?

9. Xat-xabar tashish va kuryerlik xizmatlarini

rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari qanday.

10. Pochta aloqasining ishlab chiqarish texnologik jarayonlari deb qanday jarayonlarga aytiladi?

11. Pochta jo'natmalarini jo'natish tartibi qanday?

12. Pochta aloqasi yuklamalari qanday hisoblanadi?

13. Pochta aloqasi xizmatlarini taqdim etilishi qanday qonuniy hujjatlar asosida ko'rsatiladi?

14. "O'zbekiston pochta" AJni qayta qurish bosqichlari?

15. "O'zbekistonda pochta" aloqasini takomillashtirishning asosiy vazifalari?

16. "O'zbekiston pochta" AJ texnologik rivojlanishining asosiy bosqichlari?

17. Pochta aloqasining yangi xizmat turlari kompleksini joriy etilishi zamirida qanday ko'rsatkichlarga erishiladi?

18. Pochta aloqasining yangi xizmat turlari kompleksini joriy etish

19. Umumiy ravishda foydalaniladigan pochta aloqasi shoxobchalarini zamonaviylashtirish

20. Pochta aloqasi faoliyat ko'rsatishning bozor mexanizmlari.

### 2.1. Pochta aloqasi tashkilotlari va ularning faoliyatining tavsifi

Pochta xizmatlari bozorida an'anaviy xizmatlar, shu jumladan yozma xat-xabarlarini, jo'natmalarni, pochta pul jo'natmalarini yuborish va boshqa xizmatlar ko'rsatiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yetarli joriy etilmaganligi sababli pochta aloqasi korxonalarini tomonidan xizmatlarning yangi turlari ko'rsatilmayapti, ularning turlari kengaymayapti, pochta jo'natmalarini ishlash va yetkazib berishni avtomatlashtirish darajasi pastligicha qolmoqda, bu ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish asosida xizmatlarning yangi turlarini rivojlantirish, O'zbekistonning barcha hududida pochta aloqasi universal xizmatlarining kafolati va sifatli ko'rsatilishini ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida pochta aloqasi shoxobchalarini zamonaviylashtirish va xizmatlarning yangi turlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bu pochta shoxobchalarini zamonaviylashtirishdir:

-turli xil pochta jo'natmalarini yetkazib berishda aniq tarifkatsiyani ta'minlash uchun pochta aloqasi bog'lamalarini va bo'limlarini zarur miqdordagi elektron o'lchov vositalari bilan jihozlash;

-viloyatlararo, viloyatlar va tumanlar ichki avtomobil pochta yo'nalishlarini maqbullashtirish uchun mintaqalararo ayirboshlash punktlarini tashkil etish;

-pochta jo'natmalarini va pul mablag'larini tashuvchi pochta avtomobil texnikasi parkini yangilash, shuningdek ularni ko'chma aloqa vositalari bilan qo'shimcha jihozlash;

-pochta aloqasi korxonalarida videokuzatish va foydalanishni elektron nazorat qilish tizimlarining texnik imkoniyatlarini kengaytirish;

-pochta jo'natmalarini va davriy matbuotni ishlash, manzillar bo'yicha ajratish ayirboshlash punktlarini portativ rentgen-televizion qurilmalar bilan jihozlash, shuningdek qo'lda ishlatiladigan metall detektorlar bilan qo'shimcha jihozlash;

Pochta aloqasining yangi xizmat turlari kompleksini joriy etish: pochta xizmatlari — elektron pochta, gibrid pochta, elektron pochta markasi, "Tovarlarni pochta orqali yetkazib berish", pochta jo'natmalarini yetkazib berishni internet yoki telefon orqali nazorat qilish tizimi;

**interaktiv xizmatlar** - kompyuter texnologiyalariga asoslangan so'zlashuv punktlaridagi telefon, faksimil aloqa xizmatlari, elektron ma'lumotnoma tizimi, internetdan foydalanish;

**moliyaviy xizmatlar** - plastik kartochnalardan foydalangan holda moliyaviy to'lovlar bo'yicha operatsiyalar, elektron pul jo'natmalari, hisob-kitob-kassa operatsiyalari bo'yicha xizmatlar; pochta jo'natmalarini ishlash, hisobga olish va nazorat qilish jarayonlarida yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.

Pochta aloqasi shoxobchalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish:

-pochta jo'natmalarini yetkazib berish, ishlash, manzillar bo'yicha ajratish va monitoringini yuritish tizimini tegishli ravishda zamonaviylashtirgan holda pochta infratuzilmasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

-ma'lumotlarni uzatishning mavjud korporativ tarmog'ini zamonaviylashtirish yo'li bilan pochta aloqasining avtomatlashtirilgan tizimini yaratish, unga pochta aloqasining barcha filiallarini, tuman, shahar uzellari va bo'limlarini ulash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida yangi xizmatlar turlarini ko'paytirish uchun ish o'rinlarini kompyuter texnologiyalari bilan tegishli ravishda jihozlash;

ma'lumotlar uzatish tarmog'i orqali gazetalarga, davriy, boshqa matbaa nashrlariga va turli tovarlarga buyurtmalarni qabul qilish, shuningdek ularni buyurtmachilarga tegishli pochta aloqasi bo'limlari orqali yetkazib berish yo'li bilan elektron savdo tizimini tashkil etish;

-ma'lumotlar uzatishning zamonaviy texnologiyalari (ATM, Frame Relay, Fast Ethernet, Gigabit Ethernet)ni qo'llangan holda xalqaro pul jo'natmalarini yetkazib berish bo'yicha pochta aloqasi xizmatlari ko'rsatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

### Xorijiy davlatlar bilan pochta aloqasi sohasidagi faoliyatlar

- Xorijiy mamlakatlar pochta ma'muriyatlari va operatorlari bilan o'zaro hisob-kitoblarni ta'minlash maqsadlarida keluvchi, jo'natiluvchi va tranzit xalqaro pochta jo'natmalarini qayd etishni amalga oshirish;
  - xalqaro pochta aloqasi bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun xorijiy mamlakatlar pochta ma'muriyatlari va operatorlari bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish;
  - xorijiy mamlakatlar pochta ma'muriyatlari va operatorlari bilan Jamiyatning o'zaro hisob-kitoblari uchun keluvchi posilkalarga tariflarning hisob kitob ulushini belgilash;
  - xorijiy mamlakatlar pochta ma'muriyatlari va operatorlari bilan qabul qilingan va to'langan pul o'tkazmalari uchun o'zaro hisob-kitoblarni yuritish;
  - xorijiy mamlakatlar pochta ma'muriyatlari va operatorlari bilan shartnoma shartlari bajarilishini nazorat qilish;
  - Umumjahon pochta konvensiyasi va uning ijroiya Reglamenti, Pochta posilkalari to'g'risidagi kelishuv, davlatlararo kelishuvlarda nazarda tutilgan majburiyatlarga muvofiq xalqaro pochta jo'natmalarini qabul qilish, ishlov berish, qayta jo'natish va topshirishni ta'minlash;
  - xalqaro pochta jo'natmalarini qabul qilishda, qayta jo'natishda va eltib berishda bojxona qonun hujjatlariga rioya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ta'minlash;
  - boshqa mamlakatlar pochta ma'muriyatlari bilan pochta markalarini birgalikda chiqarishni tashkil etish; ochta aloqasi sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.
- Turli mamlakatlarda pochta aloqasi korxonalarini iqtisodiy ko'rsatkichlari 1. 3-jadvalda keltirilgan Xorijiy davlatlarda pochta aloqasi korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari

1. 3-jadval

Mamlakat	Pochta xizmati, moliyaviy bo'linmalar	Soha faoliyati iqtisodiy ko'rsatkichlar
Rossiya	"Rossiya pochta" aksiyadorlik jamiyati	Moliyaviy xizmatlar hajmi 136. 1 mlrd rublni tashkil etdi
Polsha	Pochta xizmati (Bank Pocztowy)	Mobil banking xizmatini taqdim etadi (hisoblarni hoshqarish, balansni bilish, mobil telefon orqali to'lovlarni amalga oshirish)
Yaponiya	Pochta xizmatlarini moliyaviy bo'linmasi Japan Post Bank	Yirik jamg'arma jahon banki, aktivlari 3 trln. Dollar, kapitali - 1. 6 trln. dollar
Braziliya	Pochta banki	40 mln. dan ortiq mijozlarga xizmat ko'rsatadi, elektron pul o'tkazmalari, to'lovlar, bankomatdan naqd pul yechish, oylik to'lov, soliq to'lov xizmatlarini taqdim etadi.
Germaniya	Pochta banki Postbank, pochta nafaqa xizmati	11, 5 mln mijozlarga xizmat ko'rsatadi, 780 dan ortiq pochta-bank markazlari mavjud, korporativ mijozlari 40 mingdan ortiq.
Shvesariya	Shvesariya pochta xizmati (Post finance)	Moliyaviy xizmatlarni to'liq chakana operatori. Elektron hisoblarni boshqarish bo'yicha bozorda yetakchi (545 ming kishiga xizmat ko'rsatadi) Yevropa bo'yicha kredit berishni amalga oshiradi, 1. 16 mlrd. Shvesariya franki-kredit hajmini tashkil etadi.

## 2. 2. Pochta aloqasining xalqaro tashkilotlari Umumjahon pochta ittifoqi tuzulmasi

Pochta almashinuvi dunyodagi aloqaning eng asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.



Bu aloqaning barcha foydalanuvchilar foydalanishi mumkin bo'lgan nisbatan qimmat bo'lmagan turidir. "Umumjahon pochta ittifoqi" nomi ostida a'zo-mamlakatlar yozma xat-xabarlarining jo'natmalarini o'zaro almashinish uchun yagona pochta hududini tashkil etadilar.

Tranzit erkinligi Uyushmaning butun hududida kafolatlanadi. Jahon pochta tarmog'i 650 ta pochta muassasalaridan iborat, ularda 5,5 million odam mehnat qiladi.

1874-yilning 9-oktabr UPI ni tashkil etishning rasmiy sanasi hisoblanadi va har yili jahon pochta hamjamiyati tomonidan butunjahon pochta kuni sifatida nishonlanadi.

Bugungi kunga kelib, UPI dunyoning 192 ta mamlakatini birlashtiradi va Birlashgan mamlakatlar tashkiloti (BMT) ning ixtisoslashtirilgan muassasasi maqomiga ega eng katta va eng vakolatli xalqaro tashkilot bo'lib hisoblanadi.

Ittifoq Ustavida ifodalangan UPI missiyasi pochta xizmatlarining samarali ishlashi va madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan xalqaro hamkorlikning oliy maqsadlariga ko'maklashish yo'li orqali xalqlar o'rtasida aloqalar rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

UPI maqsadi bo'lib, pochta aloqalarini tashkil etish va takomillashtirishni ta'minlash hamda bu sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun maqbul sharoitlarni yaratish hisoblanadi.

Bugungi kunda pochta sohasi jahondagi asosiy jarayonlar - globallashtirish, raqobatli kurashning shafqsizlashishi, mijozlar talabining oshishi, pochta xizmatining ishlab chiqarish jarayonlariga axborot texnologiyalarining joriy etilishining rivojlanishiga sabab bo'layotgan kuchlarning ta'sirini ayniqsa o'tkir his etadi. Bu UPI ni yangi sharoitlarda o'z missiyasi va o'rnini qayta ko'rib chiqishga majbur etadi. UPI jahon hamjamiyatining yangi ehtiyojlariga va orzu-istaklariga javob berish uchun o'z tuzulmasini o'zgartirish zaruratini ko'rib turibdi.

UPI pochta xizmatlarini ommaviylashtirish bo'yicha o'z ishini davom ettirmoqda. Uning vazifalaridan biri, universal pochta xizmatlari uchun standartlarni, shu jumladan sifat, samaradorlik,

mijozlarni qoniqtirish, xavfsizlik va oqilona narxlarni belgilash standartlarini ishlab chiqish va ta'minlashdan iborat.

UPI shuningdek, pochta xizmatlarining sifatini yaxshilash va rivojlanayotgan mamlakatlarda yangi texnologiyalarni joriy qilish uchun pochta ma'muriyatlariga texnik yordam, maslahat xizmatlarini ko'rsatadi va o'qitishni o'tkazadi.

UPI, eng avvalo, mijozlarning o'zgarib turuvchi ehtiyojlari qoniqtirilmadan qoldirilmasligini nazarda tutib pochta xizmatining rivojlanishi uchun investitsiyalarni jalb etishga ko'mak ko'rsatadi.

Shu tariqa, UPI pochta xizmatining yashash qobiliyatini va uning kelgusida rivojlanishini ta'minlaydigan tashkilotdir.

O'zbekiston Respublikasi 1994-yilning 24-fevralidan UPI ning a'zosi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining UPI ning a'zosi sifatida ishtirok etishi Ittifoq a'zo-mamlakatlarining pochta ma'muriyatlari bilan kontaktlar uchun pochta jo'natmalari bilan almashinuv bo'yicha yuzaga keladigan masalalarni hal etish uchun faqat vositachilar vazifasidagi UPI ning ishchi organlari bilan o'zaro ishlash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasining Pochta ma'muriyati UPI faoliyatida ishtirok etadi va mustaqil, rivojlanayotgan davlat sifatida pochta aloqasi masalalari bo'yicha xalqaro munosabatlarni yanada rivojlantirishga quyidagi yo'llar orqali ma'lum hissa qo'shadi, deb hisoblaydi:

pochta xizmatlarining texnik va ekspluatatsion faoliyatidagi normativlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

pochta aloqasi sohasidagi o'ta muhim masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishga ta'sir ko'rsatish;

xalqaro pochta xizmatlarini rivojlantirish va takomillashtirish uchun amaliy choralarni muvofiqlashtirishda ishtirok etish;

rivojlanayotgan mamlakatlar pochta xizmatlarining faoliyatini yaxshilash yo'llari va vositalari to'g'risida tavsiyalarni ishlab chiqishda ishtirok etish, bu rivojlanayotgan mamlakatlarga O'zbekiston ham kiradi.

### **Umumjahon pochta ittifoqi tuzulmasi**

UPI organlari bo'lib, Kongress, Ma'muriy kengash, Pochta ekspluatatsiyasi kengashi va Xalqaro byuro hisoblanadi.

Kongress Ittifoqning oliy organi bo'lib hisoblanadi va a'zo-mamlakatlarning vakillaridan iborat.

UPI doimiy organlari bo'lib, Ma'muriy kengash, Pochta ekspluatatsiyasi kengashi va Xalqaro byuro hisoblanadi.

Ma'muriy kengash Ittifoq hujjatlarining qoidalariga muvofiq ikki Kongress o'rtasida Ittifoq ishining uzluksizligini ta'minlaydi.

Pochta ekspluatatsiyasi kengashi pochta xizmatiga tegishli bo'lgan ekspluatatsion, tijorat, texnik va iqtisodiy xarakterdagi masalalarni hal etadi.

Xalqaro byuro - Bosh direktor rahbarlik qiladigan va Ma'muriy kengash tomonidan nazorat qilinadigan Ittifoq joylashgan joyda ishlaydigan markaziy muassasa, ijroiya organi, pochta ma'muriyatlarini qo'llab-quvvatlash, aloqa, axborot va maslahat organi bo'lib xizmat qiladi.

Umumjahon pochta ittifoqi hujjatlari

*UPIning Ustavi*

UPIning Ustavi Ittifoq faoliyatining sohalari to'g'risidagi asosiy qoidalaridan iborat, Ittifoq va Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilaydi, Ittifoqqa, Ittifoq tuzulmasiga, uning organlariga qo'shilish, kirish yoki chiqish protsedurasini belgilaydi, Ittifoq Hujjatlarini, ularni qabul qilish va bekor qilish (denonsatsiya qilish) hamda ularni o'zgartirish tartibini belgilaydi

*UPIning umumiy reglamenti* UPI umumiy reglamenti Ustavning qo'llanishi va Ittifoq faoliyatini ta'minlaydigan qoidalaridan iborat. UPI umumiy reglamenti Ittifoq organlari - Kongresslar va Favqulodda kongresslar, Ma'muriy kengash, Pochta ekspluatatsiyasi kengashi va Maslahatlashuv qo'mitasining faoliyati tartibini, UPI Hujjatlariga o'zgartirishlarni kiritish bo'yicha takliflarni kiritish va ko'rib chiqish protsedurasini, moliyaviy munosabatlar - UPI organlarining faoliyati bilan bog'liq xarajatlarni va UPIga a'zo-mamlakatlarning badallari klasslarini belgilaydi

*Kongresslarning ichki reglamenti*

Kongresslarning ichki reglamenti Kongresslarni o'tkazish tartibini belgilaydi.

### *Umumjahon pochta konvensiyasi*

Umumjahon pochta konvensiyasi o'z ichiga xalqaro pochta xizmatiga nisbatan qo'llaniladigan umumiy qoidalarni, shuningdek yozma xat-xabarlar va pochta posilkalariga nisbatan qo'llaniladigan qoidalarni oladi.

Umumjahon pochta konvensiyasi xizmatlarni taqdim etish tartibini, pochta ma'muriyatlarining javobgarligini, yozma xat-xabarlar, pochta posilkalari jo'natmalari, EMS xizmatlariga tegishli qoidalarni belgilaydi.

Umumjahon pochta konvensiyasining yakuniy bayonnomasi o'z ichiga Umumjahon pochta konvensiyasining ayrim moddalariga ogovorkalarni oladi, ularning talablari Ittifoqqa a'zo-mamlakatlarning milliy qonun hujjatlari yoki ichki xizmat uchun o'rnatilgan qoidalarga muvofiq bu a'zo-mamlakatlar tomonidan qabul qilinmaydi

*Pochta to'lov xizmatlari to'g'risidagi bitim, Pochta to'lov xizmatlari to'g'risidagi reglamenti*

Pochta to'lov xizmatlari to'g'risidagi bitim pul mablag'larini uzatish uchun mo'ljallangan barcha pochta xizmatlarini tartibga soladi.

Mamlakatlar o'zaro ushbu bitimda ko'zda tutiladigan mahsulotlar to'g'risida kelishadilar, bu mahsulotlarni ular ikki tomonlama munosabatlarda joriy etishni maqsad qilib qo'yg'nanlar.

Pochta to'lovlari xizmatlari to'g'risidagi bitim reglamenti o'z ichiga xalqaro pochta xizmatiga nisbatan qo'llaniladigan qoidalarni, shuningdek yozma xat-xabarlar vositasida amalga oshiriladigan to'lovlarga nisbatan hamda elektron vositalar yoki ikki tomonlama asosda kelishilgan istalgan boshqa vositalardan foydalangan holda jo'natiladigan to'lovlarga nisbatan qo'llaniladigan qoidalarni oladi.

**Xalqaro pochta almashinuvini tashkil etish.** O'zbekiston Respublikasi pochta aloqasi milliy operatorining ishlab chiqarish faoliyatini belgilaydigan ko'rsatkichlardan biri pochta almashuvi - belgilangan vaqt davomida qabul qilish ishlov berish va pochta almashinuvini nazorat muddatlarida amalga oshirishdan iboratdir.

"O'zbekiston pochta" AJ ning "Xalqaro pochta" korxonasi Toshkent shahrida 1930-yil o'z ish faoliyatini boshladi. Pochta jo'natmalariga ishlov berish xat-xabarlarini saralash punkti tuzilmasi Toshkent pochta aloqasi (TPA) deb nomlanadi.

1972-yil ish faoliyatini hajmi oshib, pochta jo'natmalar soni va pochta oqimlari ortganligi jo'natmalarni nazorat muddatlarda yetkazishni ta'minlash maqsadida "Toshkent" temir yo'li qoshida 5 qavatli 4000 m maydonni o'z ichiga olgan bino qurildi.

Avval (PAB) pochta aloqa boshqarmasi, so'ngra (TYQPA) 1985-yili Aloqa Vazirligiga qarashli O'rta Osiyo xududida pochta jo'natmalariga ishlov berish, saralash pochta xizmatlarni kor'satish xizmatlari olib borildi.

O'zbekiston mustaqillikka 1991-yili erishganidan so'ng O'zbekiston Respublikasining Aloqa Vazirligini №59 Farmoni 1993-yil 10- fevralda "Xalqaro pochta" maqomini oldi. 1990-yillarda "Xalqaro pochta" bir sutka davomida 445000 ta qop davriy nashrlar, 5000 ta baholi banderollarni yuborish, ishlov berish bo'yicha MDX davlatlari bilan ish faoliyatini olib borgan.

1997-yili "Xalqaro Pochta" aksiyadorlik jamiyatiga aylandi.

2004-yil 19-iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini №339 Qaroriga asosan "Xalqaro pochta", "O'zbekiston pochta" OAJ maxsus filialiga aylantirildi. "Xalqaro pochta" filialining asosiy vazifasi respublika va xalqaro chiquvchi pochta jo'natmalariga ishlov berish va manzil bo'yicha yo'naltirish, tashkilotlar, korxonalarini pochta almashinuvini xalqaro almashuvini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi ichida xalqaro maqomdagi viloyatlararo pochta tashuvini yetkazib beradi va ular quyidagilar;

-O'zbekiston Respublikasi va viloyatlar ichida gazeta va jurnallarni yetkazish.

-pochta yuklarini tashish O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston pochta" AJ-tijorat yuklarini avtotransport bo'yicha O'zbekiston xududidan xorijiy davlatlarga tashishni ta'minlaydi.

-aholi va tashkilotlardan ichki va xalqaro pochta jo'natmalarini qabul qilish.

-pochta jo'natmalarini xavfsizligini ta'minlash yozishmalarni maxfiylikini ta'minlash.

Ishlab chiqarish jarayoni bajarilishi kerak bo'lgan maksimal vaqt nazorat muddatini limit qilib belgilaydi, aloqaning barqarorligi va muntazamligi pochta jo'natmalarini yetkazib berish jadvallarini bajarilishini va xat-xabarlarini pochta qutisidan chiqarib olish bilan baholanadi.

"O'zbekiston pochta" AJning "Xalqaro pochta" filiali respublikada yagona xalqaro pochta almashinuv punkti hisoblanadi.


"Xalqaro pochta" o'z faoliyatida respublikada xorijiy davlatlardan kirib kelayotgan va chiqib ketayotgan barcha turdagi pochta jo'natmalarga ishlov berish bilan bir katorda pochta jo'natmalari va davriy matbuot nashrlarini tashish ishlari ham amalga oshiriladi.

Toshkent shahar va Toshkent viloyatiga pochta jo'natmalari yer usti marshruti avtomobil transportida "O'zbekiston pochta" AJ Toshkent pochta filialidan yuboriladi.

"O'zbekiston pochta" AJ "Xalqaro pochta" filiali O'zbekiston Respublikasida yagona xalqaro almashinuv punkti hisoblanadi. "Xalqaro pochta" filiali barcha turdagi pochta jo'natmalari va xorijiy hamda MDX mamlakatlaridan kelgan pochta jo'natmalariga ishlov beradi.

O'zbekiston Respublikasidan xorijiy davlatlarga pochta jo'natmalarni jo'natilishini ta'minlaydi. Temir yo'l transporti bilan xalqaro temir yo'l magistralari bo'yicha pochta almashuvini haftasiga 1 marotaba olib boriladi. 2. 1-rasm "Xalqaro pochta" filialining xalqaro pochta jo'natmalariga ishlov berish sxemasi berilgan.

Bugungi kunda xorijiy mamlakatlar bilan pochta almashinuvini pochta aloqa sohasidagi hamkorlik siljishi va rivojlanishi madaniy, iqtisodiy muvaffaqiyatga olib keladi.



## 2. 1-rasm "Xalqaro pochta" filialining xalqaro pochta jo'natmalariga ishlov berish sxemasi

Jo'natuvchidan (xududiy pochta almashinuv punkti, xorijiy pochta almashinuv) pochta qoplarida depeshalari bilan qabul qilinadi.

## 2. 3. Pochta aloqasi turlari va ularning tavsifi

Pochta aloqasi tizimi bugungi kunda mamlakat hududlarida xat va pochta jo'natmalari bilan bir qatorda tovarlarni yetkazib berish, bank, moliya va davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha o'z infratuzilmasiga ega bo'lgan muhim soha hisoblanadi. Pochta aloqasi butun dunyoda insonning har kungi hayot tarzining bir qismi hisoblanadi va jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhim rol o'ynaydi. Pochta aloqasining samaradorligini ishlab chiqarishning normal ishlashi va tovarlar hamda

xizmatlarning munosabatlari, shuningdek jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichidagi insonning hayot faoliyati mumkin bo'lmagan sharoitlarga kiradi. Pochta tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molini bog'laydi, ishlab chiqaruvchilar kabi iste'molchilarga xizmat ko'rsatadi, shu bilan birga iqtisodiyotga, boshqaruvga, shuningdek biznesni rivojlantirish va insonlarning turmush tarzini oshirishga faol ta'sir etadi. Pochta aloqasi xizmatlarining bozori transport-logistik xizmatlar (yuk tashish va kuryerlik pochta qismida), axborot-kommunikatsiya (pochta aloqasi xizmatlari yangi axborot-kommunikatsiya: gibril pochta, Internetga kira olish va boshqa xizmatlari bilan integratsiyalanganligi kabi raqobatlanadi va moliyaviy xizmatlar bozori bilan kesishadi. "O'zbekiston pochta" aksiyadorlik jamiyati mamlakatimizning pochta aloqasi milliy operatori sifatida respublika miqyosida 2 mingga yaqin pochta aloqasi obyektiga ega bo'lib, barcha aholi punktlarini qamrab olgan. Shu bilan birga, Milliy operator tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha yetarlicha choralar ko'rilmaganligi oqibatida Umumjahon pochta ittifoqining Pochta rivojlanishi indeksi global reytingida O'zbekiston 93-o'ringa qolmoqda. Ushbu muammoni hal etish yo'llaridan biri pochta aloqasining magistral tarmog'ini optimallashtirish hisoblanadi.

O'zbekistonning viloyat markazi o'rtasida pochta o'tish muddatini qisqartirish respublikaning turli viloyatlarida joylashgan pochta aloqasining istalgan kishilari o'rtasida o'tish vaqtini mos ravishda kamaytirishga avtomatik tarzda keltiradi.

O'zbekistonda pochta aloqasi O'zbekistonning siyosiy va iqtisodiy butunligini ta'minlaydigan omillardan biri bo'lgan fuqarolarning manzilli muloqotining yagona umumqulay mexanizmi sanaladi.

U pochta aloqasi obyektlarining taqsimlangan tarmog'ini, pochta jo'natmalarini qabul qilish, ishlov berish va yetkazib berish, davriy nashrlarni yetkazib berish uchun mo'ljallangan pochta marshrutlarini o'z ichiga oladi.

Mamlakatimiz pochta aloqasining milliy tarmog'i geografik prinsipi bo'yicha "O'zbekiston pochta" aksiyadorlik jamiyati (AJ) tomonidan tashkil qilingan va u "O'zbekiston pochta" AJ

filiallarini o'z ichiga olgan hamda ularni transport vositalari bilan birlashtiradigan yagona tizimni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi pochta aloqasining milliy operatori - "O'zbekiston pochta" AJ qulay narxlarda pochta jo'natmalarining barcha turlari bo'yicha mamlakatlar bilan almashuvni amalga oshiradi va Umumjahon pochta ittifoqi oldida respublikaning majburiyatlarini bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi pochta xizmati o'zining pochta aloqa obyektlarining tarmoqlari va pochta yo'nalishlari orqali, pochta jo'natmalari, kurerlik jo'natmalarini qabul qilish, ishlov berish va ularni yetkazib berish, pul o'tkazmalari xizmati, shuningdek shartnoma asosida pochta xizmatlarini ko'rsatish, davriy matbuot nashrlariga obuna uyushtirish va uning chakana savdosi hamda davriy matbuot nashrlarni obunachilarga yetkazib berish, shuningdek turli xildagi to'lovlarni qabul qilish xizmatlarini ko'rsatadi.

Respublika milliy pochta aloqasi tarmoqlari geografik hududga ko'ra "O'zbekiston pochta" aksiyadorlik jamiyati tomonidan tashkil etilgan. U 14 ta hududiy filiallarni, o'z navbatida filiallar tarkibida tashkil etilgan 165 ta tuman va tumanlararo pochta aloqasi bog'lamlarini, 1660 ta aloqa bo'limlarini, 2 ta ko'chma aloqa bo'limlarini, ixtisoslashtirilgan "Xalqaro pochta", "Xalqaro tezkor pochta", "O'zbekiston markasi" va "Matbuot tarqatish" filiallarini o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, 71 ta horijiy mamlakatlarga avia, respublika ichida 3 ta avia, 7 ta magistral va 286 ta avtomobil pochta yo'nalishlari doimiy ravishda pochta jo'natmalarini va davriy matbuot nashrlarini tashishda xizmat qiladi. Xizmat ko'rsatish hududlarida oddiy xatlarni yig'ib olish uchun jami 2 344 ta pochta qutilari, shundan 1 507 tasi qishloq joylarida o'rnatilgan.

Jamiyat O'zbekiston Respublikasida pochta xizmatining milliy operatori hisoblanib, butun dunyo bo'ylab, barcha turdagi pochta jo'natmalari almashuvini amalga oshiradi va O'zbekiston Respublikasining Umumjahon pochta ittifoqi (UPI) oldidagi majburiyatini bajaradi. Jamiyat pochta aloqasi sohasi bo'yicha xalqaro tashkilotlar va boshqa davlat korxonalarini bilan texnologiya

hamda moliyaviy masalalar yuzasidan muloqat qilish xuquqiga egadir.

Ishlab chiqarishda korxonaning xizmat ko'rsatish darajasi, zamonaviy talablarga javob bera olish, mijozlarni talablarini qondira olish va UPI me'yorlariga asosan pochta jo'natmalariga sifatli ishlov berishni ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi hududida pochta aloqasi sohasini rivojlanishida asosiy yo'nalishlar (omillar) hisoblanadi.

Jamiyat milliy infrastrukturaning muhim tarkibiy qismidan biri hisoblanib, pochta jo'natmalarini (tovarlar) eltib berish xizmatlarini ko'rsatish va korxonalarining korporativ hujjatlarini ayirboshlashdagi ko'rsatayotgan yordami orqali boshqa tarmoqlarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining "Pochta aloqasi to'g'risida"gi 777-O'RQ-son Qonunining 12-moddasiga asosan Pochta aloqasi universal xizmatlari ro'yxati ishlab chiqilgan va 2022 yil 26 sentyabrda Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi bilan kelishilgan hamda tasdiqlangan. Mobil va statsionar aloqa vositalari va boshqalar uchun abonent to'lovlarni qabul qilish, mobil aloqa kompaniyalari uchun dillerlik xizmati (sim kartalar sotish), sug'urta polislarini sotish va boshqa xizmatlar ko'rsatilib kelinmoqda.

"O'zbekiston pochta" AJ "Xalqaro pochta" filiali - xalqaro pochta jo'natmalarini qabul qilish, ishlov berish, jo'natish, topshirish, pochta biriktirilgan marshrutlar bo'yicha tashish, tranzit, chiquvchi va kiruvchi pochta almashuviga ishlov berish, shuningdek foydalanuvchilarga pochta aloqasining xizmatlarini ko'rsatishni amalga oshiruvchi pochta aloqasining ixtisoslashtirilgan obyekti hisoblanadi.

*Pochta aloqasi bog'lamlari* - pochta jo'natmalari, pul mablag'larining pochta o'tkazmalarini jo'natish va yetkazib berish (topshirish), pochtaga biriktirilgan hududlarda ishlov berish va ularning almashuvi bo'yicha o'zaro bog'liq bo'lgan funksiyalar bajarilishini ta'minlaydigan pochta marshrutlarining kesishgan yoki tutashgan punktida joylashgan pochta aloqasining obyekti. Aloqa bog'lamlari tumanlararo, tuman va shahar turlariga ajratiladi.

*Tumanlararo pochta aloqa bog'lamasi* - alohida shahar yoki viloyatning tuman markazlarida (Qoraqalpog'iston Respublikasi) tashkil qilinadi va yonma-yon ma'muriy tumanlarning pochta aloqasi obyektlari o'rtasida pochta tashilishini ta'minlaydi. Pochta aloqasining tuman bog'lamasi va pochta aloqasining shahar bog'lamasi tuman markazlarida va shaharlarda mos ravishda tashkil qilinadi.

*Pochta aloqasi bo'limi (AB)* foydalanuvchilarga pochta aloqasi xizmatlari, xizmatlarning boshqa turlarini ko'rsatadi va pochtaga ishlov berish va pochta almashuvini amalga oshiradi.

*Pochta aloqasi tarmog'i respublikamiz pochtasining muhim afzalliklaridan biridir.* Bugungi kunda filiallarda 6500 dan ortiq kishi ishlaydi, ular har kuni minglab xatlar, pul o'tkazmalari, posilkalarga ishlov beradilar, millionlab obunachilarga gazetalar va jurnallarni yetkazib beradilar.

O'zbekiston Respublikasi Pochta aloqasi milliy operatorining asosiy vazifasi bo'lib turli pochta jo'natmalarini jo'natuvchilardan qabul qilish, ishlov berish, vazifasi bo'yicha jo'natish va yetkazib berish, shuningdek asosiy, qo'shimcha va shartnomaviy xizmatlarni aholiga, korxonalariga va muassasalarga ko'rsatish sanaladi.

Pochta jo'natmalari deb - pochta qoidalariga muvofiq o'rovlangan va rasmiylashtirilgan predmetlar, shuningdek vazifasi bo'yicha jo'natish va adresatga topshirish uchun pochta aloqasi korxonasiga topshirilgan bosma nashrlarga aytiladi.

Pochta jo'natmalari joylanmasi, o'lchamlari, og'irligi va o'rovlash xususiyatiga muvofiq quyidagi turlarga bo'linadi:

- xatlar - qabul qilish, ishlov berish va topshirishga muvofiq oddiy, ro'yxatga olinadigan va qiymati e'lon qilinganlarga bo'linadi;

- pochta varaqchalari - oddiy va ro'yxatga olinadigan bo'linadi;

- banderollar - oddiy, ro'yxatga olinadigan va qiymati e'lon qilinganlarga bo'linadi;

- ko'zi ojizlar uchun jo'natmalar - oddiy va ro'yxatga olinadigan;

- posilkalar - odatdagi va qiymati e'lon qilinganlarga bo'linadi;

- mayda paketlar - oddiy va; ro'yxatga olinadigan
- pul o'tkazmalari - gibril (pochta aloqasi va telekommunikatsiyalar tarmog'i orqali yuboriladigan) va tezkor (telekommunikatsiyalar tarmog'i orqali yuboriladigan - elektron pul o'tkazmalari) bo'ladi.

*Xat-xat jiltida jo'natiladigan yozma xabardir.* Xatda hujjatlar, badiiy ochiq xat, fotorasmlar, chizmalar va boshqalar jo'natilishi mumkin.

*Pochta varaqchasi* - maxsus standart blankida yozilgan yoki bosma ko'rinishdagi yozma xabardir. Ushbu blankda gazetalardan kesib olingan qiyqimlar, rasmlar, foto va boshqalar yopishtirilgan bo'lishi mumkin.

*Banderol* - madaniy-maishiy va ishlab chiqarish vazifali bosma nashrlar, ishga oid qog'ozlar, predmetlari bo'lgan, qabul qilishda tekshirish mumkin bo'lgan qog'oz tasmaga o'ralgan yoki qobiqqa o'rovlangan pochta jo'natmasi.

*Ko'zi ojizlar uchun jo'natmalar* - ochiq ko'rinishda beriladigan, faqat ko'zi ojizlar uchun mo'ljallangan sekografik usul bilan yozilgan yozma xabarlar va nashrlar, sekografiya belgilari bo'lgan klishe, tovush yozuvlari, tiflotexnik vositalar joylangan pochta jo'atmasi.

*Posilka* - sidirg'a (tep-tekis) o'rovga o'ralgan turli tovar-moddiy boyliklar jo'ntiladigan qayd etilgan pochta jo'natmasi.

*Pul o'tkazmasi* - qayd etilgan pochta jo'natmasi bo'lib, u yordamida jo'natuvchi tomonidan aloqa korxonasiga kiritilgan pul summasini jo'natuvchi adresatning to'lashini topshiradi. Pul o'tkazmasini jo'natish usuliga muvofiq gibril va elektronga bo'linadi.

*Oddiy pochta jo'natmalari*, xususan xatlar, pochta varaqchasi va banderollar kvitansiyani bermasdan qabul qilinadi, ilova qilingan Ro'yxatga olinadigan hujjatlarga yozilmasdan jo'natiladi va tilxatsiz adresatga topshiriladi. xatlar, pochta varaqchasi va banderollarni qabul qilishda jo'natuvchiga kvitansiya beriladi, ular oluvchiga imzo qo'ydirilib beriladi, jo'natish jarayonida ilova qilinadigan hujjatlar rasmiylashtiriladi.

Oddiy posilkalar, shuningdek qiymati e'lon qilingan xatlar, banderollar va posilkalar sug'urtali toifalarga kiradi, ular ilova

qilingan hujjatlarda majburiy qayd etiladi, qabul qilishda kvitansiya beriladi, adresatga imzo qo'ydirilib beriladi.

*E'lon qilingan qiymat* - jo'natmaning joylanmasi yo'qolgan yoki shikastlangan holatda jo'natuvchiga yoki adresatga to'lanadigan to'lovning miqdori. Qiymati e'lon qilingan pochta jo'natmasi ustama to'lov bilan qabul qilinishi mumkin, ya'ni topshirishda oluvchidan ustama to'lov summasi olinadi va jo'natuvchi ko'rsatgan manzil bo'yicha jo'natiladi. Qiymati e'lon qilingan xatlar, buyurtmali xatlar va varaqchalar "shaxsan qo'lga topshirilsin" belgisi bilan qabul qilinishi mumkin.

O'zbekiston hududida jo'natish uchun mo'ljallangan pochta jo'natmasi ichki, chet elga jo'natiladigan yoki chet eldan keladiganlari - xalqaro deb nomlanadi.

**Xalqaro pochta jo'natmalariga jo'natmalarining quyidagi turlari kiradi:**

- xatlar (oddiy, ro'yxatga olinadigan, qiymati e'lon qilingan);
- pochta varaqchasi (oddiy, ro'yxatga olinadigan);
- «M» belgili qoplar (oddiy, ro'yxatga olinadigan);
- ko'zi ojizlar uchun jo'natmalar (oddiy ro'yxatga olinadigan,

);

- mayda paketlar (ro'yxatga olinadigan);
- posilkalar (odatdagi, qiymati e'lon qilingan);

Pul mablag'lari xalqaro pochta o'tkazmalarining almashuvi Umumjahon pochta ittifoqi mamlakatlari-a'zolari bilan ular tomonidan tuzilgan bitim asosida amalga oshiriladi.

Xalqaro pochta jo'natmalari va pul mablag'larining pochta o'tkazmalari O'zbekiston Respublikasi hududida ichki pochta jo'natmalari uchun normativ hujjatlar tomonidan belgilangan muddatda jo'natiladi va yetkazib beriladi.

Xalqaro pochta jo'natmalari qonun hujjatlari va Pochta qoidalariga muvofiq bojxona nazoratidan o'tishi va bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazilishi kerak.

Xalqaro pochta jo'natmalari dunyoning butun davlatlaridan yer usti va havo transporti bilan jo'natilishi uchun qabul qilinadi.

Qiymati e'lon qilingan xatlar, mayda paketlar va posilkalarni qabul qilish ruxsat etilgan mamlakatlarga ularni jo'natish uchun qabul qilinadi.

Ushbu mamlakatlar to'g'risidagi ma'lumotlar Umumjahon pochta ittifoqining Xalqaro byuro tomonidan xabardor qilinadi.

Xalqaro pochta jo'natmalari (mayda paketlar, oddiy yoki qiymati e'lon qilingan posilkalar) uchun jo'natuvchi bojxona deklaratsiyasini to'ldiradi, ularning soni har bir davlat uchun alohida belgilanadi.

Pochta aloqasidagi ishlab chiqarish jarayoni pochta jo'natmalarini qabul qilish, ishlov berish va adresatlarga topshirishda bajariladigan ishlab chiqarish operatsiyalarning yig'indisini o'z ichiga oladi. Ushbu operatsiyalar pochta jo'natmalari uchun xilma-xil va turlichadir, biroq ularni bajarish uchun pochta jo'natmasining old tomonida pochta manzili mavjudligi majburiy sharti bo'lib hisoblanadi.

Har bir jo'natma, turidan qat'iy nazar, ba'zi majburiy ishlab chiqarish bosqichlari orqali o'tadi. Ishlab chiqarish jaryonini yettita bosqichga bo'lish mumkin

*Birinchi bosqich* - pochta jo'natmalarini qabul qilishdir. Qabul qilish pochta qutisi orqali va pochta aloqasi obyektlarida amalga oshiriladi. Pochta jo'natmalarini jo'natuvchilari va ularni qabul qiluvchi aloqa xodimlari pochta jo'natmalariga manzil yozish va ularni o'rovlash qoidasiga qat'iy rioya qilishi, shuningdek taqiqlangan predmetlar jo'natilishiga yo'l qo'ymasliklari kerak.

*Ikkinchi bosqich* qabul qilingan pochta jo'natmalariga ishlov berishni o'z ichiga oladi. Ishlov berish bo'yicha operatsiyalar pochta jo'natmalarining ko'chishi kerak bo'lgan yo'nalishini va jo'natishga tayyorlashni aniqlash uchun maqsad qilib qo'yilgan. Asosiy operatsiyalardan biri pochta jo'natmalarini yo'nalishlar bo'yicha guruhlash uchun manzil asosida amalga oshiriladigan saralash hisoblanadi.

*Uchinchi bosqich* - belgilanishi bo'yicha jo'natishdir. Ushbu bos-qichning asosiy elementlari pochta va ilova qilingan hujjatlar rasmiylashtirilishi va ishlov berilishining to'g'riligini tekshirish, pochmani kuzatuvchi xodimlarga topshirilishi, pochta almashuv joyigacha yoki pochmani jo'natuvchi va pochta almashuvini amalga oshiruvchi aloqa korxonasigacha tashish hisoblanadi.

*To'rtinchi bosqich* - pochmani belgilangan joyga tashish va zarur bo'lganda yo'lda unga ishlov berish jarayonidir.

*Beshinchi bosqich* - pochta jo'natmalarini belgilangan joylarda olishni o'z ichiga oladi. Kiruvchi pochta olishda asosiy operatsiyalar bo'lib kiruvchi pochta olishda asosiy ilova qilingan hujjatlar bilan solishtirish, shuningdek o'rovlarining butligini tekshirish hisoblanadi.

*Oltinchi bosqich* - pochta jo'natmalariga belgilangan joydagi aloqa korxonalarida ishlov berishdir. Korxonada kiruvchi pochtaga ishlov berish jarayoni kuzatuvchi xodimlardan ularni qabul qilishdan boshlanadi, bunda ularni hujjatlar bo'yicha tekshiriladi va o'rovning butligi aniqlanadi. Pochta jo'natmalarini topshirish korxonalar bo'yicha saralash amalga oshiriladi.

*Oxirgi yettinchi bosqich* - jo'natmalarni adresatlarga topshirishdir. Pochta jo'natmalarini adresatlarning uyiga va muassasalarga yetkazib beriladi yoki adresatlar xat-xabarlarini olish uchun keladigan aloqa korxonalarida beriladi.

### 2. 4. Pochta marshrutlari

Pochta marshrutlari magistral, viloyat ichidagi, tuman ichidagi, shahar, avtomobil yo'llari marshrutlariga bo'linadi.


Viloyatlararo tashishni ta'minlaydigan transport tarmog'ining uchastkalarini magistral deb nomlanishi qabul qilingan. Viloyat ichidagi yoki tumanlararo pochta marshrutlari bir viloyatning viloyat va tuman markazlarini bog'laydi. Tuman ichidagi marshrutlar tuman markazini aloqa bo'limlari yoki bir tumanning barcha aloqa bo'limlari bilan bog'laydi.

Shahar marshrutlari o'zaro pochta aloqasining shahar korxonalarini pochta aloqasining bog'lama va bo'limlari bilan bog'laydi, shuningdek yetkazib berish uchastkalariga xizmat ko'rsatadi. Kirish yo'lka marshrutlari pochta aloqasi korxonalarini pochta almashuvi amalga oshiradigan aeroport bilan bog'laydi.


Pochta marshrutlari tuzilish shakliga ko'ra, radial, halqali va aralash marshrutlarga bo'linadi

**Radial marshrutlar** - to'g'ri yoki egri chiziq, lekin berk bo'lmagan chiziq bo'yicha harakatlanadigan transport marshrutidir.

Xuddi shunday marshrutlarda pochta jo'natmalari o'tishining eng katta tezligiga erishiladi, chunki pochta to'g'ri yo'nalishlar kabi teskari yo'nalishlarda transport harakatidagi marshrutda almashadi (2. 2-rasm).




2. 2- rasm Radial transport marshruti



2. 3-rasm. Halqali marshrut

Aralash pochta marshrutlari radial va halqali marshrutlarning birikishidan iborat, ularni radial-halqali marshrutlar ham deyiladi. (2. 4- rasm)



2. 4- rasm Aralash pochta marshruti



Transportning harakatlanishi bunday marshrutlarning bir uchastkalarida radius bo'yicha, boshqasida halqa bo'yicha amalga oshiriladi (2. 4-rasm).

Pochta marshrutlarining tuzilish tizimini tanlashda qatnov yo'llarining xususiyati, pochta jo'natmalarining tezlik bilan harakatlanishiga erishish, transportdan samarali foydalanish va pul mablag'larini oqilona sarflash hisobga olinadi.

Pochta marshrutlarida transport turlicha-to'g'ridan-to'g'ri, qarshi va estafeta harakatlanishi tashkil qilinadi.

To'g'ridan-to'g'ri harakatlanish yo'lda transportni almashtirmasdan marshrutning boshlang'ich punktidan oxirgi punktigacha amalga oshiriladi. Bunday harakatlanish pochta jo'natmalarining maksimal tezligini ta'minlaydi, chunki yo'lda pochta har-xil yuklanishlarining oldi olinadi.

Transportning to'g'ridan-to'g'ri harakatlanishi, odatda, avtomobil transporti bir tomon yo'nalishi bo'yicha yo'lda bo'lish vaqti 10-12 soatdan oshmaydigan masofadagi marshrutlarga belgilanadi.

Transport qarshi harakatlanishda yo'nalishning boshlang'ich va oxirgi punktlaridan bir-biriga qarab yoki marshrutda joylashgan boshlang'ich punktdan va oraliq aloqa bo'limidan yo'nalishda jo'natiladi.

Bunday harakatlanishda yo'nalishning boshlang'ich va oxirgi punktlaridan transportni jo'natish muddati pochta oraliq almashuv punktiga kelib, kechiktirmay jo'natilishi hisobga olinishi bilan kelishilgan bo'lishi kerak. Qarshi harakatlanish, asosan, katta masofadagi marshrutlarda tashkil qilinadi.

*Estafeta harakatlanishi* boshlang'ich punktdan transport marshrutning oxirigacha emas, balki pochta transportning boshqa turlariga yuklanadigan oraliq punktlarning birigacha harakatlanadi.

Pochta marshrutlari bo'yicha pochta aloqasi korxonasining idoraviy transporti bilan pochta tashiladi.

Pochtani tashish uchun transportni tanlashda transportning tezlik normativlari va foydalanishdagi tejamkorligi hisobga olinadi.

Avtomobil tipini tanlash uchun dastlabki ma'lumotlar bo'lib pochtaning soni, avtotransportdan foydalanish shartlari, xususan - yo'l qoplamalari, almashuv soni - to'xtashlar, meteo sharoitlar, shuningdek foydalanilayotgan avtomobil tiplari sanaladi.

Pochta jo'natmalarini turli transportda tashishda transport vositalarining harakatlanish jadvali qat'iy kelishilishi talab qilinadi. Bunda asos qilib magistral transportning harakatlanish jadvali qabul qilinadi, unga boshqa marshrutlar bo'yicha transport vositalarining harakatlanish jadvali muvofiqlashtiriladi.

*Pochtali transportning harakatlanish* jadvalini ishlab chiqishda transportning asosiy turi almashuv punktlari orqali o'tish vaqti, pochta almashuv davriyligining normativlari, pochta jo'natmalari pochta aloqasi korxonalarida ishlov berishning belgilangan nazorat muddatlari, transport vositalari harakatlanishining belgilangan tezligi va pochta jo'natmalarining ayrim marshrutlardagi oqimi hisobga olinishi kerak.

Pochtali transportning pochta yo'nalishlari bo'yicha harakatlanish davriyligi pochta almashuvi, uni tashish, yetkazib berish, xat-xabarlarni pochta qutisidan olish davriyligining normativlari, pochta jo'natmalari va davriy nashrlarga ishlov berish va yetkazib berishning asosiy nazorat muddatlariga muvofiq belgilanadi.

#### *Pochta tashishni tashkil qilish*

Transport jarayonlari pochta aloqasining butun ishlab chiqarish jarayonining asosiy va ajralmas qismi hisoblanadi.

Pochta transporti aloqa korxonalarining butun shaxoblangan tarmog'ini yagona tizimga bog'laydi. U pochta aloqasining asosiy vazifasi - pochta jo'natmalarini jo'natuvchidan adresatgacha aniq, uzluksiz va o'z vaqtida jo'natilishini, demakki, aholi, davlat boshqaruvi organlari va iqtisodiyot sohaslariga yuqori sifatli xizmat ko'rsatishni bajarishda hal qiluvchi bo'g'in hisoblanadi. Bizning mamlakatimizda pochta aloqalari tizimi barcha turdagi transportdan foydalanish asosida quriladi.

Pochta aloqasi obyektlari pochta jo'natmalari va pul mablag'larini tashish uchun ularga tegishli bo'lgan transport, avtomobillar, shuningdek shartnoma asosida yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan transportdan foydalanadilar. Pochta

jo'natmalari va pul mablag'larini tashish uchun foydalaniladigan pochta aloqasi obyektlarining transport vositalari qonun hujjatlariga muvofiq maxsus farqlash belgilariga ega bo'lishlari mumkin.

Pochta jo'natmalari va pul mablag'larini tashish uchun foydalaniladigan pochta aloqasi obyektlarining transport vositalaridan ularning roziligisiz foydalanilishi va boshqa ishlarni bajarish uchun olinishi mumkin emas.

Pochta aloqalari tizimida magistral, viloyatichi, tumanichi va shahar marshrutlari bo'yicha pochtni tashish uchun foydalaniladigan avtomobil transporti muhim o'rin egallaydi. Yozma xat-xabarlar va matbuot nashrlarining tezroq o'tishi maqsadida aviatsiya transportidan foydalaniladi. Xalqaro aviapochta tashishlari ancha rivojlanyapti. Ko'p mamlakatlar bilan aviapochta aloqalari o'rnatilgan.

Muntazam shaharlararo va xalqaro passajir hamda yuk tashishni bajaradigan havo va avtomobil transportining xo'jalik yurituvchi subyektlari pochta jo'natmalari va pul mablag'larini tashish uchun shartnomalar tuzishda pochta aloqasi obyektlariga rad javobini berishga haqli emaslar.

Pochta jo'natmalari va pul mablag'larini tashish uchun foydalaniladigan pochta aloqasi obyektlarining transport vositalari shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va boshqa aholi yashaydigan punktlarning ko'chalari bo'ylab, avtomobil yo'llariga va pochta aloqasi obyektlariga, avtomobil, temir yo'l vokzallari va aeroportlar qoshida joylashgan yuk (bagaj) komplekslariga hech qanday qarshiliksiz o'tish huquqiga egadir.

## 2.5. Pochta aloqasining yagona transport sxemasini qurish ta'moyillari

O'zbekistonda pochta aloqalarini rivojlantirish ularni tashkil etishning to'g'ri metodlarini ishlab chiqish va barcha turdagi transportdan eng samarali foydalanishni talab etadi. Pochta aloqasining yagona transport sxemasini qurish asosida quyidagi prinsiplar bo'lishi kerak:

-yozma xat-xabarlar o'tishi, ishlov berilishi va yetkazib berishning nazorat muddatlarini bajarish;

-aloqaga amal qilishining barqarorligi va doimiyligini ta'minlash;

-pochta jo'natmalarini tashish uchun transportning barcha turlaridan kompleks foydalanish;

-pochta aloqalarining tejamkorligi.

Pochta aloqalarini jo'natishni tashkil qilishga almashuv nazruzkasi va oqimlari katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun joylarda tizimli ravishda o'tkaziladigan almashuv oqimlarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Magistral aloqa yo'llari bo'yicha oqimlar "O'zbekiston pochta" aksiyadorlik jamiyati tomonidan o'rganiladi va umumlashtiriladi. Pochta yuklamasi va oqimlarini o'rganish qanday transport vositalaridan foydalanish kerakligi, pochta harakatini tezkor tartibga solish, pochta oqimlarining tezroq o'tishi maqsadida ularni yo'naltirish zarur bo'lgan yo'llarni aniqlash imkonini beradi.

Bu asosiy talablarni bajarishga pochta yo'nalishining optimal viloyat va batafsil rejalarini tuzish, pochta marshrutlarini ratsional qurish, transport vositalarining barcha turlaridan foydalanish, pochta transporti harakatining grafiklari va jadvallarini ishlab chiqish yo'li bilan erishiladi.

Pochta jo'natmalarining tezroq o'tishi maqsadida pochta yo'nalishlari rejaları tuziladi, ular pochta jo'natmalari turlarini O'zbekistonning istalgan aholi yashaydigan punktidan mamlakatimizning istalgan aholi yashaydigan punktiga va chet elga o'tish tartibini belgilaydi. Ularda pochta aloqasi obyektidan qaysi bog'lamalar va qanday transport orqali pochta yo'nalishi kerakligi ko'rsatiladi, ular pochta aloqasi obyektlarining ishini muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Yo'nalish rejasi barcha turdagi pochtaning o'tish yo'llarini belgilaydigan asosiy hujjat hisoblanadi. Bu rejalar yordamida qatnov yo'llari va transport vositalaridan kombinatsiyalangan va eng ratsional foydalanishga erishiladi. Yo'nalish rejalarini tuzishda pochtni qayta yuklash punktlarida transportning kelish va jo'nash vaqtining muvofiq kelishi hisobga olinadi.

Pochta yo'nalishi rejalarini tuzish uchun asosiy qo'llanmalar bo'lib, pochta tashiladigan, samolyotlar harakatining sxemasi va

jadvali hisoblanadi. Pochta yo'nalishi rejalari viloyat va batafsil rejalarga bo'linadi.

Viloyat rejalari pochta aloqasi viloyat bog'lamalaridan pochta yo'nalishi tartibini belgilaydi. Pochta yo'nalishining viloyat rejalari ishlab chiqishda quyidagilar hisobga olinadi:

- har bir magistral bo'yicha avtomobillar soni;
- transportning tashish qobiliyati, boshlang'ich va oraliq punktlarda ularni bosma nashrlar va yozma xat-xabarlar bilan yuklash;
- pochtamtlar va PTBlarning o'tkazish qobiliyati;
- posilkalar va sug'urta pochta yo'nalishining rejalashtirilayotgan oqimi.

Pochta yo'nalishining batafsil rejalari. Pochta yo'nalishining batafsil rejalari barcha pochтамtlar uchun, avtomobillar, samolyotlar bilan bevosita pochta almashuvini amalga oshiradigan barcha pochta aloqasi obyektlari uchun ishlab chiqiladi.

Pochta yo'nalishining batafsil rejalari yer usti transporti kabi, havo transporti orqali jo'natiladigan pochta jo'natmalarining har bir turi: yozma xat-xabarlar, bosma nashrlar, posilkalar, sug'urtali va xalqaro pochta uchun alohida tuziladi.

Yo'nalishlar rejalari tuzish uchun asos bo'lib, O'zbekiston marshrutlarining raqamlarini ko'rsatgan holda respublika viloyatlari ro'yxati mamlakat avialiniyalari sxemasi xizmat qiladi.

Yozma xat-xabarlar yo'nalishining asosiy prinsipi uning tezroq o'tishini ta'minlaydigan jo'natish yo'llarini tanlash hisoblanadi.

Posilkalarni jo'natishda ularga ishlov berish uchun katta maydonlar va ko'p mehnat sarflari, tashish uchun esa - transportning yetarlicha tashish qobiliyati talab etilishidan kelib chiqiladi. Shuning uchun posilkalarni yo'naltirishda yo'lda o'ta yuklanmaslikka harakat qiladilar.

Hozirgi vaqtda pochta aloqasini yozma xat-xabarlar yo'nalishining optimal rejalari tuzish imkonini beradigan maxsus dasturiy ta'minotlari ishlab chiqilgan.

Harakatni tashkil etishning eng muhim elementlaridan biri pochta marshrutlarini pasportlashtirish hisoblanadi.

Har bir marshrut uchun pasport tuziladi, unda yo'lning ahvoli, marshrutning amal qilish vaqti, uzunligi, harakatlanish

chastotasi va marshrutga qaysi turdagi transport xizmat ko'rsatayotganligi ko'rsatiladi. Pasport ma'lumotlari tashishlar hajmini bosib o'tilgan yo'l kilometrlarida aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Transport vositalari ishlashining tartibi, pochta kelishi va jo'natilishi muddatlari harakatlanish grafiklari va jadvallari bilan belgilanadi. Grafiklar aloqa korxonalarini va pochta transportining ishini o'zaro bog'lash imkonini beradi, bu pochta jo'natmalarining tezroq o'tishini ta'minlashning hal qiluvchi omili hisoblanadi. Ular tashqi transportning kelishi va jo'natilishi jadvali, pochta jo'natmalariga ishlov berish va harakatining nazorat muddatlari, transport vositalari harakatining va pochta almashuvi uchun belgilangan vaqt tezligi asosida quriladi.

Pochta jo'natmalarini transportning har xil turlari orqali tashishda transport vositalari harakati jadvalining qat'iy kelishilganligi talab etiladi. Bunda transport vositalarining viloyatichi, tumanichi, shahar va shoxobcha pochta marshrutlari bo'yicha transport vositalari harakatining jadvali to'g'rilanadigan magistral transporti (havo, avtomobil)ning harakati jadvali asos qilib olinadi.

O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq (21-modda) muntazam shaharlararo va xalqaro passajir hamda yuk tashishlarni bajaradigan havo va avtomobil transportining xo'jalik yurituvchi subyektlari pochta jo'natmalarini tashish uchun shartnomalar tuzishda pochta aloqasining operatorlariga rad javobini berishga haqli emas.

Pochtali transport harakati jadvalini ishlab chiqishda quyidagi omillarni hisobga olish zarur:

- transport asosiy turi (havo, avtomobil)ning almashuv punktlari orqali o'tish vaqti;
- almashuv punktlari orqali va pochta tashishning o'tish normativlari,
- pochta aloqasi obyektlarida pochta jo'natmalariga ishlov berishning nazorat muddatlari;
- transport vositalari harakatining belgilangan tezliklari;
- alohida marshrutlarda yig'ilgan pochta jo'natmalari oqimlari;
- pochta marshrutlari bo'yicha pochta yuklangan transport

harakatining chastotasi.

O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan tasdiqlangan almashuv, tashish, pochta yetkazib berish, yozma xat-xabarlarni pochta qutisidan olish chastotasi normativlari, pochta jo'natmalari va davriy matbuotga ishlov berish va ularni yetkazib berishning asosiy nazorat muddatlariga muvofiq belgilanadi.

## 2. 6. Pochta aloqasi xizmatlarini tashkil etishda transport vositalarining roli.

O'zbekiston Respublikasi pochta aloqasi milliy operatorining ishlab chiqarish faoliyatini xarakterlaydigan asosiy ko'rsatkichlaridan biri pochta almashuvi - aniq vaqt davomida belgilanishi bo'yicha qabul qilingan, ishlov berilgan va uzatilgan pochta jo'natmalari soni hisoblanadi. Pochta almashuvi kiruvchi, chiquvchi va tranzitga bo'linadi.

Chiquvchi pochta almashuvi pochta aloqasi xizmatlarining foydalanuvchisidan belgilanishi bo'yicha jo'natish uchun qabul qilingan pochta jo'natmalarini o'z ichiga oladi. Ular mahalliy va shaharlararo turlariga bo'linadi. Mahalliy pochta jo'natmalari bir shahar, tuman markazi yoki shahar tipidagi shaharcha hududining chegarasida, qishloq joylarda bir pochta aloqasi obyekti tomonidan xizmat ko'rsatiladigan hudud chegarasida jo'natiladi va yetkazib beriladi; shaharlararo - ko'rsatilgan hududlardan tashqariga jo'natiladi va yetkazib beriladi.

Kiruvchi pochta almashuvi adresatlarga topshirish uchun pochta aloqasi obyektiga kelib tushadigan pochta jo'natmalaridan iborat. Tranzit pochta almashuvi belgilanishi bo'yicha ishlov berish va keyinchalik pochta aloqasi obyektiga boshqa obyektlardan kelib tushadigan pochta jo'natmalaridan iborat. Pochta almashuvining har bir turi pochta oqimi - aniq yo'nalish bo'yicha yo'llanadigan bir turdagi pochta jo'natmalarining sonini belgilaydi.

Pochta oqimi chiquvchi, kiruvchi va tranzit pochta jo'natmalariga bo'linadi. Pochta oqimlari pochta aloqasi tizimining radial-uzelli tuzilmasiga muvofiq magistral, viloyat ichidagi, tuman

ichidagi va shaharga bo'linadi. Pochta oqimlarining tuzilmasi, xususiyati va miqdoriy tavsifi shahar, tuman, viloyatda va butun mamlakatda pochta aloqasi tizimining ratsional tuzilishi uchun birinchi darajali qiymatga ega.

O'zbekiston Respublikasi pochta aloqasining milliy operatori faoliyatining muhim ko'rsatkichlaridan yana biri xizmat ko'rsatish sifati hisoblanadi. U pochta tarmoqlari, bog'lamalar va aloqa bo'limlari kiradigan pochta aloqasi punktlari, almashuv punktlari, pochta qutisining zichligi; xizmat ko'rsatish hududining radiusi va bir aloqa punkti tomonidan xizmat ko'rsatiladigan aholi soni; aholi, korxonalar, muassasa va tashkilotlar uchun ish rejimining qulayligi; pochta jo'natmalariga ishlov berish, ularni jo'natish va adresatlarga yetkazib berish uchun sarflangan vaqt kabi ko'rsatkichlari bilan xarakterlanadi.

Bugungi kunda pochta jo'natmalarni tashishda pochta jo'natmalarini manzilga yetkazib berishda, pochta aloqasi tizimida marshrutlari bo'yicha pochta aloqasi korxonasining idoraviy transporti bilan pochta tashiladi.

Avtomobil turini tanlash uchun dastlabki ma'lumotlar bo'lib pochta aloqasi soni, avtotransportdan foydalanish shartlari, xususan - yo'l qoplamalari, almashuv soni - to'xtashlar, ob-havo sharoitlari, shuningdek foydalanilayotgan avtomobil tiplari sanaladi.

Pochta jo'natmalarini turli transportda tashishda transport vositalarining harakatlanish jadvali qat'iy kelishilishi talab qilinadi. Bunda asos qilib magistral transportning harakatlanish jadvali qabul qilinadi, unga boshqa marshrutlar bo'yicha transport vositalarining harakatlanish jadvali muvofiqlashtiriladi.

Pochtali transportning harakatlanish jadvalini ishlab chiqishda transportning asosiy turi almashuv punktlari orqali o'tish vaqti, pochta almashuv davriyligining normativlari, pochta jo'natmalari pochta aloqasi korxonalarida ishlov berishning belgilangan nazorat muddatlari, transport vositalari harakatlanishining belgilangan tezligi va pochta jo'natmalarining ayrim marshrutlardagi oqimi hisobga olinishi kerak.

Pochtali transportning pochta yo'nalishlari bo'yicha harakatlanish davriyligi pochta almashuvi, uni tashish, yetkazib berish, xat-xabarlarni pochta qutisidan olish davriyligining

normativlari, pochta jo'natmalari va davriy nashrlarga ishlov berish va yetkazib berishning asosiy nazorat muddatlariga muvofiq belgilanadi.

Ummijahon pochta ittifoqi ma'muriyatlari uchun pochta jo'natmalariga xavfsiz, tez va ishonchli ishlov berish va ularni tashish eng muhim xizmat bo'lib hisoblanadi. Butun dunyoda katta hajmdagi pochta jo'natmalari va pul mablag'larining uzatilishi tufayli ularni o'g'irlash, talon-taroj qilish va yo'q qilish oshkora va son-sanoqsiz tahdidlari mavjud.

Pochta jo'natmalarini ko'chirish, saqlash va tashish tegishli e'tibor, kuzatuv va qo'riqlashni talab qiladi.

Pochtani kuzatish va qo'riqlash pochta jo'natmalarini berkitish, pochtani qabul qilish va topshirish, uni tashish va qo'riqlash tartibiga qo'yiladigan talablarni yaxshi biladigan, maxsus ajratilgan aloqa xodimlari (kuzatuvchi) tomonidan amalga oshiriladi.

Pochtani tashish uchun mo'ljallangan transport vositalariga qo'yiladigan talablar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- pochta va kuryerlik jo'natmalarini saqlash uchun marshrut va tranzit omborxonalar bilan jihozlanganligi;
- omborxonalarining tashqi eshiklari ichkaridan yopilishi va ishonchli berkitiladigan qulfga ega bo'lishi;
- omborxonalarining ichki eshiklari kalit bilan qulflanishi va plombalash uchun moslamaga ega bo'lishi;
- saralash xonasi hujjatlar va ekspluatatsion materiallarni saqlash uchun metall javonlar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Javonlar ishonchli berkitiladigan qulflarga, muhrlash yoki plombalash uchun moslamalarga ega bo'lishi.

Kuzov-furgon tipdagi avtomobilning kuzovi to'liq yopilgan, mustahkam bo'lishi, tegishli shamollatish, yorug'lik tizimi bilan jihozlangan bo'lishi, shuningdek tirgishlarga ega bo'lmasligi kerak.

Ushbu pochta transportlarida pochta jo'natmalari jo'natiladi va qabul qilinadi. Pochta transportlarida quyidagi pochta jo'natmalari jo'natiladi:

- a) xatlar (oddiy, ro'yhatga olinadigan, qiymati e'lon qilingan);
- b) pochta varaqchalari (oddiy, ro'yxatga olinadigan);
- v) banderollar (oddiy, ro'yxatga olinadigan, qiymati e'lon qilingan);

g) ko'zi ojizlar uchun jo'natmalar (oddiy, ro'yxatga olinadigan);

d) posilkalar (odatdagi, qiymati e'lon qilingan);

y) mayda paketlar (oddiy, ro'yxatga olinadigan);

Bugun nafaqat "O'zbekiston pochta" AJ balki dunyoning rivojlangan davlatlarida pochta jo'natmalarini manzilga yetkazib berishda har tomonlama qulay arzon xavfsiz transport vositalaridan foydalanilmoqda. Shunga ko'ra pochta jo'natmalarini tashishni tashkil etish va rivojlantirishda yangi transport vositalaridan foydalanilmoqda va bundan ko'zlangan asosiy maqsad pochta jo'natmalarini qisqa muddat ichida belgilangan manzilga yetkazib berishdan iborat.

Pochta jo'natmalarini tashishni optimal tashkil etish orqali quyidagilarga erishish mumkin:

- xizmat ko'rsatishda vaqtdan yutish.
- ortiqcha sarf xarajatga yo'l qo'ymaslik.
- inson resruslaridan oqilona foydalanish.
- xizmat ko'rsatish hudud qamrovini kengaytirish va h. k.

## 2. 7. Transport harakatini nazorat qilish

Marshrutning boshlang'ich oraliq va oxirgi punktlari pochta aloqasi hududiy tashkilotlari va obyektlari (pochta aloqasi bog'lamalari, pochtamtlar)ning maxsus ajratilgan xodimlari pochta yuklangan transport harakatining belgilangan jadvali qat'iy bajarilishining doimiy nazoratini amalga oshirishlari kerak.

Pochta yuklangan transport jadvalda belgilangan vaqtda kelmagan holda pochta aloqasi hududiy tashkiloti yoki obyektining maxsus ajratilgan xodimi darhol telefon orqali marshrut bo'yicha qo'shni bo'lgan pochta aloqasi obyektidan pochta yuklangan transportning jo'nagan vaqti to'g'risida so'rashi va ayni vaqtda bo'ysunganlik bo'yicha rahbarga darhol yetkazishi kerak.

Agar pochta yuklangan transport jadvalga muvofiq tayinlangan joyiga jo'natilgan bo'lsa, jo'natish va qabul qilish punktlari pochta aloqasi hududiy tashkiloti yoki obyektining rahbari ushlanib qolish sabablarini aniqlashtirish va pochtaning tezroq o'tishi uchun amaliy yordam zarur bo'lgan hollarda choralar ko'radi.

Agar pochta yuklangan transport jadvalda belgilangan vaqtga nisbatan kechikib kelgan bo'lsa, bu haqda pochta tashishlari bo'yicha 24-shakldagi marshrut yukxatida qayd etiladi. Pochta keladigan transport buzilganda, oraliq pochta aloqasi obyektining rahbari pochtaning saqlanishi va marshrut bo'yicha yana jo'natilishini ta'minlash choralarini ko'rish va ko'rilgan choralar to'g'risida telefon orqali boshlang'ich punkt pochta aloqasi obyektining rahbariga xabar qilishi kerak.

Marshrutning boshlang'ich punkti pochta aloqasi objekti, Xalqaro pochtaamtning maxsus ajratilgan xodimi pochta tashishlari uchun 24-shakldagi marshrut yukxatlarini ko'rish bilan pochta yuklangan transport harakati jadvalining bajarilishi har kuni nazorat qilishi va barcha qoidabuzarliklar to'g'risida choralar ko'rilishi uchun pochta aloqasi objekti, Xalqaro pochtaamtning rahbariga darhol xabar berishi kerak.

Jadvalda ko'zda tutilgan magistral pochta marshruti bo'yicha pochta jo'natilmaganda tegishli pochta aloqasining hududiy tashkiloti va "O'zbekiston pochta" AJga darhol habar yuboriladi. Tumanlararo va tumanichi pochta marshrutlari bo'yicha pochta jo'natilmaganda bo'ysunganlik bo'yicha hududiy pochta aloqasi tashkilotiga xabar yuboriladi. Xabarda marshrutlarning nomlari, ulardagi pochta aloqasi obyektlarining soni, jo'natilmaganlik sanasi va sababi, ko'rilgan choralar ko'rsatiladi.

Jadvalda ko'zda tutilgan pochta transportining jo'natilmaganligi yoki ancha ushlanib qolganligi to'g'risida (telefon) orqali u bilan pochta almashuvini amalga oshiradigan barcha pochta aloqasi obyektlariga xabar qilinadi.

Xabarda marshrut sanasi, nomi, pochtaning jo'natilmaganligi sababi va uning o'tishini ta'minlash uchun qanday choralar ko'rilganligi ko'rsatiladi.

**Avtomobil transportida pochta tashishni tashkil qilish va rejalashtirish.** Avtomobil transporti pochta transportining asosiy turi bo'lib hisoblanadi va shahar ichi, tumanichi, viloyatichi va magistral marshrutlarda foydalaniladi.

Pochta aloqasi avtomobil transportini ekspluatatsiya qilishning xususiyati bo'lib, aloqa korxonalarini uchun qulay bo'lgan istalgan vaqtda uni jo'natish imkoniyati, shuningdek aloqa

korxonalarini bilan bevosita almashuv, bu pochta qayta yuklashning qo'shimcha bosqichlarini chetlab o'tish imkonini beradi. Shuningdek, harakatlanish tarkibining yuqori harakatchanligi, yuk ko'tarish bo'yicha avtomashinalar turlarining har xilligi, mashinalar kuzovlarining pochta tashishlari talablariga moslashishi, nisbatan yuqori tezlikni avtomobil transportining afzalliklariga kiritish mumkin.

Pochtani tashish aloqa korxonalarini tomonidan tuziladigan harakatning tasdiqlangan marshrutlari va grafiklari bo'yicha amalga oshiriladi.

Pochtani tashish uchun avtomobil transportidan ratsional foydalanish ko'p hollarda avtomobil turini to'g'ri tanlay olishga, ya'ni uning ekspluatatsiya qilish sharoitlariga muvofiqligiga bog'liq.

Avtomobillar turlarini tanlashda tashishlar xarakteri (shahar, viloyatichi, tumanichi va boshqa marshrutlar), yuklanish hajmi, yo'llarning ahvoli, tashilayotgan pochta jo'natmalarining saqlanishini ta'minlash hisobga olinishi kerak. Pochta yopiq va qulflanadigan kuzovli, boyliklar uchun qulflanadigan sandiqlar bilan jihozlangan avtomashinalarda tashiladi.

## **2. 8. Havo transporti orqali pochta tashishni tashkil qilish**

Pochta aloqasining asosiy vazifasi – pochta jo'natmalarining o'tishini maksimal darajada tezlashtirish bilan bog'liq holda pochta, ayniqsa, gazetalar va yozma xat-xabarlarni tashish uchun aviamentdan foydalanish masalasi istiqbolli hisoblanadi.

To'lovidan qat'iy nazar, yozma xat-xabarlarni tashish uchun yer usti transporti orqali jo'natishga nisbatan uning o'tishini bir kecha-kunduz va ortiq vaqtga tezlashtirish va belgilangan joylarga yetkazib berish sharti bilan havo transportidan foydalaniladi.

Aviakorxonalar va pochta aloqasi obyektlarining pochta tashishdagi huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Pochta aloqasi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining

pochtasini havo liniyalari bo'ylab tashish qoidalari, pochta qoidalari va tuzilayotgan shartnomalar bilan belgilanadi.

"O'zbekiston havo yo'llari" Milliy aviakompaniya tomonidan pochta tashish Xalqaro pochta (pochta aloqasining hududiy tashkilotlari) va Milliy aviakompaniya va uning tarkibiy bo'linmalari o'rtasidagi uzoq muddatli shartnomalar, shuningdek amaldagi uzoq muddatli shartnomalarga qo'shimchalar ko'rinishida rasmiylashtiriladigan bir marotabali talabnomalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Pochtani tashish uchun shartnomalarni tuzishda har bir aeroport bo'yicha har chorakka bo'lib chiqqan holda bir yil uchun prognoz qilinadigan tashish hajmlarini hisobga olish kerak. Respublika ichidagi liniyalarda pochta yuklashning kelishilgan normalari belgilanishi mumkin.

Aviakompaniya shartnomalarga muvofiq tashish uchun qabul qilingan pochta shartnomalarda ko'rsatib o'tilgan muddatlarda jo'natilishini kafolatlashi kerak.

Aeroport hududida joylashgan pochta aloqasi obyektidan pochta olib kelish va uni havo kemalariga yuklash, shuningdek pochta havo kemalaridan tushirish, pochta aloqasi obyektlariga tashish aeroport kuchlari va vositalari yordamida amalga oshiriladi. Pochta aloqasi obyekti mavjud bo'lmagan aeroportlarda pochta havo kemalariga aeroportlar kuchlari va vositalari bilan yuklanadi va tushiriladi, aeroportlardan pochta aloqasi obyektlarigacha (aeroportlardan tashqarida) shu pochta aloqasi obyektlarining kuchlari va vositalari yordamida tashiladi. Pochtani yetkazib berish va qabul qilish muddatlari Xalqaro pochta yoki pochta aloqasining hududiy tashkilotlari hamda aviakompaniya yoki aeroport o'rtasida tuziladigan shartnomalarda belgilanadi.

### Nazorat savollari

1. Pochta aloqasida texnologik jarayonlarining o'zisha xos xususiyatlari nimalardan iborat.
2. "O'zbekiston pochta" AJ da nechta ixtisoslashgan filiallar bor va ularning vazifalari nimalardan iborat.
3. Turli mamlakatlarda pochta aloqasi korxonalarini iqtisodiy ko'rsatkichlari qanday belgilanadi.

4. "O'zbekiston pochta" AJga xorijiy pochta kompaniyalari faoliyatida yo'lga qo'yilgan qanday xizmat turlarini kiritish mumkin.

5. Pochtali transportning pochta yo'nalishlari bo'yicha harakatlanish davriylik normativlari qanday belgilanadi?

6. Pochtani tashish uchun transportni tanlashda transportning tezlik normativlari va foydalanishda nimalarga e'tibor qaratiladi?

7. Aralash pochta marshrutlari deb qanday marshrutlarga aytiladi?

8. Transport tarmoqlarining asosiy vazifasi nimalardan iborat?

9. Estafeta harakatlanishi deb qanday pochta marshrutiga aytiladi?

10. Transport jarayonlarining pochta aloqasida qanday muxim vazifani bajaradi?

11. Pochta aloqalari tizimida magistral, viloyatichi, tumanichi va shahar marshrutlari bo'yicha pochta tashishda qanday transport turidan foydalaniladi?

12. Pochta aloqasining yagona transport sxemasini qurish prinsiplarini keltiring?

13. Yo'nalishlar rejalarini tuzish uchun nima asos bo'la oladi?

14. Pochta marshrutlarini pasportlashtirish nima uchun zarur?

15. Pochtani yetkazib berish va qabul qilish muddatlari qanday belgilanadi.

16. Pochta aloqasining asosiy vazifasi bu-

17. Pochtani tashish aloqa korxonasi tomonidan qanday amalga oshiriladi.

18. Agar pochta yuklangan transport jadvalda belgilangan vaqtga nisbatan kechikib kelgan bo'lsa, qanday tartibda pochta jo'natmalari qabul qilinadi?

19. Aviakorxonalar va pochta aloqasi obyektlarining pochta tashishdagi huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi kim tomonidan belgilanadi?

20. Chiquvchi pochta almashuvi pochta aloqasi xizmatlarining foydalanuvchisidan belgilanishi bo'yicha jo'natish uchun qanday pochta jo'natmalarini qabul qiladi?

### 3-BOB. POCHTA ALOQASINI TASHKIL ETISH

#### 3. 1. Viloyat ichida pochta tashishni tashkil qilishda transport vositalarining o'рни

Viloyat ichida pochta aloqasi viloyat markazini tuman markazlari va viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar bilan, shuningdek tuman markazlari va viloyatga bo'ysunuvchi shaharlarning o'zaro barqaror aloqasini ta'minlashi kerak.

Yozma xat-xabarlar, posilkalar va davriy nashrlar almashuvining asosiy qismi viloyat ichidagi pochta marshrutlari bo'yicha jo'natiladi. Shuning uchun viloyat ichidagi pochta aloqasini to'g'ri tashkil qilish butun pochta aloqasini tashkil qilish uchun ahamiyatli ta'sir etadi.

Viloyat ichida pochta aloqasini tashkil qilish va rivojlantirishning asosiy vazifasi pochta jo'natmalarini yo'naltirishning berilgan muddatlarini ta'minlash hisoblanadi. qo'yilgan vazifalar hal etilishiga quyidagi yo'llar bilan erishiladi:

-viloyat ichida pochta aloqasi tuzilishining eng ratsional tizimini yaratish;

-pochta aloqasining tumanlararo bog'lamani to'g'ri joylashtirish;

-pochtani tashish uchun yer usti va havo transporti vositalaridan aralash foydalanish;

-pochta marshrutlarini ratsional tuzish;

-ishlab chiqarish jarayonlarini pochta aloqasi korxonalarining bog'lamsida to'g'ri tashkil qilish;


-pochta harakatlanishi uchun muntazam operativ-dispatcher rahbarlikni va nazoratni tashkil qilish.

Viloyat ichida pochta aloqasi ikkita - bog'lama-tuman va tumanlararo turi bazasida radial-bog'lama tizimi asosida quriladi.

Viloyat ichida pochta aloqasining namunaviy prinsipial sxemasi

3. 1-rasmda ko'rsatilgan.

**Tuman aloqa bog'lamasi** -o'zining pochta kabi tuman ichidagi tarmoqning aloqa bo'limlaridan keladigan pochtaga ishlov beradi va jo'natadi.



3. 1-rasm. Viloyat ichida pochta aloqasining namunaviy prinsipial sxemasi

VB - viloyat bog'lamasi; TAB - tumanlararo bog'lama; TB - tuman bog'lamasi

**Tumanlararo bog'lama**- yuzaga kelgan pochta oqimlari, qatnov yo'llari va xizmat ko'rsatiladigan tumanlarning iqtisodiyotini hisobga olgan holda, punktlardan biriga tutash bo'lgan tumanlarning eng ko'p intilgan punktlarida tashkil qilinadi va aviatsiya yoki tuproq yo'llar tutashgan yoki kesishgan joylarda joylashtiriladi.

Tumanlararo bog'lamalarning funksiyasini, odatda, qulay joyda joylashgan tuman aloqasi bog'lama va ayrim hollarda pochta tashish bo'limlari bajarishlari mumkin.

Viloyat markazi bir tomondan respublika poytaxti va intilish prinsipi bo'yicha boshqa bog'lama bilan aloqa qilish uchun tutash bo'lgan magistral yo'lga chiqadi, boshqa tomondan viloyat markazlari o'zining barcha tuman markazlari va viloyatga bo'ysunadigan shaharlardan doimo pochta aloqasini oladi.

Tuman markazlari o'zining viloyat markazlari, shuningdek o'zaro intilish bo'lganda, yaqin joylashgan boshqa tumanlar va o'z tumanining barcha aloqa korxonalarini bilan aloqa (to'g'ridan-to'g'ri yoki tumanlararo bog'lama orqali) qiladi.

#### **Rejalashtiriladi:**

- tuman markazlari avtomobil transporti, havo transporti liniyasi bir marshrutda joylashganda

- to'g'ridan-to'g'ri; tuman markazlari teng marshrutlarda joylashganda viloyat yoki tumanlararo bog'lama orqali.



Tuman markazlari o'rtasidagi bevosita aloqa barqaror intilishi yetarlicha mavjud bo'lganda va pochta jo'natmalari yetkazib berilishi sezilarli darajada tezlashtirish imkoni bo'lganda tashkil qilinadi. Tuman bog'lamasi qatnovning magistral yo'llariga chiqishi viloyat markazi yoki tumanlararo bog'lamasi orqali ta'minlanadi.

### Viloyat ichida pochtni tashishni tashkil qilish

Viloyat ichida pochtni tashish avtomobil transporti, quvvatli transportidan kompleks foydalanish asosida tashkil qilinadi.

Transport vositalarining turlarini tanlashda majburiy talab sifatida yozma xat-xabarlar va davriy nashrlarni yetkazib berishning berilgan nazorat muddatlarini bajarishda qo'llanadi. Zarur transport vositalari harakatlanish tezligiga muvofiq tanlanadi.

Transport vositalarining tezligi quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqilishi mumkin:

$$V_e = L / [24(n-1) + K - t], \quad (3.1)$$

bu yerda  $V$  - yozma xat-xabarlar va davriy nashrlarni yetkazib berishning berilgan muddatlarini ta'minlash uchun zarur transport harakatlanishining foydalanish tezligi, km/s;

$L$  - viloyat markazidan tuman markazigacha masofa;

$n$  - yetkazib berishning berilgan muddati, kun;

$K$  - yozma xat-xabarlar va davriy nashrlarni maxsus davlat organi tomonidan yetkazib berishning normalangan muddati (ularning tuman aloqasi bog'lamasiga kelgan kuni);

$t$  - transportni viloyat markazidan jo'natilgan vaqti.

Zarur tezlik transportning bir nechta turlari bilan ta'minlansa, eng samaraligi bo'lib kam xarajatlar bilan pochtni berilgan hajmini ta'minlaydigan transport turi hisoblanadi.

Transport turlarining harakatlanish tezligining farqi va pochta jo'natmalari va nashrlarni yetkazib berishning berilgan muddatlarini hisobga olib, O'zbekistonda viloyat ichidagi pochta aloqasi tizimida pochta jo'natmalarini tashish uchun asosan avtomobil transportlaridan foydalaniladi.

Viloyat ichida pochta aloqasini tashkil qilish samaradorligi nafaqat transport vositalarini ratsional tanlashga bog'liq, balki pochta marshrutlarini to'g'ri tashkil qilishga bog'liqdir.

Aniq sharoitlardan kelib chiqib, viloyat hududida gazetalar va pochta jo'natmalarini tuman markazlariga kelishini maksimal tezlashtirishni ta'minlaydigan maxsus avtomarshrutlarni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Pochtni tashish uchun yo'lovchi avia yo'l liniyalaridan keng foydalanadi.

Viloyat ichida aloqaning marshrutlari va jadvallari mahalliy organlar va transport idoralari bilan kelishilib "O'zbekiston pochta" AJ, uning filiallari va pochta aloqasi operatori tomonidan belgilanadi.

Pochta va nashr yo'naltirilishining belgilangan muddatlarini ta'minlash uchun avtomobil transport marshrutlari, odatda, **radial** quriladi.

"O'zbekiston pochta" AJ filiallari va operatorlar mahalliy viloyat organlari bilan kelishiladigan va ularning rahbari tomonidan tasdiqlanadigan viloyat ichida pochta aloqasini tashkil qilish sxemasini ishlab chiqadi. Viloyat ichida pochta aloqasini tashkil qilish darajasini baholash uchun pochta jo'natmalarining tezligi, barqarorligi, muntazamligi va tejamliligini xarakterlovchi liniyalardan foydalaniladi.

### 3. 2. Viloyat ichida pochta aloqasini rejalashtirish

Viloyat hududida pochta aloqasini loyihalashtirishda ushbu viloyatning amaldagi pochta aloqasini tashkil qilishning iqtisodiy-geografik xarakteristikalarini va texnik-iqtisodiy tahlili asosida aniqlanadigan mahalliy sharoitlar hisobga olinadi.

Tahlilning maqsadi viloyat ichida pochta aloqasini tashkil qilishda mavjud kamchiliklarni aniqlashdan iborat. Bunda quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:

-bog'lamalarning amaldagi tizimi, viloyatlar va tuman markazlari o'rtasidagi pochta oqimlari;

-pochtni tashishni tashkil qilish, pochta jo'natmalarini yetkazib berish muddatlari;

aloqa harakatlarining barqarorligi va muntazamligi, pochta tashish tejamkorligi.

Aniqlangan kamchiliklarni hisobga olib, viloyat ichida pochta aloqasini tashkil qilishning yangi sxemasi loyihasi ishlab chiqiladi, buning uchun quyidagi masalalar hal etiladi:

-viloyat va tuman markazlari hamda tuman markazlari o'rtasida pochta oqimlari rejali davriga belgilanadi;

-viloyat hududida pochta tashishni tashkil qilish uchun transport vositasi asoslanadi;

-bog'lamlar tizimi quriladi va marshrutlar tizimi loyihalashtiriladi, transport harakatlanish grafigi va jadvali tuziladi;

-harakatlanish tarkibining parki va viloyat ichida marshrutlarga xizmat ko'rsatish uchun xodimlar soni hisoblab chiqiladi;

-pochta jo'natmalarini yo'naltirish muddatlari hisoblab chiqiladi; viloyat ichida pochta aloqasini tashkil qilish loyihagini amalga oshirish uchun kapital mablag'lar, mehnat unumdorligi, ekspluatatsiya xarajatlari va pochta tashish hamda kuzatish bo'yicha xizmatlar tannarxi aniqlanadi.

#### *Tuman ichida pochta aloqasini tashkil qilish.*

Tuman ichida pochta aloqasi O'zbekiston pochta aloqasining tarkibiy qismi hisoblanadi va u tumanning aholisi, korxonalari va muassasalarini aloqa vositalari bilan xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydi deb tan olingan. Qishloq joylarini va xo'jaliklarni rivojlantirish, tumanlar iqtisodiyotini rivojlantirish, qishloq aholisining farovonligi va madaniy darajasini oshirish tuman ichida pochta aloqasini tashkil qilishga qo'yiladigan talablarning oshishini ko'rsatadi. Uning asosiy elementlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

-pochta aloqasi korxonalari va punktlari;

-tuman ichida pochta tashish sxemasi;

-pochta jo'natmalarini yetkazib berishni tashkil qilish.

Tuman ichida pochta aloqasini tashkil qilishda quyidagi asosiy holatlar hisobga olinadi:


-tuman aholisi, korxonalari, muassasalari va tashkilotlarini aloqa xizmatlari bilan to'liq qanoatlantirish;

-pochta jo'natmalarining yo'naltirish tezligini oshirish va ularni yetkazib berish;

-tuman ichida pochta aloqasining samaradorligini oshirish.

Ushbu vazifalar tumanning pochta aloqasi tizimining ratsional tuzilishi, aloqa obyektlari va punktlarining tarmog'ini to'g'ri joylashtirish va rivojlantirish, pochta qatnovining optimal tizimini tanlash, pochta jo'natmalari yetkazib berilishining ratsional tashkil qilish hisobiga hal etilishi mumkin.

Tuman ichida pochta aloqasi pochta aloqasining tuman va tuman ichidagi bog'lamlar negizida radial-bog'lama tizimi bo'yicha quriladi. Tuman ichida pochta aloqasining prinsipial sxemasi 3. 2-rasmda ko'rsatilgan.



3. 2 -rasm. Tuman ichida pochta aloqasining prinsipial sxemasi  
TB - tuman bog'lamasi, TIB - tuman ichidagi bog'lama, AB- aloqa bo'limi

Tuman bog'lamasi, odatda, o'z tumanining ko'pgina aloqa bo'limlari bilan to'g'ri aloqaga ega. Uzoq masofadagi bo'limlar bilan tuman ichidagi bog'lama orqali aloqaga ega bo'lishi mumkin. Bitta pochta marshrutidagi aloqa bo'limlari o'zaro to'g'ri aloqaga ega. Barcha qolgan holatlarda bo'limlar tuman yoki tuman ichidagi bog'lamlar orqali o'zaro bog'langan.

Pochta aloqasi tuman ichidagi bog'lamlarning vazifasini viloyat ichidagi marshrutlarning pochta avtomashinasi bilan pochta almashadigan aloqa bo'limlari bajaradi. Tuman ichidagi bog'lamlar o'z pochta aloqasiga ishlov bergani kabi, unga biriktirilgan aloqa bo'limlarining pochta aloqasiga ham ishlov beradi. Tuman bog'lamlari va tuman ichidagi bog'lamlar ko'p holatlarda aloqasi bog'lamlari va chegaradosh tumanlar uchun pochtaga ishlov beradi va yo'llaydi.

Pochta aloqasini tashkil qilish sxemasini tanlash mahalliy sharoitlar - tumanlar konfiguratsiyasi, aloqa bo'limlarining tuman

bog'lamasidan uzoqdaligi va boshqa sharoitlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Pochta aloqasi tizimini qurishda tumanda pochta va nashrni yetkazib berishning belgilangan nazorat muddatlarini bajarishga asoslangan.

#### *Pochta aloqasi obyektlari va punktlarining tarmog'i*

Tuman hududidagi aholi, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga xizmat ko'rsatish uchun tuman aloqasi tarmog'i, shtatda bo'lmagan aloqa xodimlari tomonidan xizmat ko'rsatiladigan aloqa bo'limlarining statsionar va ko'chma tarmog'i va punktlari tashkil qilinadi.

*Pochta aloqasining tuman bog'lamalari* (PATB) pochta aloqasining barcha turdagi xizmatlarining ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun ma'muriy-hududiy tuman markazlarida tashkil qilindi. Shu bilan birga ular tuman ichidagi marshrutlar bo'yicha pochta tashishni tashkil qiladi, bo'ysunuvidagi aloqa bo'limlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi va ularni nazorat qiladi. Tuman markazida aholining zichligi va soniga muvofiq aloqa bo'limi ochiladi.

Tuman hududida qishloq aloqa bo'limi tashkil qilinadi. Odatda, ular iqtisodiy jihatdan muhim bo'lgan aholi punktlarida, birinchi navbatda o'z-o'zini boshqarish organlari, tashkilotlar va xo'jaliklar joylashgan yerlarda joylashtiriladi.

Xizmat ko'rsatishning zarur sifatini ta'minlash maqsadida radiusi har bir aloqa bo'limiga, xizmat ko'rsatilayotgan aholi soniga teng bo'lgan belgilangan zona biriktiriladi. Pochta aloqasi obyektlarining normativlari hamda pochta va nashr yo'naltirilishining nazorat muddatlari maxsus vakolatlangan organi tomonidan belgilanadi.

Barcha qishloq aloqa bo'limlarida pochta operatsiyalarining to'liq doirasi amalga oshiriladi (yozma xat-xabarlar, pul o'tkazmalari, posilkalarni qabul qilish va yetkazib berish, davriy nashrni yetkazib berish, gazeta va jurnallarga obunani qabul qilish, ularni chakana savdoda sotish, qo'shimcha xizmatlar va jamg'arma kassalarning operatsiyalarini ko'rsatish). Barcha statsionar qishloq aloqa bo'limlarida amalga oshiriladi, shaharlararo va mahalliy telefon aloqa xizmatlari ko'rsatiladi.

Yangi ochilayotgan aloqa bo'limlari normal ishlashi uchun barcha sharoitlarga mos keladigan xona, uskuna va boshqalarga ega bo'lishi kerak. Turli xo'jaliklarda ochiladigan aloqa bo'limi uchun xonalar ushbu tashkilot tomonidan operator bilan shartnoma asosida taqdim etiladi.

**Qishloq** joylarda aloqa bo'limlari tegishli davlat organlarining normativlariga muvofiq, shu jumladan ular ishining rentabelligi ta'minlanganda ochiladi.

Statsionar aloqa bo'limlarining ochilishi rentabelli deb hisoblanmaganda, shtatda bo'lmagan aloqa xodimlari tomonidan xizmat ko'rsatiladigan ko'chma aloqa bo'limlari va punktlari loyihalashtiriladi.

Ko'chma aloqa bo'limi tomonidan statsionar aloqa bo'limidan uch kilometr dan uzoqda joylashgan aholi punktlariga xizmat ko'rsatish maqsadga muvofiqdir, ular quyidagi funksiyalarni bajaradilar:

-barcha turdagi pochta jo'natmalari qabul qilish, pochta to'lovlari belgisi, gazetalar, jurnallar va adabiyotlarni chakana savdoda sotish, radionuqta, kommunal to'lovlarni qabul qilish;

-statsionar aloqa obyektlari bo'lmagan ko'chma aloqa bo'limlarining harakatlanish marshruti bo'yicha joylashgan aholi punktlarida pochta qutisidan xatlarni chiqarib olish;

-ko'chma aloqa bo'limlari marshrutida joylashgan pochta onlarning yetkazib berish uchastkalaridagi aloqa bo'limlari va tayanch punktlariga pochta tashish;

-yetkazib berilishi kerak bo'lgan pochta jo'natmalari ko'chma bo'limga biriktirilgan shtatda bo'lmagan aloqa xodimlariga berish, ulardan oldingi kundagi ish to'g'risidagi hisobotni, shuningdek mijozdan qabul qilingan pochta jo'natmalari qabul qilish;

-pochta jo'natmalari, pul mablag'lari, hujjatlar hamda belgilangan hisobotni ish kuni tugaganda bog'lama aloqa korxonalariga topshirish.

Ko'chma aloqa bo'limi tuman aloqasi bog'lamasi tomonidan tuzilgan va mahalliy hokimiyat organlari bilan kelishilgan jadval bo'yicha ishlaydi. Har bir xizmat ko'rsatiladigan aholi punktlarida ko'chma aloqa bo'limi to'xtashining aniq joyi belgilanadi, unda uning ishlash vaqti to'g'risidagi jadvali osib qo'yiladi.

Pochtalonlarning ish vaqti sarflanishining tajribasi va tahlili shuni ko'rsatadiki, uning eng ko'p qismi aloqa bo'limidan yetkazib berish uchastkasigacha, uchastkadagi aholi punkti o'rtasida va uchastkadan aloqa bo'limigacha o'tishlar uchun sarflanadi. Bunday sharoitlarda pochtaalon marshrutiga kiradigan aholi punktlariga uni tashish uchun ko'chma aloqa bo'limidan foydalanish maqsadga muvofiqdir, bu esa o'z navbatida yetkazib berish uchastkalarining oshishi va pochtaalonlarning ish sharoitlarini yengillashtirish imkonini beradi.

Ko'chma aloqa bo'limining ish vaqti istalgan punktda aholiga aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun vaqt sarflanishiga bog'liqdir. Bundan tashqari, u aholisi ko'p punktda pochtaoni yetkazib berish uchun yetarli bo'lishi kerak (pochtaalon aholiga ko'chma aloqa bo'limi turgan vaqtda xizmat ko'rsatadi).

Tumandagi ko'chma aloqa bo'limining soni aloqa bo'limining marshrutiga kiradigan aholi punktlarining soniga bog'liq.

Ko'chma aloqa bo'limining ish vaqti  $T_{AB}$  quyidagicha aniqlanadi:

$$T_{AB} = T_{alm} + T_{hv} + S_t \quad (3.2)$$

bu yerda,  $T_{alm}$  - bir soatga teng reys boshlanishida va oxirida pochta aloqasi bog'lamasidagi ko'chma AB almashuvi uchun vaqt;

$T_{alm}$  pochta va pul mablag'larini qabul qilish uchun vaqt, mijoz bilan operatsiyani o'tkazishga ko'chma ABni tayyorlash uchun zarur vaqtni, ish kuni oxirida hisobotni o'z ichiga oladi;

$T_{hv}$  - harakatlanish vaqti:  $T_{hv} = \bar{t}_{hv} (n-1) + t_{a.p.}$ ,  $\bar{t}_{hv}$  - ikkita qo'shni aholi punktlari o'rtasida ko'chma AB harakatlanish uchun o'rtacha vaqt;  $t_{a.p.}$  - marshrut bo'yicha birinchi aholi punktigacha va oxirgi punktdan ko'chma AB harakatlanishi uchun vaqt.

Ushbu vaqt sarfi muvofiq ravishda quyidagilarga teng:

$$\bar{t}_{dv} = \bar{l} / V_t; l_{a.p.} / V_t, \quad (3.3)$$

bu yerda  $\bar{l}$  - qo'shni aholi punktlari o'rtasidagi o'rtacha vaqt, km;

$V_t$  - ko'chma AB harakatlanish texnik tezligi, km/s;

$l_{a.p.}$  - birinchi aholi punktigacha va oxirgi aholi punktidan bo'lgan masofa, km;

$T_{cx}$  - xizmat ko'rsatiladigan aholi punktlarida ko'chma AB to'xtashi uchun vaqt va harakatlanish yo'nalishida aloqa bo'limlari

bilan almashish uchun vaqt:  $T_{cx} = \sum_{i=1}^n t_{cx_i}$ , bunda  $p$  - marshrutdagi xizmat ko'rsatiladigan aholi punktlari va aloqa bo'limlarining soni;  $t_{cx}$  -  $i$ -chi aloqa bo'limdagi almashish uchun yoki  $i$ -chi aholi punktiga xizmat ko'rsatish uchun vaqt.

Dastlabki formulaga uning barcha tashkil etuvchilarini qo'yib hamda zarur almashtirishlarni amalga oshirib quyidagilarni hosil qilamiz

$$n = \frac{V_m(T_{oc}-1) + \bar{l} - \bar{l}_{H.n}}{V_m \bar{l} + \bar{l}}, \quad (3.4)$$

bu yerda  $\bar{l}$  - bitta punktda xizmat ko'rsatish uchun o'rtacha vaqt, ma'lum darajada undagi aholi soniga bog'liq.

Pochta aloqasining oddiy xizmatlarini ko'rsatish uchun aloqasi bog'lamasiga yaqin joyda joylashgan uncha katta bo'lmagan aholi punktlarida shtatda bo'lmagan aloqa xodimlari tomonidan xizmat ko'rsatiladigan punktlarni tashkil qilish mumkin.

Shtatda bo'lmagan xodimlar vazifasiga, odatda, quyidagilar kiradi:

-mijozlarga oddiy aloqa xizmatlarini ko'rsatish (oddiy va buyurt-mali xat-xabarlar, banderollarni qabul qilish, pochta to'lov belgilarini sotish, gazeta va jurnallar uchun obunalarni qabul qilish, davriy nashrlarni chakana savdoda sotish);

pochta jo'natmalarini aholi punktda yetkazib berish. Shtatda bo'lmagan xodimlar sifatida, qo'shimcha vazifada ishlash uchun qo'shimcha xodimlar jalb etiladi.

Shtatda bo'lmagan xodimlar yaqin joyda joylashgan stasionar aloqa bo'limiga birlashtiriladi, aloqa bo'limi ularning ishiga rahbarlik va nazorat qiladi.

Qishloq aholisiga xizmat ko'rsatishni yaxshilashning muhim sharti bo'lib pochta qutisi tarmog'ini rivojlantirish hisoblanadi. Yirik qishloq aholi punktlarida bitta pochta qutisi bilan xizmat ko'rsatishning o'rtacha radiusi 0,5 kilometr dan ko'p bo'lmasligi kerak. Pochta qutilari foydalanish uchun qulayroq bo'lgan joylarga joylashtiriladi.

Nashr va xat-xabarlarini yer usti transporti yordamida tashish va yetkazib berishning ba'zi bir sharoitlarida nazorat muddatlariga to'g'ri kelmaydi, shuning uchun aviatransportdan foydalaniladi.

Tuman ichidagi aloqani to'g'ri tashkil qilishning muhim shartlaridan biri tuman hududidagi transport harakati grafigining aniq kelishilganligi hisoblanadi. Buning uchun pochtni tuman ichidagi marshrut bo'yicha harakat jadvali transport harakat jadvali va ularning kelishi hamda tuman aloqasi bog'lamasidan pochtni jo'natish vaqtiga muvofiq tuziladi.

Pochtni jo'natish va kelish vaqti aloqa bo'limlarida nazorat qilinadi va maxsus yuk-xat hujjatlarida belgilanadi. Tuman aloqasi bog'lamada pochtni jo'natish va kelish grafiklari va jadvallarining bajarilishi ustidan doimiy nazorat olib boriladi.

**Qishloq joylarda pochta jo'natmalari yetkazib berilishini tashkil qilish.** Qishloq joylarda pochta jo'natmalarini qishloq pochtonlari yetkazib beradi. Mamlakatimizda jo'natmalarni bevosita uyga yetkazib berish bilan adresatning qo'liga topshirishning o'ta progressiv shakli qo'llaniladi. Qishloq joylarda yetkazib berish chastotasi maxsus vakolatlangan davlat organi O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi. Kiruvchi xat-xabarlar, yetkazib berish korxonasiga pochtonlarning yetkazib berish uchun yo'lga chiqishlaridan bir soat oldin kelib tushgan bo'lsa, tuman markazlarida, ishchi posyolkalar va boshqa aholi punktlarida shu kunning o'zida yetkazib beriladi.

Pochta aloqasi obyektlaridan tashqarisida joylashgan pochta qutularidan xat-xabarlarni chiqarib olish davriyligi chiquvchi xat-xabarlar o'z vaqtida jo'natilishi va mahalliy xat-xabarlarning yetkazib berilishini hisobga olgan holda belgilanadi, lekin yetkazib berilgan pochta miqdoridan kam bo'lmasligi kerak. Har bir qishloq pochtoni yaqin joylashgan pochta bo'limiga birlashtiriladi va muayyan yetkazib berish uchastkasiga xizmat ko'rsatadi. U jadvalda belgilangan kun va soatda pochta jo'natmalarini yetkazib beradi, xatlarni pochta qutularidan chiqarib oladi, gazetalar va jurnallarga obunani amalga oshiradi, aholiga adabiyot, pochta markalari, konvertlar, qog'oz sotadi. Pochtoning ish vaqtiga korxonadagi ish vaqti, pochta jo'natmalarini yetkazib berish,

obyektdan aholi punktigacha bo'lgan yo'l uchun sarflanadigan vaqt kiradi.

Pochtoning ish vaqti (pochta jo'natmalarini saralash, hisobot tuzish va topshirish va boshqalar) yetkazib beriladigan pochta miqdoriga va ularga ishlov berish uchun belgilangan normativlarga bog'liq bo'ladi.

Pochta jo'natmalarini topshirish vaqti yetkazib beriladigan pochta jo'natmalarining miqdori hamda topshirish xarakteriga bog'liq holda

(abonent javoni orqali yoki bevosita adresatga) har bir turining birligi uchun belgilangan normalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Yetkazib berish uchastkalarining o'lchami va konfiguratsiyasi texnik normalash metodi bilan belgilanadi. Yetkazib berish uchastkasi, odatda, pochta aloqasi operatori joylashgan aholi punktidan boshlanadi. Qishloq joylardagi ( $N$ ) yetkazib berish uchastkalarining sonini (3.5) formula bo'yicha aniqlash mumkin.

$$N = (T_{ich} + T_{ish} + T_{yo'l}) / 7, \quad (3.5)$$

bu yerda  $T_{ich}$  - korxonada ishlash uchun kerakli vaqt,  $s$ ;

$T_{ish}$  - pochta jo'natmalarini topshirish uchun vaqt,  $s$ ;

$T_{yo'l}$  - yo'l uchun sarflanadigan vaqt,  $s$ ;

7 - pochtoning ish vaqti,  $s$ ;

Ba'zi bir tumanlarda, kichik aholi punktlari hududida joylashgan pochta qutisiga xizmat ko'rsatish uchun guruhli abonent javonlari (GA) ishlatilishi mumkin, ular aholi punktlari guruhining markaziga o'rnatiladi. Guruhli javon oluvchilarning soniga ko'ra, abonent qutulariga hamda xat-xabarlarni qabul qilish uchun qutiga ega. Pochta GAga avtomashinalarda yetkazib beriladi, bu pochtonlarning mehnatini ma'lum darajada yengillashtiradi, mehnat unumdorligini oshiradi, yetkazib berish tannarxini pasaytiradi.

Qishloq joylaridagi har bir aloqa bo'limi uchun pochtonlar soni yetkazib berish uchastkalarining sonidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqiladi:

$$P_{umum} = N \cdot 1,05, \quad (3.6)$$

bu yerda,  $R_{umum}$  - pochtonlarning umumiy soni;

$N$  - yetkazib berish uchastkalarining soni;

1, 05 - ta'til uchun rezervni hisobga oluvchi koeffitsient.

Pochta va nashrlarni yetkazib berish vaqti pochta aloqasining tuman bog'lamasi tomonidan tuzilgan jadvallar bilan belgilanadi.

Aloqa operatorlarining muhim vazifasi qishloq joylarga pochta yetkazib berish uchun transport ta'minoti (motorlashtirish) holatini yanada yaxshilashdir.

Aloqa bo'limida pochta tuzilgan har bir marshrut bo'yicha adresatlar uchun saralanadi, bunda adresatning familiyasidan tashqari, xonadoni, abonent javonining raqami va joylashgan o'рни ko'rsatiladi. Bunda pochta jo'natmalarini yetkazib berishni tashkil qilishning quyidagi ikkita varianti mavjud:

1. Pochtani abonent javonining kataklari bo'yicha tarqatish va sug'urta jo'natmalarini (qimmatli xatlar, banderollar, pul o'tkazmalari) haydovchi yetkazib beradi, ya'ni u pochta funktsiyasini bajaradi.

2. Pochtani abonent javonining kataklari bo'yicha tarqatishni haydovchi bajaradi. Qimmatli xatlar va banderollar, pul o'tkazmalarini pochta maxsus ishlab chiqilgan marshrutlar bo'yicha mashinalarda yetkazib beradilar.

Ushbu variantda birinchisiga nisbatan transport vositasiga ehtiyoj kamayadi, sug'urta jo'natmalarining yaxshi saqlanishi ta'minlanadi. Guruhli abonent javonlarini qo'llagan holda, pochta motorlashtirilgan tarzda yetkazib berishning joriy etilishi bilan yetkazib berishdagi mehnat unumdorligi oshadi, pochta funktsiyalarining mehnat sharoitlari ma'lum darajada yengillashadi va yaxshilanadi.

Ko'chma aloqa bo'limidan foydalangan holda, pochta motorlashtirilgan tarzda yetkazib berish varianti ham mavjud. Aholi punktida AB to'xtab turgan vaqtda AB boshlig'i mijozlarga aloqa xizmatlarini ko'rsatadi, haydovchi esa pochta funktsiyasini bajaradi.

### 3.3. Shahar pochta aloqasini tashkil qilish

Shahar pochta aloqasi pochta aloqasi umumiy tizimining muhim tashkil etuvchi qismi bo'lib hisoblanadi. Shaharlar mamlakatning ma'muriy va madaniy markazi, qudratli transport bog'lamasi bo'lib hisoblanadi.

Ularda yirik sanoat korxonalari, muassasa va tashkilotlar, gazeta-jurnal va kitob nashriyotlari joylashtiriladi. Shu sababli shaharlarda pochta jo'natmalarining katta oqimini tashkil etadi. Shahar bog'lamali tuzilmalarda butun chiquvchi pochta almashuvining asosiy hajmiga ishlov beriladi.

Shahar pochta aloqasining to'g'ri tashkil qilinganligi pochta aloqasini tashkil qilish uchun hal qiluvchi ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli shahar pochta aloqasi oldiga quyidagi vazifa qo'yildi - pochta jo'natmalariga ishlov berish va shahar hududida harakatlanish vaqtini qisqartirish.

Shahar pochta aloqasini tashkil qilishning asosiy elementlari quyidagilar hisoblanadi:

-pochta jo'natmalariga ishlov berish va harakatlanish tizimini belgilash;

-bog'lama va punktlar tarmog'ini joylashtirish va rivojlantirish;

-shahar ichida pochta qatnovini tashkil qilish;

pochta jo'natmalarini adresatlarga yetkazib berishni tashkil qilish.

### Pochta jo'natmalariga ishlov berish va harakatlanish tizimi

Pochta jo'natmalariga ishlov berish va yetkazib berish bosqichlari va muddatlarini minimumgacha qisqartiradigan pochtaga ishlov berish va harakatlanish tizimi o'ta ratsional hisoblanadi. Transport vositalari, ishlab chiqarish xonalari va uskunalardan oqilona foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, pochta aloqasi ishining tannarxini pasaytirish va rentabelligini oshirish bir vaqtning o'zida ta'minlanishi kerak.

Pochtaga ishlov berish va harakatlanish tizimini tanlashda quyidagi asosiy omillarni: shaharning ma'muriy-hududiy va xo'jalikdagi ahamiyati, hudud maydoni, vokzallar, aeroportlarning joylashishi, transport harakatining davriyligi va trafigi, yuklama kattaligi va uning kelish vaqtini hisobga olish kerak.

Pochta jo'natmalariga ishlov berish va harakatlanishi markazlashtirilgan, markazlashtirilmagan va aralash tizimiga bo'linadi.

Markazlashtirilgan tizimda barcha chiquvchi, kiruvchi va tranzit pochta jo'natmalariga shahar pochta aloqasi bog'lamasi bo'lib hisoblanadigan bitta korxonada ishlov beriladi. Pochta aloqasi bog'lamasi pochta tashish bo'limida tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Bu pochta tashishda pochta bog'lamasini tashkil qilishga nisbatan ko'proq ustuvorlikka ega bo'ladi, pochtaga ishlov berish bosqichlari soni kamayadi, shu bilan birga, shahar ichidagi tranzit almashish kamayadi, pochta jo'natmalarining harakatlanish vaqti qisqaradi va sarf-xarajatlar kamayadi.

Viloyatlararo pochta oqimlari o'tadigan viloyat markazida, shuningdek, shaharda joylashgan pochta tashish bo'limi faqat ushbu shahar pochta aloqasiga ishlov berish bilan cheklanib qolmasdan, tranzit pochta jo'natmalariga ham ishlov beradi, bu ishchi kuchi, ishlab chiqarish maydonlari va uskunalardan yaxshiroq foydalanish imkonini beradi. Shaharlarda pochta aloqasi bog'lamasi bo'lib pochta tashish bo'limi hisoblanadi, ular markazlashtirilgan tizimda pochta jo'natmalariga ishlov berishi va harakatlanishining prinsiplari asosida ishlaydi.

Pochta qutularidan chiqarib olingan barcha chiquvchi yozma xat-xabarlar, shuningdek aloqa korxonalarida qabul qilingan va aloqa bo'limidan kelgan pochta jo'natmalarining boshqa turlariga bevosita pochta aloqasiga jo'natiladi, u yerda to'liq ishlov beriladi hamda tegishli turdagi transport bilan manzil bo'yicha, shahar chegarasidan tashqariga jo'natiladigan jo'natmalar shahardan tashqariga, mahalliy jo'natmalar - tegishli shahar punktlariga jo'natiladi.

Shaharga kiruvchi pochta jo'natmalariga pochta aloqasida ishlov beriladi, u yerdan adresatlarga yetkazib berish uchun avtotransportda shahar korxonalariga yoki korxonadan adresatlarga topshirish uchun jo'natiladi.

Viloyat markazlariga kelib tushadigan respublika davriy nashrlari kiruvchi yozma xat-xabarlar o'tgan bosqichlardan o'tadi.

Markaziy gazetalarni markazlashtirilmagan tarzda bosib chiqarishda bosmaxonada joylashgan ekspeditsiya bo'limida ular viloyat gazetasi bilan birga jo'natiladi, u yerdan tashqi transportda jo'natish uchun shahar aloqa korxonalariga pochta aloqasiga jo'natiladi.

Chakana savdoda sotish uchun davriy nashrlar nashrlarini tarqatish sexidan bevosita shahar gazeta kiosklariga jo'natiladi.

Shahar aloqa obyektlarida qabul qilingan barcha chiquvchi posilkalar ishlov berish uchun pochta aloqasiga yo'llanadi, shundan so'ng ular belgilanishi bo'yicha jo'natish uchun samolyotlariga pochta aloqasiga jo'natish rejasiga muvofiq topshiriladi.

Kiruvchi posilkalarning harakatlanishi va ishlov berilishi teskari yo'nalishda tashkil qilinadi, ular posilkalarni adresatlarga topshirish va yetkazib berishni amalga oshiruvchi shahar aloqa korxonalariga transportda tashiladi.

Chiquvchi va kiruvchi pochta jo'natmalariga ishlov berish bo'yicha shahar tarmog'i pochta aloqasiga hisoblanadi, pochta qutularidagi yozma xat-xabarlar va shahar aloqa bo'limlarida qabul qilingan boshqa pochta jo'natmalariga ishlov berish uchun pochta aloqasiga jo'natiladi. Pochta jo'natmalari pochta aloqasidan ichki transportda tashish uchun TPBgga yetkazib beriladi.

Samolyotlardan keladigan kiruvchi pochta jo'natmalari aloqa korxonasida pochta aloqasiga transportda tashiladi, bu yerda ularga ishlov beriladi va adresatlarga yetkazib berish uchun aloqa bo'limlariga jo'natiladi.

Shahar bog'lamasi tuman tuman pochta bog'lamasida joylashtirganda u faqat tranzit shaharlararo pochta jo'natmalariga ishlov beradi. Shahar hududida ishlov berishning markazlashtirilmagan tizimi sharoitlarida ikkita yoki bir nechta pochta aloqasining shahar bog'lamasi tuziladi, ular shaharning belgilangan qismi pochta aloqasiga ishlov beradi.

Bog'lamalar o'zining xizmat ko'rsatish tumanidagi pochta qutularidan xat-xabarlarini chiqarib oladi, chiquvchi va kiruvchi xat-xabarlarini saralaydi hamda uni tashqi transportning tegishli turi bilan o'zining xizmat ko'rsatish zonasidagi shahar yetkazib berish bog'lamaga jo'natadi.

Kiruvchi xat-xabarlar va posilkalar odatda shaharning shahar aloqasi bog'lama bo'yicha saralanadi. Qandaydir sabablarga ko'ra,

yo'l davomida saralanishi mumkin bo'lmagan (masalan, samolyotlarda keladigan) xat-xabarlar ichki transportda kelib tushadigan shahar aloqasi bog'lama bo'yicha saralanadi, so'ngra batafsil ishlov berish va keyingi aloqa bo'limlariga transportda tashish uchun tegishli shahar aloqasi bog'lamaga jo'natiladi.

Mahalliy xat-xabarlar, shahar aloqasi bog'lama bo'yicha bevosita pochta qutilari va qabul qilish punktlaridan kelib tushgan bog'lamada saralanadi.

Xat-xabarlar saralangandan so'ng tegishli bog'lamlarga jo'natiladi, u yerda kiruvchi xat-xabarlar bilan birga saralanadi va yetkazib beruvchi aloqa bo'limlari va punktlariga jo'natiladi.

Bir qator shaharlarda pochtaga ishlov berish va harakatlanishning aralash tizimidan foydalaniladi. Aralash tizimda bir turdagi pochta jo'natmalariga ishlov berish bo'yicha bog'lama bo'lib pochta hisoblanadi, boshqalarida esa - TPB.

Yuqorida ko'rib chiqilgan pochta jo'natmalariga ishlov berish va harakatlanish tizimlarini solishtirib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: markazlashtirilgan ishlov berish tizimi pochta jo'natmalarining quvvatli oqimlarini hosil qiladi, ishning oqimli metodini keng qo'llash va kompleks tarzda avtomatlashtirishni joriy etish imkonini beradi.

Markazlashtirilgan ishlov berish tizimi, odatda, ishchilar soniga bo'lgan ehtiyojni qisqartiradi, pochta jo'natmalariga ishlov berish uchun mehnat sarfining hajmini kamaytiradi.

Oqimli tizimni va mexanizatsiyalash hamda avtomatizatsiyalash vositalarini joriy etish mehnat unumdorligining o'sishiga hamda operatsion va umumiy nazorat muddatlarining davomiyligini qisqartirish bilan birga xizmatlar tannarxining pasayishiga yordam beradi.

Ishlov berishning markazlashtirilmagan tizimda tegishli bog'lamaning xizmat ko'rsatish zonasidagi chiquvchi va kiruvchi jo'natmalarining harakatlanish muddatlarini qisqarishi uchun sharoit yaratiladi.

Biroq markazlashtirilmagan tizim qator kamchiliklarga ega, ulardan asosiysi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

-umumiy yuklanishni aloqasi bog'lama bo'yicha tarqatish natijasida ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyasidan cheklangan holda qo'llash;

-malakali ishchi kuchi, ishlab chiqarish maydonlari va uskunalari ehtiyojining ortishi;

pochta jo'natmalariga ishlov berish va harakatlanishdagi ortiqcha bosqichlar.

Pochta harakatlanishi va ishlov berish tizimi har bir shaharning aniq sharoitlarini hisobga olgan holda tanlanadi.

Shaharda pochtaga ishlov berish joyi to'g'risidagi masalani hal etishda, birinchi navbatda, pochta harakatlanish tezligi va tejamlilik ko'rsatkichlarini hisobga olish kerak.

### **3. 4. Shaharda aloqa obyektlari va punktlarini rivojlantirish va joylashtirish**

Shahar pochta aloqasi tizimi quyidagi ikkita tuzilma turi mavjudligini ko'zda tutadi:

shaharning markaziy aloqasi bog'lamasi - pochta, shahar aloqasi bog'lamasi;

iste'molchilarga faqat pochta va elektr aloqa xizmatlari bilan bevosita xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan bog'lama - aloqa bo'limlari.

Birinchi turdagi tuzilma iste'molchilarga barcha xizmat turlarini taqdim etadi, bo'ysunuvidagi shahar aloqa bo'limlari tarmog'iga rahbarlik qiladi va uning ishini nazorat qiladi hamda mahalliy sharoitlarga muvofiq chiquvchi, kiruvchi va tranzit pochta jo'natmalariga ishlov beradi hamda pochta shaharda tashilishini tashkil qiladi. Yuqorida qayd etilgan ikki turdagi aloqa obyektlari tarmog'ini joylashtirish va rivojlantirish prinsiplari bir xil emas, chunki bu obyektlar ishlab chiqarish vazifasi va bajariladigan funksiyalarning xususiyatiga ko'ra turlichadir.

Viloyat markazlarida pochta, viloyat bo'ysunuvidagi shaharlarda esa - shahar aloqasi bog'lama tashkil etiladi.

Aloqa bo'limlari va punktlari tarmog'ini rivojlantirishning muhim prinsipi bo'lib iste'molchilarning maksimal yaqinlashuvi va



keng qulaylik, AKT negizida madaniy xizmat ko'rsatish uchun sharoitlarni yaratish hisoblanadi.

Normativlarga muvofiq barcha shaharlar aholi zichligiga ko'ra to'rtta guruhga bo'lingan va har bir guruh uchun xizmat ko'rsatish radiusi va xizmat ko'rsatiladigan aholi soni normativlari qabul qilingan.

Shaharlarda aloqa bo'limlari tarmog'ini rivojlantirishdagi asosiy normativ sifatida aloqa vositalarining istemolchilarga yaqinlashishini aniq xarakterlaydigan xizmat ko'rsatish radiusi ko'zda tutiladi.

Shu bilan birga, undan: xizmat ko'rsatiladigan aholi soni va loyihalashtirilayotgan obyekt rentabelligi kabi boshqa ko'rsatkichlar bilan o'zaro bog'liqlikda foydalanish kerak. Aloqa obyektlari tarmog'ining istiqbolda rejalashtirilayotgan o'sish darajasi quyidagi ifodadan kelib chiqqan holda belgilanadi

$$\Delta N = N_{pl} - N_{baz}. \text{ Bunda } N_{pl} = 0,5^2 S_{pl} / R_{pl}^2, \quad (3.7)$$

bu yerda  $\Delta N$  - aloqa korxonalari tarmog'ining rejalashtirilayotgan o'sish darajasi;

$N_{pl}$  - istiqboldagi aloqa korxonalari tarmog'i;

$S_{pl}$  - istiqbolda xizmat ko'rsatiladigan shahar hududi;

$R_{pl}$  - istiqbolda rejalashtirilayotgan xizmat ko'rsatishning o'rtacha radiusi;

$N_{baz}$  - istiqbol davri boshidagi korxonalar tarmog'i.

Aholi zichligi bo'yicha ushbu shahar qaysi normativlar guruhiga kirishi belgilanadi, rejalashtirilayotgan yil boshida erishilgan xizmat ko'rsatishning o'rtacha radiusi va tarmoq zichligi hisoblab chiqiladi, istiqboldagi shahar aloqa obyektlari tarmog'i belgilanadi.

Aloqa bo'limini shaharning butun hududida imkon qadar bir tekis joylashtirish kerak. Asosiy normativ sifatida xizmat ko'rsatish radiusi qabul qilingan bo'lsa, unda aloqa tarmog'ining iste'molchilarga yaqinlashish darajasi bir xil, biroq aloqa obyektlari va bog'lamaning ish ko'lami shahar aholisining zichligiga bog'liq bo'ladi.

Aholi zichligi katta bo'lgan shaharlarda aloqa obyektlarining ish hajmi aholi zichligi kichik bo'lgan shaharlarga nisbatan katta bo'ladi.

Aloqa bo'limlari uchun xonalar yangi qurilayotgan turar-joy va muassasa uylarining birinchi qavatida joylashtiriladi.

Yopiq turdagi aloqa obyektlarining rivojlanishi rentabellik o'lchamini hisobga olgan holda shaharning yirik korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining aloqa xizmatlariga bo'lgan talablari hajmini hisobga olgan holda rejalashtiriladi.

Barcha shaharlarda aloqa bo'limlaridan tashqari pochta qutilari tarmog'i, pochta qabul qilish va topshirish punktlari, pochta to'lovi belgilarini sotish punktlari (kitob va savdo do'konlarida, kiosklarda va h. k) tashkil qilinadi.

Pochta qutilari tarmog'ini rivojlantirish aholiga xizmat ko'rsatish hamda yozma xat-xabarlar almashuvini faollashtirish yaxshilashning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Pochta qutilarining zarur soni har bir shaharning aniq xususiyatlari, maydonning kattaligi va konfiguratsiyasi, alohida tumanlar bo'yicha aholi soni va zichligi, muassasa, korxonalar va tashkilotlarning joylashgan o'rnini hisobga olgan holda belgilanadi. Pochta qutilari tarmog'ini rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichi bo'lib bitta pochta qutisi bilan xizmat ko'rsatiladigan radius kattaligi hisoblanadi. Pochta qutilari tarmog'i Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan belgilangan normativlarni hisobga olgan holda rejalashtiriladi.

Pochta qutilari shahar hududida iste'molchilar uchun qulay bo'lgan joylarda bir tekis joylashtiriladi hamda obyektga kirish joylarida va uning ichkarisida (operatsiya zalida) osib qo'yilishi shartdir.

#### Shahar ichida pochta tashishni tashkil qilish

Shahar ichida pochta qatnovini tashkil qilishda asosiy vazifa bo'lib transportdan samarali foydalanib, pochta jo'natmalarini tashishda belgilangan nazorat muddatlarini ta'minlash hisoblanadi. Shaharlarda pochta tashish uchun avtotransportdan foydalaniladi. Shahar ichidagi pochta transportining barcha ishlari jadvallar bo'yicha qat'iy amalga oshiriladigan tashishning aniq marshruti asosida quriladi.

Shaharlarda quyidagi pochta marshrutlari tashkil qilinadi:

- aloqa obyektlari bilan pochta almashuvi bo'yicha;
- pochta qutilaridan xatlarni chiqarib olish uchun;
- pochtani yetkazib berish uchastkalaridagi tayanch punktlari yetkazib berishi uchun;
- posilkalarni uyga yetkazib berish va boshqalar.

Shaharlarda radial va halqali marshrutlar tashkil qilinadi. Radial shahar ichidagi marshrutlar, odatda, kirish yo'lka marsh-rutlarida, shuningdek, halqali marshrut belgilangan nazorat muddatlari bajarilishini ta'minlash imkoni bo'lmaganda qo'llaniladi.

Barcha qolgan hollarda shaharlarda bosib o'tiladigan masofani qisqartirishiga va harakatlanuvchi sostavga bo'lgan ehtiyoj kamayishiga sabab bo'luvchi halqali avtomarshrutlar tashkil qilinadi.

Pochtani tashish samaradorligi ma'lum darajada oqimlar kattaligi va tuzilmasini hamda marshrutlar ratsional tuzilishini hisobga olgan holda avtomobillar turi to'g'ri tanlanishiga bog'liq.

Shahar pochta tashish uchun tashish xususiyati va yuklanish hajmiga bog'liq holda har xil turdagi mashinalardan foydalaniladi. Marshrutlar almashuv punktlari o'rtasidagi masofa, tashqi transportning kelish va ketish chastotasi va vaqti, gazetalarning bosmadan chiqish vaqti, yetkazib beriladigan xat-xabarlarining soni, marshrutlarga xizmat ko'rsatish uchun berilgan vaqt va boshqalarni hisobga olgan holda tuziladi. Transportning shahar ichidagi marshrutlar bo'yicha harakatlanish davriyligi belgilangan normativlarga muvofiq har bir marshrutning turi bo'yicha belgilanadi. Masalan, shahar aloqa bo'limlari bilan pochta almashuvi bo'yicha marshrutlardagi harakatlanish davriyligi yetkazib

berish sonidan kam bo'lmasligi kerak hamda qabul qilingan barcha turdagi pochta jo'natmalarini iste'molchilar bilan ishlash vaqti tugagunga qadar o'z vaqtida jo'natilishini ta'minlashi kerak. Kun davomida xat-xabarlarni pochta qutilaridan chiqarib olish chastotasi pochta aloqasining milliy va boshqa operatorlari tomonidan belgilanadi.

Pochtamlar bilan bir qatorda tuman aloqasi bog'lama mavjud bo'lgan yirik shaharlarda xatlar pochta va aloqasi bog'lama tomonidan markazlashtirilmagan tizim bo'yicha pochta qutilaridan chiqarib olinadi. Tuman aloqasi bog'lama mavjud bo'lmagan shaharlarda xat-xabarlar markazlashtirilgan tarzda (pochtamt, shahar aloqa bog'lamasi (ShAB), pochta tomonidan chiqarib olinadi.

Shaharning muayyan sharoitlaridan kelib chiqib, shahar ichida pochta tashish uchun ixtisoslashtirilgan marshrut singari birlashtirilgan marshrutlar ham tashkil qilinadi.

Ixtisoslashtirilgan marshrutlar soni ( $M$ ) (masalan, aloqa obyektlari bilan almashuv) marshrutga kiritilishi lozim bo'lgan ( $A^1$ ) punktlar soni, ( $V_t$ ) transportning texnik tezligi, aloqa punktida almashuv uchun vaqt, punktlar orasidagi masofa va marshrutga xizmat ko'rsatish uchun berilgan vaqtdan ( $T_{reys}$ ) kelib chiqqan holda hisoblab chiqiladi.

$$M = N/n, \quad (3.8)$$

bu yerda  $n$  - bitta marshrutga kiritiladigan punktlarning o'rtacha soni:

$$n = T_{reys} / (\bar{t}_{hr} + \bar{t}_{alm});$$

$\bar{t}_{hr}$  - 2 ta almashuv punkti o'rtasidagi avtomobil harakatining o'rtacha vaqti, daq:

$$\bar{t}_{hr} = \bar{l} / V_t; \bar{l} - almashuv punktlari o'rtasidagi o'rtacha masofa;$$

$$\bar{t}_{alm} - almashuv punktida almashuv uchun o'rtacha vaqt.$$

Avtotransportdan samarali foydalanish uchun birlashtirilgan marshrutlar tashkil qilinadi. Mahalliy sharoitlarga bog'liq holda birlashtirishning turli variantlaridan foydalanish mumkin. Masalan, xatlarning pochta qutilaridan chiqarib olinishi pochta yetkazib berish bilan birlashtiriladi; yetkazib berish uchastkalaridagi tayanch punktlarga pochta yetkazib berilishi pochta tashish bilan birlashtirilishi va boshqalar. Birlashtirish variantlari ularni qiyoslash yo'li bilan hamda belgilangan sifat normativlariga amal qilish sharti bilan tanlanishi kerak.

Birlashtirilgan marshrutlar soni ixtisoslashtirilgan marshrutlar kabi hisoblab chiqiladi.

$$M = (N_{p,q} + N_{ShAB} + N_{GSP}) / n \quad (3.9)$$

$N_{p,q}$ ,  $N_{ShAB}$ ,  $N_{GSP}$  - pochta qutilarining soni, birlashtirilgan marshrutlarda xizmat ko'rsatilishi lozim bo'lgan shahar aloqa bo'limlari va GSP punktlari;

$n$  - 1-birlashtirilgan marshrutga kiritiladigan punktlar soni

$$n = T_{reys} / (\bar{t}_{hr} + \bar{t}_{alm});$$

$\bar{t}_{hr}$  - birlashtirilgan marshrutlarda almashuv punktlari o'rtasidagi avtomashinalar harakatlanishining o'rtacha vaqti, minut, punktlar (7) orasidagi o'rtacha masofa va avtomashinalarning texnik harakatlanishi tezligidan kelib chiqqan holda belgilanadi

$\bar{t}_{alm} = (t_{pq} N_{pq} + t_{ShAB} N_{ShAB} + t_{GSP} N_{GSP}) / (N_{pq} + N_{ShAB} + N_{GSP})$   $t_{pq}$  - pochta qutisidan xatlarni chiqarib olish uchun vaqt;

$t_{ShAB}$  - ShABda almashish uchun vaqt;

$t_{GSP}$  - bitta GP punkti bilan almashish uchun vaqt.

Birlashtirilgan marshrutlar pochta avtotransportidan unumli foydalanishga, pochtni tashish uchun ekspluatatsiya xarajatlarini qisqartirishga va kuzatuvchilar sonini kamaytirishga sabab bo'ladi. Shahar ichidagi marshrutlarda pochta aloqa xodimlari kuzatuvda va kuzatuvsiz tashiladi.

Xat-xabarlarni pochta qutilaridan chiqarib olish, pochtni punktlarga va yetkazib berish uchastkalaridagi tayanch punktlariga yetkazib berish bo'yicha marshrutlarda kuzatuvchining funksiyasini, odatda, haydovchilar bajaradi, buning uchun ular tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq mukofotlanadi.

Shahar pochta aloqasi bog'lamasida pochtni harakatlanishi va unga ishlov berish muddatlarini operativ boshqarish va nazorat qilish uchun gazeta-jurnallarni jo'natuvchi shahar obyektlari, aeroport hamda vokzal va hokazolar bilan dispetcher aloqasi tashkil etilishi mumkin.

Pochta aloqasining yirik shahar bog'lamada ikki tomonlama dispetcher aloqasining maxsus qurilmalari, shuningdek, avtomashinalarning o'z vaqtida harakatlanishi, pochtni almashish, ishlov berish, ortish va tushirishni kuzatish uchun televizion qurilmalarning qo'llanish holatlari uchraydi.

Halqali marshrutning tuzilmasi, marshrutga kiritiladigan punktlar oldindan belgilangan bo'lsa, murakkab ko'p variantli vazifani o'z ichiga oladi.

Marshrutlarga kiritiladigan  $p$  punktlarda punktlarni aylanib chiqishning mumkin bo'lgan variantlar soni  $(p - 1)$  tashkil etadi.

Yanada murakkab vazifa xizmat ko'rsatilishi belgilangan nazorat muddatlaridan o'tib ketmasligi kerak bo'lgan bir nechta halqali marshrutlarni o'z ichiga oluvchi pochta tashish sxemasini tuzishda yuzaga keladi.

Ushbu vazifa hal etilishi uchun «tarqatish vazifasi» algoritmidan foydalanish mumkin.

Ushbu metodni qo'llash marshrutlar sonini optimal yoki optimalga yaqinroq belgilash, ular o'rtasida korxonalarini taqsimlash va ularni har bir marshrut doirasida belgilangan nazorat muddatlarini hisobga olgan holda aylanib chiqish ketma-ketligini belgilash imkonini beradi.

**Shaharda pochta jo'natmalarini yetkazib berishni tashkil qilish.** Yetkazib berish korxonalarining aniq ishi pochta aloqasi ishidagi yuqori sifatning zaruriy sharti bo'lib hisoblanadi. Yetkazib berishning to'g'ri tashkil etilishi xat-xabarlar va nashrlarning jo'natuvchidan adresatga olib borilishi uchun sarflanadigan vaqtning qisqarishiga va ishdagi tejamkorlik natijalariga erishishga sabab bo'ladi.

Yozma xat-xabarlar va davriy nashrlarning katta qismini adresatlarga pochtonlar tarqatadi. Qolgan qismi adresatlarga bevosita aloqa obyektlarida "yo'qlab olinadigan", ijaraga olingan javonlar orqali yetkazib beriladi yoki topshiriladi.

Shaharda pochta jo'natmalarini yetkazib berishni tashkil qilishda iste'molchilarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish, yetkazib berishning belgilangan muddatlarini bajarish, ularning mehnat unumdorligini oshirish, yetkazib berish tannarxini pasaytirish, yangi texnologiyalarni va AKTni joriy etish ta'minlangan bo'lishi zarur. Yuqorida bayon etilgan talablar asosida yetkazib berishni tashkil qilish uchun quyidagi asosiy masalalarni hal etish zarur:

- yetkazib berish uchun kelgan pochta jo'natmalari yuklanishini belgilash;

- yetkazib berishning zarur miqdorini belgilash;

-yetkazib berish rayonlarini va yetkazib berish uchastkalarini qurish;

-mexanizatsiyalash vositalarini, AKT va yetkazib berishni tashkil qilishning mukammal metodlarini tatbiq etish.

Qo'yilgan masalalar qanday hal etilayotganligini ko'rib chiqamiz. Tizimni tanlash va pochta jo'natmalarini yetkazib berishni tashkil qilish ma'lum darajada mazkur shahar doirasida yetkazib berish uchun kelgan oqimlar kattaligiga bog'liqdir.

Har bir yetkazib berish uchastkasi bo'yicha o'rtacha bir kecha-kunduzlik yuklanish hajmi hisobga olish ma'lumotlari asosida belgilanadi. Rejalashtirilgan davr uchun yuklanish yozma xat-xabarlar, nashrlar, pul o'tkazmalarining kiruvchi almashuvi rejalashtirilgan o'sish tempidan kelib chiqqan asosiy yil uchun hisobot ma'lumotlari asosida hisoblab chiqiladi.

Yetkazib berishlar soni aholiga xizmat ko'rsatish jadalligining darajasini xarakterlovchi muhim normativ bo'lib hisoblanadi.

Pochtalionning har bir yetkazib berish uchun chiqish vaqti, jumladan, aylanib chiqish va qaytish vaqti ham aloqa bog'lamasining rahbariyati tomonidan tasdiqlangan jadval bilan tartibga solinadi.

Xizmat ko'rsatish hududining kattalashishi bilan pochtalonlarning yuksiz yurishlari ko'payadi, shuning uchun yirik shaharlarda pochta jo'natmalarini yetkazib berish, odatda, markazlashtirilmagan usulda amalga oshiriladi. Bu pochtalonlarning unumsiz bo'sh yurishlarini qisqartirishga olib keladi hamda xat-xabarlar va nashrlarning harakatlanishini tezlashtiradi, yetkazib berish uchastkalari va xizmatning rentabelligini oshiradi.

Yetkazib berish rayonlarining soni shahar konfiguratsiyasi va planirovkasiga, aholi tarkibi va zichligiga, aloqa bog'lamasining joylashishiga bog'liq. Yetkazib berish rayoni har bir bog'lama uchun shaharning sxematik plani bo'yicha yetkazib berish bog'lama o'rtasida xat-xabarlar va nashrlarning adresatlargacha tezroq borishini hisobga olgan holda shahar hududini taqsimlash yo'li bilan belgilanadi.

Har bir tuman yetkazib berish uchastkalariga bo'linadi. Uchastkalarni loyihalashtirishda quyidagi ma'lumotlardan:

-xizmat ko'rsatishning asosiy obyektlarini - muassasalar, korxonalar, bilim yurtlari va hokazolarni ajratib ko'rsatilgan holda, har bir ko'cha va tor ko'cha bo'yicha xat-xabarlar va nashrlarni bitta yetkazib berish uchastkasi uchun nazorat muddati ( $K_n$ ), uchastkani aylanib chiqish va adresatlarga xat-xabarlarni va nashrlarni topshirish uchun vaqt normalaridan foydalaniladi. Bunda xizmat ko'rsatish rayonlarining joylashish xususiyati, shuningdek uchastkadagi turar binolarning xususiyati hisobga olinadi. Pochtalionning uchastkani aylanib chiqish, xat-xabarlarni topshirish va boshqa ishlar uchun vaqt normasi mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda texnik normalash metodlari bilan belgilanadi.

Yetkazib berish uchastkasi va aylanib chiqish marshrutining hududini belgilashda quyidagilar hisobga olinadi:

har bir ko'cha va tor ko'cha imkon qadar bitta uchastka tarkibiga kiritiladi, bu xat-xabarlarni uchastkalar bo'yicha saralashni sezilarli darajada osonlashtiradi;

pochtalonlarning bo'sh yurishlarini bartaraf etish uchun yetkazib berish uchastkalarining boshi, odatda, yetkazib berish bog'lamasiga yaqin joyga loyihalashtiriladi;

har bir uchastkaga xizmat ko'rsatish, jumladan uni aylanib chiqish va xat-xabarlarni adresatlarga topshirish vaqti jadval bilan belgilanadi. Yangitdan tashkil qilingan yetkazib berish uchastkalari texnik normalash metodlari bilan tekshiriladi va shundan so'ng qat'iy belgilanadi.

Yetkazib berish uchastkalarini aylanib chiqishning optimal marshrutlari, ular o'rtasida hududni optimal taqsimlash kabi maxsus matematik metod - «tarqatish vazifasi» algoritmi yordamida belgilanishi mumkin. Har bir uchastkaga pasport tuziladi, unga muntazam ravishda unda yuz berayotgan barcha o'zgarishlar kiritiladi.

Pasportlardan tashqari, har bir yetkazib berish bog'lamasida yetkazib berish rayonining xaritasi tuziladi, unda ko'cha va tor ko'chalarning nomi, burchakdagi uylarning raqamlari, yirik korxonalar va muassasalar, tayanch punktlarning joylashishi va uchastkani aylanib chiqishning maqsadga muvofiq bo'lgan marshrutlari ko'rsatiladi.

Yozma xat-xabarlar va nashrlarni yetkazib beruvchi pochtaonlarning bitta yetkazib berish uchun umumiy vaqt sarfi (T) summa (10) ko'rinishida taqdim etilishi mumkin:

$$T = T_{ich} + T_{ot} + T_{ve}, \quad (3.10)$$

bu yerda  $T_{ich}$  - korxonada ishlash uchun vaqt;

$T_{ot}$  - yetkazib berish uchastkalari bo'yicha o'tish uchun vaqt;

$T_{ve}$  - adresatlarga xat-xabarlar va nashrlarni topshirish, jumladan uy va kvartiralarga kirish uchun vaqt.

Pochtaonning korxonada ichidagi ishi yetkazib berish uchun xat-xabarlar va nashrlarni qabul qilish, yetkazib berish uchastkasining marsh-rutlari bo'yicha saralash, tarqatilmagan xat-xabarlarni hamda ustama to'lov va boshqa pul mablag'lari operatsiyalari bo'yicha hisobotlarni rasmiylashtirish va topshirishdan iborat.

Pochtaonlarning ishini korxonada ichida ish vaqti sarfini qisqartirish uchun ularning ish joylarini maxsus stollar bilan jihozlab to'g'ri tashkil qilish zarur.

Har bir pochtaonning ish joyida yetkazib berish uchastkasining plani ilib qo'yiladi, unda aylanib chiqish yo'li ko'rsatiladi.

Pochtaon ishining ikkinchi tashkiliy elementi bo'lib yetkazib berish uchastkalari bo'yicha yurish hisoblanadi.

Bunga quyidagilar kiradi: birinchidan, korxonadan uchastkadagi birinchi uygacha bo'lgan yo'l; ikkinchidan, uchastka bo'ylab yo'l yurish, bunga kirib-chiqishlar kirmaydi (kirishlarga uy (darvoza, pod'ezd)ga kirishdan boshlab undan chiqishgacha bo'lgan vaqt kiradi); uchinchidan, uchastkadan yetkazib berish bog'lamasigacha qaytish yo'li.

Bu vaqt texnik normalash metodi bilan belgilanadi. Yetkazib berish uchastkasi qanchalik to'g'ri qurilgan bo'lsa hamda uni aylanib chiqish marshruti qanchalik yaxshi tashkil etilgan bo'lsa, uchastkani aylanib chiqish uchun sarflanadigan vaqt shunchalik kam bo'ladi.

Marshrutni tanlashda pochtaonning xizmat ko'rsatadigan yetkazib berish uchastkasi hududida maqsadga muvofiq va tejamlil yurishi to'g'risidagi masalani hal etish zarur.

Uchastkani aylanib chiqishning uchta varianti mavjud: ko'chalarni bir tomonlama, ikki tomonlama va aralash ketma-ketlikda aylanib chiqish. Masalani hal etishda, shahar markazidagi ko'chalar keng bo'lsa yoki uncha keng bo'lmasa, yuklanish katta bo'ladi, bunda bir tomonlama yurish foydaliroq hisoblanadi; ko'chalari tor, yuklanish esa kichik bo'lgan shahar tumanlarida ikki tomonlama yurish tejamlidir.

Pochtaonning uchastkadagi ishining uchinchi elementi adresatlarga pochta jo'natmalarini topshirish hisoblanadi, bunga kirib-chiqishlar

uchun vaqt ham kiradi. Topshirish uchun vaqt kattaligi quyidagi qator omillarga bog'liq:

-bino xarakteri va uylarning qavatiligi;

-uylarda liftlarning mavjudligi;

-uyning abonent javonlari va boshqalar bilan ta'minlanganligi.

Pochtaonlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash va mehnat sarfini tejash uchun qavatlar soni uchtadan ortiq bo'lgan uylarning birinchi qavatidagi pod'ezdlarda abonent javonlari o'rnatilishi mumkin.

Shaharda yetkazib berishni aniq tashkil qilish sharti bo'lib uy va kvartiralarning to'g'ri raqamlanganligi, uylarning yetarlicha yoritilganligi hisoblanadi.

Rejali davr uchun yetkazib berish uchastkalarining zarur soni ( $N_{rej}$ ) quyidagi ifoda bilan belgilanadi:

$$N_{rej} = \frac{Q_{omch} I_Q (\bar{t}_{BH} + \bar{t}_{BP}) + T_{nprox} I_S}{K_S - \bar{t}_{d,y} - \bar{t}_{c,y}}, \quad (3.11)$$

bu yerda  $Q_{omch}$  - asosiy davrda bitta yetkazib berishga yuklanish;

$I_Q$  - rejali davr uchun yuklanishning o'sish indeksi;

$\bar{t}_{vr}$  - bitta jo'natmani topshirish uchun o'rtacha vaqt;

$\bar{t}_{va}$  - bog'lama ichida bitta jo'natmaga ishlov berish uchun o'rtacha vaqt;

$T_{nprox}$  - asosiy davrda bitta yetkazib berishda barcha uchastkalar bo'ylab o'tish uchun vaqt;

$I_S$  - xizmat ko'rsatish rayoni hududining o'zgarish indeksi;

$\bar{t}_{d,u}$  - aloqa korxonasidan yetkazib berish uchastkasigacha bo'lgan yo'lda yurishning o'rtacha vaqti;

$\bar{t}_{k.u}$  - yetkazib berish uchastkasidan aloqa obyektigacha bo'lgan yo'lda yurishning o'rtacha vaqti;  
 $K_5$  - bitta yetkazib berish uchun belgilangan nazorat muddati.

Pochtalonlarning shtati yetkazib berish uchastkalarining soniga bog'liq holda quyidagi formula bo'yicha belgilanadi

$$R_{umum} = T_{gr} \cdot N \cdot 30,4 \cdot 1,05 / 174, \quad (3.12)$$

bu yerda  $R_{umum}$  - pochталonlarning zarur soni;

$T_{gr}$  - pochталonlarning grafik bo'yicha ishlash vaqti;

$N$  - uchastkalar soni;

1,05 - ta'til uchun rezervni hisobga oluvchi koeffitsient.

Hozirgi vaqtda shaharlarda yozma xat-xabarlar va nashrlarni motorlashtirilgan tarzda yetkazib berish keng qo'llaniladi. Yetkazib berishni motorlashtirish pochталonlar mehnatini sezilarli darajada yengillashtiradi, uning unumdorligini oshiradi, pochталonlar soniga bo'lgan ehtiyojni qisqartiradi.

Bu yetkazib berishni sezilarli darajada markazlashtirish va yetkazib beruvchi aloqa korxonalaridagi kiruvchi pochta jo'natmalariga ishlov berish bo'yicha ishlab chiqarish jarayonini ratsional tashkil etish imkonini beradi.

Pochta jo'natmalarini motorlashtirilgan tarzda yetkazib berishning turli usullari mavjud. Shaharlarda tayanch punktlardan foydalangan holda motorlashtirilgan yetkazib berish metodi rivojlanganligi amaliyotda ko'rinib turibdi, bunda pochta pochтамtlarda, aloqa bog'lama va bo'limlarida har bir adresatgacha saralanadi va tayanch punktlariga avtomobillar (motorollerlar)da tashib keltiriladi.

Ushbu usulning afzalliklari ichki ishlarni yangicha tashkil qilish, pochtaga ishlov berish muddatlarini qisqartirish va mehnat sarfini kamaytirishga yo'naltirilganligi, pochталonlarning ratsional marshrutlarini tashkil qilish maqsadida yetkazib berish uchastkalarini qayta qurish hisoblanadi.

Pochtani yetkazib berish uchun tayyorlashni tashkil qilishning progressiv parallel ketma-ketlikdagi shakli bo'yicha ish olib boriladi.

Pochta aloqasi bo'limiga kelib tushganidan keyin ichki ishda bajariladigan barcha operatsiyalarni bir vaqtning o'zida amalga

oshirish va pochta ortilgan avtomashinani hamda pochталonlarni uzoq uchastkalarga ketma-ketlik bilan jo'natish jarayoni boshlanadi.

Yetkazib berish uchastkalari aloqa korxonasidan joylashish masofasiga muvofiq kattaligi bo'yicha turlicha quriladi.

Aloqa bo'limiga yaqin joylashgan uchastkalar, odatda, xizmat ko'rsatiladigan xonadonlarning soni, yetkazib beriladigan pochtaning hajmi bo'yicha katta bo'lmaydi.

Markalash mashinalari shahar muassasalari, tashkilotlari va korxonalariga xizmat ko'rsatishda ma'lum qulayliklar yaratadi. Ular xat-xabarlariga taqvim tamg'a izini pochta yig'imining to'lov summasini ko'rsatgan holda tushiradi, buyurtmali xatlarda esa, bundan tashqari, tartib raqamini ko'rsatgan holda qabul qilish yorlig'i izi tushiriladi.

Pochta to'lovining belgilarini sotib olish, pochta jo'natmalariga markalar yopishtirish, ular bo'yicha hisob-kitob va hisobot yuritish zaruratiga hojat qolmaydi.

Bunda aloqa obyektlarida pochta to'lovining belgilariga bo'lgan ehtiyoj qisqaradi, markalash mashinasi orqali o'tkazilgan chiquvchi xat-xabarlariga tamg'a tushirish zarurati bartaraf etiladi, bu unga ishlov berilishini tezlashtiradi va arzonlashtiradi. Yig'im summasini ko'rsatadigan hisoblagichli markalash mashinalarining joriy etilishi xat-xabarlarining to'lovini nazorat qilishni yengillashtiradi.

### 3. 5. Magistral pochta aloqasini tashkil qilish

Pochtani magistral tashish O'zbekiston pochta aloqasi tizimining muhim tashkiliy elementi bo'lib hisoblanadi.

U transport vositalarining magistral marshrutlari bilan o'zaro bog'langan Toshkent, respublika va viloyat markazlarida joylashgan pochтani tashish marshrutlari tarmog'ini o'z ichiga oladi.

Pochta jo'natmalarining asosiy qismi aynan magistral pochta tarmoqlari bo'ylab jo'natiladi, xalqaro pochta jo'natmalarining barcha oqimlari ham ular orqali o'tadi. Shu tariqa, magistral pochta

aloqasi butun pochta aloqasini tashkil qilishga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Pochtani magistral tashish tizimining qurilishi va ekspluatatsiya qilinishining qator sabablariga: -mamlakatning maydoni, transport infratuzilmasining xususiyatlari, aholining to'lash imkoniyati mavjudligi, shuningdek, milliy pochta operatorining iqtisodiy holatiga asoslangan. O'zbekistonda 2000-yilga qadar avia va temir yo'l transporti ustuvor bo'lgan, bu qulay va ishonchli bo'lib hisoblangan. Avtomobil transporti faqat Toshkent va Toshkent viloyati bo'yicha foydalanilgan.

Bugungi kunda aviatransportning qo'llanishi ham iqtisodiy jihatdan, ham ko'rsatiladigan xizmatlar nuqtai nazaridan foydasiz va nomuvofiq bo'lib bormoqda.

Bugungi kunda pochta tashishni rivojlantirish uchun istiqbolli transport bo'lib avtomobil transporti hisoblanadi. Faqat avtomobillarning qo'llanishi yozma xat-xabarlarni jo'natishga tayyorligi va transport vositasining harakatlanish jadvalini vaqt bo'yicha kelishish, minimal xarajatlar bilan qisqa muddatlarda pochta yetkazib berish imkonini beradi. Magistrallardagi pochta aloqasi transporti va bog'lamaning kelishilgan tarzda ishlashi ish jadvallari va grafiklari, yozma xat-xabarlar, nashrlar va posilkalarning yo'nalish rejalari, shuningdek, pochta jo'natmalariga ishlov berish va harakatlanishining barcha bosqichlarida nazorat qilish bilan erishiladi.

Respublika bo'yicha davriy matbuotni yetkazib berishni tezlashtirish, shuningdek pochta jo'natmalarini o'z vaqtida yetkazib berish maqsadida respublikaning viloyat markazlari bilan 6-marotabali almashuv tashkil qilingan.

"Xalqaro pochta" filiali "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etilayotgan va "Yangi O'zbekiston" kunlik Respublika gazetalarini va boshqa matbuot nashrlarini Viloyatlar markazlariga yetkazib berish vazifasi yuklatilgan.

"Xalqaro pochta" filiali Respublika bo'ylab Andijon, Farg'ona, Namangan, Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy, Samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari bilan yuk avtotransportlari orqali

haftasiga 5 kun hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm va Surxondaryo viloyatlari bilan haftasiga 7 kun avia yo'nalishlari orqali pochta almashinuvlarini amalga oshiradi.

Shuningdek, Qozoqiston Respublikasi bilan haftada 2 marotaba hamda Turkmaniston Respublikasi bilan haftada 1 marotaba yuk avtomashinalarida pochta almashinuvlarini amalga oshiradi.

Bundan tashqari 180 dan ortiq uzoq va yaqin xorij mamlakatlari bilan 30 dan ortiq avia reyslar orqali Respublikamizdan jo'natilgan posilka jo'natmalari, xat-xabarlar va Respublikamizga kiruvchi posilka jo'natmalari, xat-xabarga ishlov berilgan. Shu bilan bir qatorda Respublikamizning Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar o'rtasida posilka jo'natmalari kg hamda xat-xabar jo'natmalari kg filialning 8 ta "Isuzu", 1ta Damaz, 2ta "Gazel" hamda 1 ta "Lada Largus" rusumli avtomashinalari orqali yetkazib berilgan.

Xalqaro pochta jo'natmalari Filialning Pochta xavfsizligi uchastkasining 1ta Respublika markazidan uzoq joylashgan Qoraqalpog'iston respublikasi, Xorazm, Surxondaryo viloyatlari bilan pochta almashuvi haftasiga olti marotaba "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniya reyslari orqali amalga oshirilmoqda.

Qolgan, Respublika markaziga yaqin joylashgan viloyatlar bilan pochta almashuvi Toshkent-Andijon-Toshkent, Toshkent-Samarqand-Navoiy-Toshkent, Toshkent-Navoiy-Buxoro-Toshkent, Toshkent-Qarshi-Toshkent avtomobil magistral yo'nalishlarida qatnaydigan avtomashinalar orqali amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari Toshkent-Olot-Toshkent xalqaro avtomobil magistral yo'nalishida qatnaydigan avtomashina orqali Turkmaniston respublikasi bilan haftasiga bir marotaba xalqaro pochta almashuvi va

Toshkent-Qoplonbek-Toshkent avtomobil magistral yo'nalishida qatnaydigan avtomashina orqali Qozog'iston respublikasi bilan haftasiga ikki marotaba xalqaro pochta almashuvi amalga oshirilmoqda.

Endi qisqacha xalqaro faoliyat to'g'risida to'xtalib o'tamiz. O'zbekiston Respublikasi, 1994-yil 24-fevraldan buyon Butunjahon pochta ittifoqining teng huquqli a'zosi hisoblanadi.

"O'zbekiston pochta" aksiyadorlik jamiyati milliy pochta operatori sifatida BPI dan pochta sohasida bo'layotgan yangiliklar va o'zgarishlar haqida muntazam ravishda ma'lumotlar olib turadi.

"Xalqaro pochta" filiali esa O'zbekiston respublikasining pochta aloqasi darvozasi sifatida faoliyat yuritib, yildan-yilga xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirib kelmoqda.

Hozirgi kunda 100 dan oshiq mamlakatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri pochta ayriboshlash amalga oshirilmoqda. Shu jumladan 24 davlat bilan xalqaro pochta almashuvi "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi va Korean AIR aviakompaniyasi reyslari orqali to'g'ridan-to'g'ri olib borilmoqda. Jumladan:

18 ta uzoq xorij davlatlari va 6 ta MDX davlatlaridir

Yer usti transporti bilan to'g'ridan-to'g'ri xalqaro pochta almashuvi

3 ta davlat bilan amalga oshiriladi.

Bular: Qozog'iston, Turkmaniston va Rossiya davlatlaridir.

Korxonada ish jarayonini tezlashtirish va hujjatlarni rasmiylashtirishni jahon andozalari darajasiga olib chiqilgan.

Zamonaviy texnika va dasturlardan foydalanish natijasida Respublika ichida o'tayotgan xat-xabarlar filialda 24 soat ichida saralanib, o'z yo'nalishlari bo'yicha jo'natilmoqda.

Hozirgi kunda korxonaning Xatlar saralash sexida bir sutka ichida o'rtacha 3500-4000 tagacha ro'yxatdan o'tuvchi pochta jo'natmalari va 300-400 kg atrofida oddiy xat-xabarlarga va xalqaro sexida 500-600 tagacha mahalliy va xalqaro posilkalarga ishlov berilib manzillariga yuborilmoqda.

Umum jahon pochta ittifoqining talablari va tavsiyalarini bajarish yo'lida korxonada bir muncha ishlar olib borilmoqda jumladan:

- ishlab chiqarish sexlaridagi ish joylariga zamonaviy elektron tarozilar o'rnatilgan.

ayni vaqtda "Ro'yxatga olinadigan xalqaro pochta jo'natmalarini yetkazilish nazorati tizimi" ni ishlab chiqarishga joriy etilgan bo'lib, ushbu tizim "INTERNET" tarmog'iga ulangan, har bir mijoz "INTERNET" tizimidagi "O'zbekiston pochta" AJ ning WEB saytiga kirib o'zi jo'natgan posilkani hozirgi vaqtda qayerda ekanligini yoki egasiga topshirilganligini bilib olishiga imkon beradi.

Ushbu ishlar takomillashtirilib, 2010-yildan boshlab, xalqaro pochta posilkalarini yetkazilishi nazorati ma'lumotlar "PNG" dasturi orqali BPI ga ham uzatilmoqda.

"Ro'yxatga olinadigan xalqaro pochta jo'natmalarini yetkazilish nazorati tizimi" ga barcha viloyatlardagi tumanlar ham ulangan. Ushbu ishlarni amalga oshirilishini ta'minlash uchun filial sex va uchastkalaridagi ish joylariga kompyuter va serverlar o'rnatilgan. Pochta xavfsizligini ta'minlash uchun zamonaviy videokameralar o'rnatilgan bo'lib bu o'z navbatida barcha ish joylaridagi ish jarayonlarini nazorat qilib borish imkoniyatini beradi.

2019 yil davomida 100 ta davlatlar bilan yer usti va avia yo'nalishlarda xalqaro pochta jo'natmalarining almashinuvi amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi kunda Qozog'iston Respublikasi orqali 42 davlat bilan faqat yer usti va avia transporti yo'nalishida haftasiga ikki marotaba xalqaro pochta almashinuvi amalga oshirilmoqda.

1. Respublika hududida avtotransport vositasi orqali:

1-yo'nalish: Toshkent - Samarqand - Qarshi- Toshkent yo'nalishi bo'yicha haftada 3 kun (seshanba, payshanba va shanba) (Guliston, Jizzax, Samarqand va Qarshi);

2-yo'nalish: Toshkent - Samarqand - Navoiy - Toshkent yo'nalishi bo'yicha haftada 2 kun (chorshanba va juma) (Guliston, Jizzax, Samarqand va Navoiy);

3-yo'nalish: Toshkent - Navoiy - Buxoro - Toshkent yo'nalishi bo'yicha haftada 3 kun (seshanba, payshanba va shanba) (Navoiy va Buxoro);

4-yo'nalish: Toshkent-Qarshi - Toshkent yo'nalishi bo'yicha haftada 2 kun (chorshanba va juma) (Qarshi);

5-yo'nalish: Toshkent - Andijon - Toshkent yo'nalishi bo'yicha haftada 5 kun (seshanba, chorshanba, payshanba, juma va shanba) (Xonobod, Qo'qon, Farg'ona va Andijon).

2. Havo yo'llari orqali:

Toshkent - Urganch yo'nalishi bo'yicha HY - 052 reys bilan haftada 5 kun (seshanba, chorshanba, payshanba, juma va shanba);

Toshkent - Nukus yo'nalishi bo'yicha HY - 011 reys bilan haftada 5 kun (seshanba, chorshanba, payshanba, juma va shanba);



Toshkent - Termiz yo'nalishi bo'yicha HY - 065, HY - 065 va HY - 069 reys bilan haftada 3 kun (seshanba, payshanba va shanba).

Ushbu jadvalga asosan avtotransport vositasi va havo yo'llari orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlari bilan haftada 6 marotaba pochta almashinuvi amalga oshiriladi.

Surxondaryo viloyati bilan haftada 3 marotaba (seshanba, payshanba va shanba) havo yo'llari orqali pochta almashinuvi amalga oshiriladi.

Buxoro viloyati bilan haftada 3 marotaba (seshanba, payshanba va shanba) avtotransport orqali amalga oshiriladi.

"Xalqaro pochta" filiali pochta va davriy matbuot nashrlarini tashish uchun 9 ta avtotransport vositalaridan foydalanib kelmoqda.

- 1 ta "Isuzu" rusumli avtotransport vositasi navbatchi;

- 2 ta "Isuzu" rusumli avtotransport vositasi xalqaro pochta almashinuvini amalga oshiradi (Olot "Turkmaniston" bilan seshanba kuni, Qoplonbek "Qozog'iston" bilan seshanba va juma kunlari);

- 5 ta "Isuzu" va 1 ta "Damas" rusumli avtotransport vositasi Respublika hududida magistral yo'nalishda pochta almashinuvini amalga oshiradi.

Bugungi kunda, pochta almashinuvlarini amalga oshirishda foydalanilayotgan avtotransport vositalari eskirganligi sababli, ularning buzilib qolish holatlari yuzaga kelmoqda.

Biroq, davriy matbuot nashrlari "Sharq" nashriyotida belgilangan jadvaldan kechikib chop etilayotganligi sababli, magistral pochta almashinuvlarining o'tkazilishi tasdiqlangan jadvalga rioya qilinmaydi, ya'ni pochta almashinuvlari o'rtacha 1 soatdan 2, 5 soatgacha kechikib amalga oshirilmogda.

Buning natijasida:

1-yo'nalish bo'yicha pochta almashinuvi Samarqand viloyatiga soat 11:50 -13:20 atrofida, Qashqadaryo viloyatiga 15:05-16:35 atrofida yetib bormoqda;

2-yo'nalish bo'yicha pochta almashinuvi Samarqand viloyatiga soat 11:50-13:20 atrofida, Navoiy viloyatiga soat 15:35-17:05 atrofida yetib bormoqda;

3-yo'nalish bo'yicha pochta almashinuvi Navoiy viloyatiga soat 13:30-15:00 atrofida, Buxoro viloyatiga soat 17:45-20:15 atrofida yetib bormoqda;

4-yo'nalish bo'yicha pochta almashinuvi Qashqadaryo viloyatiga soat 13:15-14:45 atrofida yetib bormoqda;

5-yo'nalish bo'yicha Farg'ona viloyatiga soat 12:30-14:00 atrofida, Andijon viloyatiga soat 14:40-16:20 atrofida yetib bormoqda.

### 3. 6. Xalqaro pochta jo'natmalari xizmatini taqdim etishda transport vositalarining o'rnini

Bugungi kunda asosiy xalqaro pochta almashinuvi punkti hisoblangan Xalqaro pochta filialida boshqaruv, nazorat jarayonida qo'llashga mo'ljallangan bir qator axborot tizimlari ishlatiladi: "ASMPRPO" Ro'yxatga olinuvchi pochta jo'natmalarini nazorat qilish avtomatlashtirilgan tizimi; - "IPS" real vaqtda pochta jo'natmalari o'tishini nazorat qilish bo'yicha avtomatlashtirilgan tizimi kabi axborot almashinuvi tizimlari boshqaruv va nazorat olib borish jarayonini bir muncha qulaylashtiradi.

Shu bilan bir qatorda xalqaro va ichki pochta jo'natmalarini transport orqali tashishni nazorat qiluvchi GPRS tizimidan ham samarali foydalanib kelinmoqda.


Bugungi kunda kiruvchi xalqaro pochta jo'natmalarini harakatini tashkil etishda 5 ta transport vositalaridan foydalaniladi.

Avtomobil magistral yo'nalishida, yo'nalish rejasiga binoan tashiladigan xat-xabarlar, posilkalar, sug'urtali pochta va davriy matbuot nashrlarini tashish jadvallari amaldagi yilning 1-yanvardan 31-dekabr gacha faoliyat olib boradi.


"O'zbekiston pochta" A)ning Xalqaro pochta filiali tomonidan Respublikamizning hududiy filiallariga pochta tashish, pochta jo'natmalarni eltib berishning yer usti transport marshrutlari yo'nalishlari chizmalarini ko'rib chiqamiz:




3. 5-rasm. Toshkent, Samarqand, Qarshi, Toshkent yo'nalishi bo'yicha jo'natmalarni yetkazib berish chizmasi.




3. 6-rasm. Toshkent-Samarqand-Navoiy - Toshkent yo'nalishi bo'yicha jo'natmalarni yetkazib berish chizmasi.



3. 7-rasm. Toshkent-Guliston-Jizzax-Samarqand-Navoiy-Buxoro-Toshkent yo'nalishi bo'yicha jo'natmalarni yetkazib berish chizmasi.





3. 9-rasm. Tashkent- Namangan -Qo'qon- Farg'ona - Andijon - Tashkent yo'nalishi bo'yicha jo'natmalarni yetkazib berish chizmasi.

### 3. 7. Pochta tashishning magistral marshrutlarida optimallashtirish

Pochta tashish magistral tarmog'ining matematik modeli sifatida bo'lib, cho'qqilari pochta aloqasi tarmog'ining magistral bog'lama hisoblangan graflar nazariyasi xizmat qilishi mumkin.

Ikki magistral bog'lamalari o'rtasida o'ta yuklanishlarsiz bevosita aloqa mavjud bo'lganda, bu ikki bog'lamani belgilaydigan grafning ikki cho'qqisi qirra bilan bog'langan.

Transport vositasi harakatining har bir marshruti bir nechta shunday qirralarni hosil qiladi; bunday marshrut o'tadigan har bir cho'qqi marshrutdagi barcha keyingi cho'qqilar bilan shunday qirra orqali bog'langan. Harakatlanish yo'llari bir-biriga mos kelgan to'g'ri va teskari marshrutlar mavjud bo'lsa, modeldagi bu juftlikka to'liq graf muvofiq keladi.

Ikki bog'lamalari o'rtasida pochta tashish tarmog'ining modelida bittadan ortiq yoy mavjud bo'lishi mumkin. Hal etilayotgan masalaga bog'liq holda bu yoylar birlashtirilishi yoki alohida hisobga olinishi mumkin. Shuningdek, graf berilishining ikki imkoniyati mavjud. Ularning birida transport vositalari harakatining marshrutlari beriladi, yoylar va ularning sonli tavsiflari masalani hal etish davomida hisoblab chiqiladi. Boshqasida - masala hal etilguncha maxsus algoritm yordamida yoylarga qayta o'zgartiriladi.

U yoki bu yondoshuvning maqsadga muvofiqligi masalaning aniq mazmuni bilan belgilanadi.

Magistral pochta tashishning yo'llarini aniqlash masalasini yechish uchun ko'rib chiqilayotgan modelga bir qator tushunchalar kiritilishi mumkin.

Magistral pochta oqimi deganda har bir aloqaning magistral bog'lamasida hosil bo'ladigan va har qanday boshqa magistral bog'lamaga jo'natish uchun mo'ljallangan pochta jo'natmalari soni nazarda tutiladi.

Bir kecha-kunduzdagi bu oqimning kattaligi yuklanish deb ataladi. Pochta aloqasi uchun yuklanishning hafta kunlari va yil oylariga bog'liqligi o'ziga xosdir.

Bu bog'liqlik tasodifiy xarakterga ega, funksional bog'liqlik bilan xarakterlanishi va oldindan hisoblab chiqilishi mumkin emas, shuning uchun tashishlarni rejalashtirishda bir kecha-kunduzdagi o'rtacha yuklanishdan foydalaniladi. Modelda yuklanish matritsaga yoziladi, uning i-qatori va j-ustunlari kesishuvida turgan elementi grafning i-cho'qqisidan j-cho'qqisiga yo'naltirilayotgan oqimning bir kecha-kunduzdagi o'rtacha kattaligini ko'rsatadi.

Korxonaning o'tkazish qobiliyati deganda u tomonidan bir kecha-kunduzda ishlov berilishi mumkin bo'lgan pochta jo'natmalarining soni tushuniladi.

O'tkazish qobiliyati bir qator omillarga bog'liq, ulardan asosiylari ishlab chiqarish maydoni, mexanizatsiyalash darajasi, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, bir kecha-kunduz davomida kelib tushishning notekisligi, transportni jo'natish

chastotasi va vaqti hisoblanadi. Tashishlarni rejalashtirishda o'rtacha oqimdagi o'tkazish qobiliyati qiziqish uyg'otadi.

Ushbu qirra bo'yicha mahsulot birligini tashish qiymati va qirra uzunligi deganda har bir qirra yoki graf yoyi uchun belgilangan qiymat tushuniladi. Mahsulot birligi deganda qo'yilgan vazifaning aniq mazmuniga bog'liq holda xatlar joylangan qop, posilkali konteyner, bitta posilka tushuniladi.

Ikkita bog'lamlar yoki bog'lamlarning har bir juftligi o'rtasidagi masofa tashish «qiymati» bo'lishi mumkin. Agar bizni jo'natuvchidan oluvchigacha bo'lgan yo'lda o'ta yuklanishlar soni qiziqirsiz, u holda har bir qirraning uzunligi birga teng deb olinadi.

